ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -4

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 4

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Neft va gaz kondensatini ikkilamchi qayta ishlash jarayonlarining nazariy va amaliy asoslari *Quyboqarov O.E.*	9
2	Metanni katalitik oksixlorlash asosida etilen olish texnologiyasini takomillashtirish *Musurmonov X.O.* *Quyboqarov O.E.*	19
3	Metanni katalitik oksixlorlash asosida etilen olish uchun katalizator tanlash *Musurmonov X.O.* *Quyboqarov O.E.*	29
4	Sintez gazdan quyi olefinlar olish jarayonining nazariy va amaliy asoslari *G‘oziyev J.Ya.* *Quyboqarov O.E.*	42
5	Mahalliy xom ashyolar asosida tayyorlangan katalizatorlarda sintez gazdan quyi olefinlarni olish texnologiyasi *G‘oziyev J.Ya.* *Quyboqarov O.E.*	54
6	A gis-based framework for industrial freshwater production and sustainable water resource management using solar energy technologies *Azizbek Rakhmonov Yigitali o‘g‘li* *Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich*	64
7	Применение композиционных покрытий для повышения герметичности газовых скважин. *Мамаджанов Э.У.*	82
8	Конвейер тасмаларини иссиқ вулканизация усули билан улашнинг технологик параметрларини оптималлаштириш *Ҳайдаров Ш.Б.* *Хамзаев А.А.* *Усманова У.Х.*	90
9	Trikotaj korxonasini loyihalashda yassi ignadonli mashinalarni tanlashning texnologik va iqtisodiy asoslari *Turaxujayeva Nilufar Nazirjanovna*	103
10	Влияние мировых цен на цветные металлы на экспортный потенциал горно-металлургических предприятий: теоретический аспект *Бурибоев Дилрух Бахром угли*	111
11	Классификация распределённых фотоэлектрических систем и уровни их сетевой интеграции. *Насруллаев Юсуф Закирович* *Хидиров Мираббос Мирзаёр ўғли*	117
12	pH ni o‘lchash vositalarining metrologik xususiyatlarini aniqlash jarayonida o‘rnatilgan talablarni xalqaro talablarga uyg‘unlashtirish va takomillashtirish *Matyakubova P.M.* *Kadirova SH.A.* *Raxmatullayev S.A.*	133
13	Методы и способы защиты магистральных газопроводов от коррозии *Файзуллаев Ерназар Куат улы*	143
14	Qurilish materiallari sanoatining atrof-muhitga ta’sirini baholash (kitob tumani misolida) *Uzakov Zafar Zoirovich* *Sodiqov Davron Turop o‘g‘li*	151
15	Kattabog‘ soztuprog‘ining keramika mahsulotlari sifatiga ta'sirini tahlil qilish *Saloxidinova Salima Abdujabbor qizi* *Sherxonova Muborak Erkin qizi*	159
16	Mis-molibden boyitish chiqindilaridan foydali komponentlarni qayta ajratib olishning zamonaviy usullar *Shakirov Shuxrat Musayevich*	166

ISSN 3030-3907

	Raufov Lazizbek Murodjon o'g'li *Azizov Inomjon Kodirdjonovich* *Raximov Raxmatullo Rafiqjon o'g'li* *Shokirov Saidnazar Shuxratovich*	
17	Elektron texnologiyalar asosida energiya tejamkor elektr tizimlarini takomillashtirish *Shukurov Begzod O'ktam o'g'li* *Kurbanova Munisakhon Sandjar qizi* *Buxorov Habibullo Jahongir o'g'li* *Eshtemirov Jamshidbek Olimjon o'g'li* *O'rolov Dilshod Baxriddin o'g'li*	174
18	Влияние медико-биологических и социальных факторов риска на развитие острого бронхиолита *Азимова Камола Талатовна* *Ходжакулова Мадина Алишеровна*	183
19	Kadastr tizimini raqamlashtirish: umumiy jihatlar va zamonaviy muammolar *Mallayev Behruz Qo'ldosh o'g'li* *Saitmurotov Bobur Sobir o'g'li* *Amanov Ulug'bek Xoliqul o'g'li*	189
20	Karta kompanovkasini tuzishda gat dasturlaridan foydalanish *Mallayev Behruz Qo'ldosh o'g'li* *Saitmurotov Bobur Sobir o'g'li* *Amanov Ulug'bek Xoliqul o'g'li*	199
21	Tabiiy kvarts qumini boyitish usullari va ularning samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari *Abdusamatova Zaynab Sulaymon qizi* *Adinayev Xidir Abdullayevich*	206
22	Gilos danagidan ultratovushli ekstraksiya jarayoni orqali moy olishda jarayonga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish *Aminov Murodjon Homidovich* *Sharipov Nodirjon Zamirovich*	215
23	Роль искусственного интеллекта и цифровых технологий в развитии личности детей дошкольного возраста *Хидоятова Нигора Авазовна*	225
24	Protoparmeliopsis muralis lishaynigining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi *Abdumamatov Abdulhay Abdupatto o'g'li* *Sobirova Dilzodabonu Baxtiyorjon qizi* *Mirzaolimov Mirjalol Muxammadjon o'g'li* *Egamberdiyev Sobirjon Sulton o'g'li*	235
25	Tephromela atra lishaynigini kimyoviy tarkibi va biologik faolligi *Hoshimova Shaxnoza Rarshanbek qizi* *Ergashova Oyzodaxon Raxmatjon qizi* *Sherg'oziev Qilichbek Marufjon o'g'li* *Egamberdiyev Sobirjon Sulton o'g'li*	243
26	Xorijiy tillarni interaktiv o'rganishda mobil ilovalarni o'rni *Xasanov Adxamjon Akramovich* *Xolmirzayeva Madinaxon Baxromjon qizi*	254
27	Natriy dodesil sulfat eritmasida agregatsiya jarayonlarini dinamik yorug'lik sochilishi usuli bilan tahlil qilish *Ramazonova Zuxro Yorboyevna*	259
28	Вулканизацион прессларнинг конструктив хусусиятлари ва ҳарорат назорат тизимларини такомиллаштириш *Ҳайдаров Ш.Б.* *Хамзаев А.А.* *Усманова У.Х.*	267

ISSN 3030-3907

29	Iot or arduino-based automatic control of humidity and temperature in greenhouse conditions *Jabborov Alisher Oltiboyevich* *Urolov Akbar Ziyadullayevich*	277
30	Neft va gaz quduqlarini sementlashda atrof muhit va mehnat muxofazasi *Murtazaev Abdijabbor* *Maxmudov Valijon* *Abdalimov Azamat* *Abdulin Riyan* *Xudoyberdiyeva Go'zal Shavkat qizi*	288
31	Vinno E10 apparatida molar homiladorlikni aniqlash metodlari *Ubaydullayeva Gullola* *Gulamov Shuhrat*	294
32	"As-nafas" va "As-immun" oziq-ovqat qo'shilmalari tarkibidagi quruq va shilliq moddalar foiz ulushini aniqlash *Islombek Karimov Jumaboy o'g'li* *Abdulaziz Jurayev Abdukaxxor o'g'li*	304
33	O'zbekistonda shamol elektr stansiyalaridan elektr energiyasini olish: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar *Abdirasulov Komil Fayzulla o'g'li* *Esanov Jahongir Abdig'affor o'g'li* *Xushboqov Botir Azamat o'g'li* *Sultonov Bozorboy Jo'raqulovichi*	310
34	Muhandislik grafikasi fanida "ko'rinishlar" mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish *Fayzullayev Xayriddin Alimurodovich* *Rasulov Murodjon Qahramon o'g'li* *Hamroyev Oybek Shuhrat o'g'li*	316
35	Diskli ishchi organlarning tuproq bilan o'zaro ta'sir jarayonini va energiya ko'rsatkichlarini tadqiq etish modellashtirish *Ravshanov Nasimbek Qodir o'g'li* *Safarov Azamat Azimovich* *Ollayev Nurbek Berdiyor o'g'li* *Qurbonova Shabnam Istalali qizi* *Irgashev Dilmurod Begmurodovich*	330
36	Hpmc (gidroksipropilmetilsellyuloza) akrilat epoksidini olish va uning fizik kimyoviy tahlillari. *Xusanov Sultonbek Yusup o'g'li* *Muhiddinov Baxodir Faxriddinovich* *Xamroyev Kamoliddin Shaxobiddinovich* *Qiyomov Sharifjon Nizomovich*	341
37	Modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo'yalgan paxta matosining termik xossalarini tga/dta tahlillari asosida o'rganish *Nazarov N.I.* *Beknazarov H.S.* *Fayziyev J.B.* *Mirzoyeva G.A.*	351
38	Mathematical modeling of structural stiffness and dynamic behavior of a pneumatic vise fixture using the coherence function. *Khamidov B.Kh* *Abdiev B.K* *Khamidov A. U.*	357
39	Mobil ilovalar orqali o'qituvchilar uchun raqamli kuzatuv va diagnostika tizimini ishlab chiqish *Abduraximova Sarvinoz*	366
40	Sun'iy intellekt tizimlarining huquqiy javobgarligi va subyektlik konsepsiyasi *Murodova Zarina Rashidovna* *Saidova Sevara Sobirjon qizi*	374

ISSN 3030-3907

41	Elektr maydon kuchlanganligini aniqlashning elektro-optik diagnostika usulini tahlil qilish *To'yqulov Muxriddin Iskandar o'g'li* *Shirinov Sohibjon G'ulom o'g'li*	384
42	Maxsar (*carthamus tinctorius* l.) Biologik faol komponentlarining terapevtik salohiyati va ta'sir mexanizmlari *Mirzaqulov Jasurbek Soibjon o'g'li*	395
43	Bistorta elliptica o'simligining taxonomiyasi, botanik tavsifi va mineral tarkibi *Isakov G'ofurjon To'lqinjon o'g'li*	402
44	Uch o'lchamli nilpotent algebraning lokal va ikki lokal differensiallashi *Boydadayev Islomjon G'anijon o'g'li*	408
45	Ochiq konchilik ishlarida burg'ilash ishlarining samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish *Xatamova Dilshoda Narmuratovna* *Asanov Anvar Toshmurot o'g'li* *Sayfiddinov Asadbek Alisher o'g'li*	413
46	Обоснование размещения поисковых скважин на площади янги когон на основе построения трёхмерной геологической модели *Нуралиев Фаррух Исроил угли* *Иргашева Одина Бону Илхомжон кизи* *Абдуллаев Достонжон Розик угли* *Галиева Камиля Радиковна* *Ли Анастасия Вадиковна* *Ганиев Достонжон Орифжон угли*	424
47	Problems and solutions in the system of compensating material and moral damages caused to employees by occupational accidents *Eshmukhamedov Latif Makhmayusufovich* *Sadikov Akramjon Ro'ziboyevich*	431
48	Suv resurslaridan sanoat maqsadida foydalanishning surxondaryo viloyatidagi hududiy muammolari va yechimlari *Abilov Elyor Ermamatovich* *Usmonov Said Furqat o'g'li*	437
49	Kon mashinalari radiator qurilmasining sovutish tizimida temperatura datchiklarini qo'llash va tizim samaradorligini optimallashtirish *Ismatov Adxamjon Alibek o'g'li* *Eshmurodov Madamin Azamat o'g'li*	445
50	O'zbekistonda shamol energetikasining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari *Eshbekov Muxriddin Mashrab o'g'li*	456

ISSN 3030-3907

NEFT VA GAZ KONDENSATINI IKKILAMCHI QAYTA ISHLASH JARAYONLARINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Quyboqarov O.E.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishda neft va gaz kondensatini ikkilamchi qayta ishlash jarayonlarining ilmiy-nazariy asoslari, zamonaviy sanoatdagi texnologik ahamiyati hamda mahalliy xomashyolar tarkibiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. ishning asosiy ilmiy g‘oyasi shundan iboratki, neft va gaz kondensati faqat atmosfera-vakuum haydash orqali fraksiyalarga ajratilganda xomashyoning ichki kimyoviy potensiali to‘liq ishga solinmaydi. Ikkilamchi jarayonlar esa molekulalarning tuzilishini qayta tashkil etish, og‘ir uglevodorodlarni yengil fraksiyalarga aylantirish, past sifatli komponentlarni yuqori oktanli yoki ekologik toza yoqilg‘i komponentlariga aylantirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Gaz kondensati, C6-C10, tabiiy gaz, C5-C6, solishtirma sirt, massa almashinuvi, regeneratsiya, fizik-kimyoviy jarayon.

Аннотация. В данной работе анализируются научно-теоретические основы процессов вторичной переработки нефти и газового конденсата, их технологическое значение в современной промышленности, а также возможности адаптации к составу местного сырья. Основная научная идея работы заключается в том, что при разделении нефти и газового конденсата на фракции только путем атмосферно-вакуумной перегонки внутренний химический потенциал сырья не используется в полной мере. Вторичные процессы позволяют реорганизовать структуру молекул, преобразовывать тяжелые углеводороды в легкие фракции, превращать низкокачественные компоненты в высокооктановые или экологически чистые топливные компоненты.

Ключевые слова: Газовый конденсат, C6-C10, природный газ, C5-C6, удельная поверхность, массообмен, регенерация, физико-химический процесс.

Abstract. This work analyzes the scientific and theoretical foundations of oil and gas condensate secondary processing processes, their technological significance in modern industry, and the possibilities of adaptation to the composition of local raw materials. The main scientific idea of the work is that when oil and gas condensate are separated into fractions only through atmospheric-vacuum distillation, the internal chemical potential of the raw material is not fully utilized. Secondary processes allow for the reorganization of molecular structures, the conversion of heavy hydrocarbons into light fractions, and the conversion of low-

ISSN 3030-3907

quality components into high-octane or environmentally friendly fuel components.

Keywords: Gas condensate, C6-C10, natural gas, C5-C6, specific surface area, mass transfer, regeneration, physicochemical process.

KIRISH.

Gaz kondensati tarkibida yengil parafinlar, izoparafinlar, naftenlar va nisbatan kam miqdorda aromatik uglevodorodlar mavjud bo‘ladi. Shu sababli uning C5-C6 qismi izomerizatsiya uchun, C6-C10 oralig‘idagi nafta qismi esa katalitik reforming uchun istiqbolli hisoblanadi. Neft fraksiyalari esa odatda gaz kondensatiga nisbatan murakkabroq tarkibga ega bo‘lib, ularning tarkibida oltingugurtli, azotli, smola-asfalten va yuqori molekulyar komponentlar ulushi ko‘proq bo‘lishi mumkin .

Xomashyoni tanlashda namunalar vakilliligi muhim mezon hisoblanadi. Har bir namuna texnologik oqimdan yoki laboratoriyada tayyorlangan aralashmadan olinadi, germetik idishlarda saqlanadi, yorliqlanadi va namuna olish sanasi, manbasi, taxminiy qaynash oralig‘i hamda saqlash sharoiti ko‘rsatiladi. Uchuvchan gaz kondensati fraksiyalarida yengil uglevodorodlar yo‘qotilishini kamaytirish uchun namunalarni past haroratda saqlash va tahlilga qadar idishlarni ortiqcha ochmaslik talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Neft va gaz kondensati fraksiyalarini fizik-kimyoviy xususiyatlari asosida differensial taqsimlash ikkilamchi qayta ishlash samaradorligini oshiradi. Masalan, yuqori parafinli yengil fraksiyalar izomerizatsiyada oktan sonini oshirishga, naftenlarga boy nafta reformingda aromatlashishga, og‘ir distillyat esa gidrokrekingda yengil mahsulotlar chiqimini oshirishga xizmat qiladi [10, 12].

Laboratoriya bosqichida shartli indekslar bilan belgilanadi. Bunda NGK-1 - barqaror gaz kondensati, SRN-1 - to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydash naftasi, KDF-1 - kerosin-dizel fraksiyasi, VGO-1 - vakuum gazoyli yoki og‘ir distillyat, AR-1 esa sun’iy tayyorlangan model aralashma sifatida qaraladi. Shartli indekslardan foydalanish natijalarni tizimlashtirish va turli tajribalar orasida xomashyo bir xilligini nazorat qilishga yordam beradi.

MATERIALLAR VA METODIK YONDASHUV.

Xomashyo namunalarining sifat ko‘rsatkichlari tajriba boshlanishidan oldin aniqlanadi. Bular qatoriga zichlik, qovushqoqlik, fraksion tarkib, oltingugurt miqdori, azotli birikmalar, aromatik uglevodorodlar ulushi, suv va mexanik aralashmalar miqdori kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar reaktor sharoitlarini tanlash, katalizatorni oldindan zaharlanishdan himoya qilish va mahsulot balansini to‘g‘ri tuzish uchun zarurdir.

ISSN 3030-3907

1-Jadval

Tadqiqot uchun tanlangan xomashyo namunalari va ularning texnologik vazifasi

Indeks	Namuna turi	Qaynash oralig‘i, °C	Asosiy yo‘naltiriladigan jarayon	Tadqiqotdagi vazifasi
NGK-1	Barqaror gaz kondensati	C5-180	Izomerizatsiya, reforming	Yengil fraksiyalar salohiyatini baholash
SRN-1	To‘g‘ridan-to‘g‘ri haydash naftasi	60-180	Katalitik reforming	Oktan soni va aromatlashish tendensiyasini o‘rganish
KDF-1	Kerosin-dizel fraksiyasi	180-360	Gidrotozalash	Oltingugurt va aromatiklar kamayishini baholash
VGO-1	Vakuum gazoyli / og‘ir distillyat	360-520	Gidrokreking yoki FCC	Yengil mahsulotlar chiqimini aniqlash
AR-1	Model aralashma	Tanlangan interval	Jarayon mexanizmini tekshirish	Kinetik tajribalar uchun nazorat xomashyosi

Jadvaldagi qaynash oralig‘lari tadqiqot loyihasi uchun qabul qilingan metodik diapazonlardir; real sanoat namunasida ular laboratoriya distillyatsiyasi natijasiga muvofiq aniqlashtiriladi.

Xomashyoni namuna olish, saqlash va dastlabki tayyorlash metodikasi

Namuna olish jarayoni dissertatsiya natijalarining ishonchliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli namuna olishdan oldin idishlar tozalangan, quritilgan va kimyoviy inert holatga keltirilgan bo‘lishi kerak. Yengil fraksiyalar uchun germetik metall yoki shisha idishlar, og‘ir fraksiyalar uchun esa zich yopiladigan issiqlikka chidamli idishlar qo‘llanadi. Idishlarda namunaning to‘liq nomi, manbasi, olish vaqti, harorati, bosimi hamda mas’ul ijrochi ko‘rsatiladi.

Gaz kondensatini saqlashda eng muhim omil - yengil C3-C5 komponentlarning bug‘lanib ketishini kamaytirishdir. Shu sababli barqaror gaz

ISSN 3030-3907

kondensati fraksiyalari imkon qadar past haroratda, quyosh nuri tushmaydigan, zich yopilgan idishlarda saqlanadi. Agar namuna tarkibida erigan gazlar ko‘p bo‘lsa, tahlildan oldin barqarorlashtirish bosqichi bajariladi. Barqarorlashtirish yengil gazlar ajralishini nazorat ostida olib borish va keyingi fraksion tahlilni takrorlanadigan qilish uchun zarur.


Neft fraksiyalarida suv va mexanik aralashmalar mavjud bo‘lsa, ular reaktor tajribasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Suv katalizatorning kislota markazlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, faollikni vaqtincha pasaytiradi, mexanik aralashmalar esa nasos, kapillyar va reaktor qatlamida tiqilish yuzaga keltiradi. Shu sababli dastlabki tayyorlash bosqichida tindirish, filtratsiya, sentrifugalash yoki yumshoq quritish usullaridan foydalaniladi.

Dastlabki tayyorlashda xomashyoning kimyoviy tarkibini o‘zgartirib yuboradigan kuchli oksidlovchi yoki ekstraksion reagentlardan foydalanilmaydi. Chunki xomashyoning tabiiy texnologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Faqat suv, qattiq zarrachalar va bevosita tajribaga xalaqit beradigan begona mexanik aralashmalar ajratib olinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Fraksion ajratishdan oldin namuna xona haroratiga keltiriladi, yaxshilab gomogenlashtiriladi va zarur hajmda analitik hamda reaktor tajribasi uchun alohida ulushlarga bo‘linadi. Ulushlarga ajratish bir xil tarkibli bo‘lishi uchun namuna oldindan aralashtiriladi. Og‘ir distillyatlar qovushqoqligi yuqori bo‘lsa, aralashtirish 40-60 °C oralig‘ida yumshoq isitish bilan amalga oshiriladi.

Namuna tayyorlash jarayonida xavfsizlik talablari alohida e’tiborga olinadi. Yengil uglevodorodlar bilan ishlashda ochiq olov, statik elektr, kuchli isitish manbalari va yopiq havosiz joylarda bug‘ to‘planishi xavfi oldini olinadi. Reaktor tajribalarida vodorod ishlatilganda bosim ostidagi gazlar bilan ishlash qoidalari, gaz sizib chiqishini tekshirish va ventilyatsiya shartlari majburiy hisoblanadi.



1.Rasm Xomashyoni tayyorlash va fraksiyalarga ajratish ketma-ketligi

ISSN 3030-3907

Rasmda namuna olishdan boshlab yengil benzin, nafta, kerosin-dizel va og‘ir distillyat oqimlarini alohida jarayonlarga yo‘naltirishgacha bo‘lgan ketma-ketlik ko‘rsatilgan.

2-Jadval

Xomashyoni dastlabki tayyorlash bo‘yicha metodik amallar

Bosqich	Amal	Nazorat ko‘rsatkichi	Kutiladigan natija
1	Namuna idishini tayyorlash	Idish tozaligi, germetiklik	Begona ifloslanish kamayadi
2	Namuna olish va yorliqlash	Sana, manba, harorat, bosim	Kuzatuvchanlik ta’minlanadi
3	Tindirish/filtrlash	Suv va mexanik aralashmalar	Reaktor tiqilishi oldi olinadi
4	Gomogenlashtirish	Bir jinslilik	Takroriy tahlil farqi kamayadi
5	Analitik ulushlarga bo‘lish	Ulush hajmi va identifikatori	GC, XRF, distillyatsiya uchun alohida namunalar olinadi
6	Saqlash	Harorat va yorug‘likdan himoya	Yengil komponentlar yo‘qotilishi cheklanadi

Ushbu amallar tajriba oldidan bajariladigan minimal metodik tartib bo‘lib, konkret laboratoriya sharoitida ichki reglament bilan to‘ldirilishi mumkin.

Xomashyoning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash usullari

Xomashyoning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash ikkilamchi qayta ishlash jarayonini tanlashda birinchi bosqich hisoblanadi. Zichlik va API ko‘rsatkichi xomashyoning yengilligi yoki og‘irligini baholashga yordam beradi, qovushqoqlik nasoslash va issiqlik almashinish sharoitlarini belgilaydi, fraksion tarkib esa qaysi qism izomerizatsiya, reforming, gidrotozalash yoki gidrokrekingga yo‘naltirilishini ko‘rsatadi [53, 55].

Zichlikni aniqlashda raqamli densimetr yoki piknometrik usuldan foydalaniladi. Zamonaviy laboratoriya sharoitida ASTM D4052 turidagi raqamli densimetr usuli qulay bo‘lib, u neft distillyatlari va suyuq neft mahsulotlarining zichligi, nisbiy zichligi va API gravitatsiyasini aniqlashni qamrab oladi [53]. Natijalar 20 °C yoki 15 °C standart haroratga keltirib qayta hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Fraksion tarkib atmosfera distillyatsiyasi yoki gaz-xromatografik simulyatsion distillyatsiya yordamida aniqlanadi. ASTM D86 usuli neft mahsulotlari va suyuq yoqilg‘ilarning atmosfera bosimidagi qaynash xarakteristikasini laboratoriya batch-distillyatsiya qurilmasida aniqlashga mo‘ljallangan [52]. Og‘irroq va murakkab fraksiyalarda esa ASTM D2887 asosidagi simulyatsion distillyatsiya usuli qaynash oralig‘i taqsimotini gaz xromatografiyasi yordamida baholash imkonini beradi [55].

Oltingugurt miqdorini aniqlash ikkilamchi qayta ishlashda katalizator tanlash va gidrotozalash chuqurligini belgilash uchun zarur. Total sulfur miqdori energiya-dispersiv rentgen-fluoresans spektrometriyasi orqali qisqa vaqtda aniqlanishi mumkin. ASTM D4294 usuli neft va neft mahsulotlaridagi umumiy oltingugurtni minimal namuna tayyorlash bilan tez o‘lchash imkonini berishi sababli texnologik nazoratda keng qo‘llanadi [54].

Uglevodorod guruh tarkibi parafinlar, izoparafinlar, olefinlar, naftenlar va aromatiklar ulushini baholash orqali aniqlanadi. Guruh tarkibi ikkilamchi qayta ishlash yo‘nalishi uchun muhim: parafinlar izomerizatsiya va krekingda, naftenlar reformingda, aromatiklar esa yoqilg‘i sifatiga va ekologik ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi. Shu sababli PNA yoki PIONA tahlil xomashyoning texnologik xaritasini tuzishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi [56].

Xomashyo pasporti tuzilgandan keyin har bir namuna bo‘yicha reaktor tajribasi uchun mos diapazon belgilanadi. Masalan, yengil nafta uchun past bosimli izomerizatsiya yoki reforming, kerosin-dizel fraksiyasi uchun gidrotozalash, og‘ir distillyat uchun gidrokreking yoki katalitik kreking rejimi tanlanadi. Bunda laboratoriya maqsadi birinchi navbatda mexanistik va texnologik bog‘liqliklarni aniqlashdan iborat bo‘ladi.

3-Jadval

Xomashyoning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini aniqlash usullari

Ko‘rsatkich	**Tavsiya etiladigan usul**	**Standart yoki manba**	**Tadqiqotdagi ahamiyati**
Zichlik va API	Raqamli densimetr	ASTM D4052	Xomashyo yengilligi va massa-hajm hisoblari
Atmosfera qaynash xarakteristikasi	Laboratoriya distillyatsiyasi	ASTM D86	Fraksiyalar chegarasini belgilash

ISSN 3030-3907

Qaynash oralig‘i taqsimoti	Simulyatsion distillyatsiya GC	ASTM D2887	Mahsulot fraksion tarkibini nazorat qilish
Umumiy oltingugurt	EDXRF yoki UV-fluoresans	ASTM D4294 / D5453	Gidrotozalash chuqurligini baholash
Qovushqoqlik	Kapillyar viskozimetriya	ASTM D445	Nasoslash va issiqlik almashinish sharoiti
Guruh tarkibi	PNA/PIONA, GC-FID	ASTM D1319 yoki GC metodikasi	Jarayon yo‘nalishini tanlash
Suv miqdori	Karl Fischer yoki distillyatsion usul	ASTM D6304 / D95	Katalizator himoyasi va massa balans

Jadvalda xalqaro amaliyotda keng qo‘llanadigan standartlar keltirilgan; yakuniy dissertatsiya matnida ishlatilgan laboratoriya usuli pasporti va asbob markasi alohida ko‘rsatiladi.

Fraksion tahlil va xomashyoni texnologik yo‘nalishlarga ajratish

Fraksion tahlil neft va gaz kondensatini ikkilamchi qayta ishlashda eng muhim metodik bosqichlardan biridir. Uning natijasida xomashyo tor qaynash oralig‘idagi qismlarga ajratiladi va har bir fraksiya uchun mos qayta ishlash yo‘nalishi aniqlanadi. Bunda faqat qaynash harorati emas, balki fraksiyaning uglevodorod tarkibi, oltingugurt miqdori, aromatiklik darajasi va katalitik jarayonlarga moyilligi ham hisobga olinadi [4, 52].

Atmosfera distillyatsiyasi yordamida C5-85 °C, 85-180 °C, 180-240 °C, 240-360 °C va 360 °C dan yuqori fraksiyalar ajratiladi. C5-85 °C oralig‘i izomerizatsiya uchun, 85-180 °C oralig‘i reforming uchun, 180-360 °C oralig‘i gidrotozalash uchun, og‘irroq qism esa gidrokreking yoki katalitik kreking uchun mos deb qaraladi. Bunday tasnif shartli bo‘lib, real xomashyo tarkibi va mahsulot strategiyasiga qarab o‘zgartiriladi.

Simulyatsion distillyatsiya usuli fraksion tarkibni tezroq va kichik namuna miqdorida aniqlash imkonini beradi. Bu usul ayniqsa reaktor tajribalaridan keyin mahsulot tarkibidagi yengil, o‘rta va og‘ir qism ulushini taqqoslashda muhimdir. Agar gidrokreking natijasida 360 °C dan yuqori fraksiya kamayib, 180-360 °C oralig‘i ortsa, bu og‘ir xomashyoning distillyatlarga aylanish darajasini ko‘rsatadi [55].

ISSN 3030-3907

Fraksion tahlil natijalari moddiy balans tuzish uchun ham ishlatiladi. Xomashyo va mahsulot qaynash oralig‘i bo‘yicha bir xil metodika bilan tahlil qilinsa, konversiya va mahsulot chiqimini taqqoslash osonlashadi. Masalan, gidrokrekingda 360 °C dan yuqori qismning kamayishi konversiya ko‘rsatkichi sifatida, reformingda esa C5+ suyuq mahsulot va vodorod chiqimi jarayon samaradorligi sifatida olinishi mumkin.

Fraksiyalarni texnologik yo‘nalishlarga ajratishda yana bir muhim masala - xomashyo tarkibidagi zararli komponentlarni oldindan kamaytirishdir. Reforming katalizatorlari oltingugurt, azot, suv va xlorli birikmalarga sezgir bo‘lgani sababli nafta fraksiyasi avval gidrotozalashdan o‘tkazilishi mumkin. Gidrokreking katalizatorlari ham heteroatomlar ta’sirida tezroq deaktivatsiyalanadi; shu sababli og‘ir distillyatning oldindan gidrotozalanishi katalizator ishlash muddatini uzaytiradi [43, 44].

Tadqiqotda fraksion tahlil natijalari mahsulot strategiyasini tanlash bilan bog‘lanadi. Agar xomashyo yengil parafinlarga boy bo‘lsa, asosiy maqsad yuqori oktanli benzin komponentlari olish bo‘lishi mumkin; agar og‘ir distillyatlar ulushi yuqori bo‘lsa, gidrokreking orqali dizel va jet yoqilg‘isi fraksiyalarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bois fraksion tahlil faqat laboratoriya analizi emas, balki texnologik qaror qabul qilish vositasi sifatida qaraladi.

4-Jadval

Fraksiyalarni ikkilamchi qayta ishlash jarayonlariga yo‘naltirish mezonlari

Fraksiya	Taxminiy qaynash oralig‘i, °C	Asosiy tarkibiy xususiyat	Tavsiya etiladigan jarayon	Kutiladigan mahsulot
Yengil benzin	C5-85	n-parafinlar va izoparafinlar	Izomerizatsiya	Yuqori oktanli izomerizat
Nafta	85-180	Parafin-naften-aromatik aralashma	Gidrotozalash + reforming	Reformat va vodorod
Kerosin-dizel	180-360	Oltingugurtli va aromatik komponentlar	Gidrotozalash	Kam oltingugurtli distillyat
Og‘ir distillyat	360-520	Yuqori molekulyar uglevodorodlar	Gidrokreking / FCC	Benzin, dizel va gaz fraksiyalari
Qoldiq	>520	Smola-asfalten komponentlar	Kokslash yoki visbreking	Koks, gazoyl, gaz

ISSN 3030-3907

Fraksiyalar chegaralari laboratoriya maqsadida soddalashtirilgan; sanoat loyihasida zavod konfiguratsiyasi va mahsulot standartlariga qarab aniqlashtiriladi.

XULOSA.

1. Neft va gaz kondensatini ikkilamchi qayta ishlash jarayonlarini o‘rganish uchun xomashyo sifatida barqaror gaz kondensati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydash naftasi, kerosin-dizel fraksiyasi va og‘ir distillyat qismini tanlash metodik jihatdan asoslandi.

2. Xomashyo namunalari bo‘yicha namuna olish, saqlash, dastlabki tayyorlash, fraksion ajratish va fizik-kimyoviy pasportlash ketma-ketligi ishlab chiqildi.

3. Zichlik, qaynash oralig‘i, oltingugurt miqdori, guruh uglevodorod tarkibi, qovushqoqlik va suv miqdorini aniqlash usullari jarayon tanlash va katalizator tanlash mezonlari bilan bog‘landi.

4. Izomerizatsiya, reforming, gidrotozalash, gidrokreking va katalitik kreking jarayonlari uchun laboratoriya reaktor tajribalarining harorat, bosim, vodorod/xomashyo nisbati, WHSV va kontakt vaqti bo‘yicha metodik diapazonlari belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Smith R. Chemical Process Design and Integration. 2nd ed. Wiley, 2016.
2. Towler G., Sinnott R. Chemical Engineering Design: Principles, Practice and Economics of Plant and Process Design. Elsevier, 2021.
3. Speight J.G. The Chemistry and Technology of Petroleum. 5th ed. CRC Press, 2014.
4. Gary J.H., Handwerk G.E., Kaiser M.J. Petroleum Refining: Technology and Economics. 5th ed. CRC Press, 2007.
5. Fahim M.A., Al-Sahhaf T.A., Elkilani A. Fundamentals of Petroleum Refining. Elsevier, 2010.
6. Hsu C.S., Robinson P.R. Practical Advances in Petroleum Processing. Springer, 2006.
7. Meyers R.A. Handbook of Petroleum Refining Processes. McGraw-Hill, 2004.
8. Riazi M.R. Characterization and Properties of Petroleum Fractions. ASTM International, 2005.
9. Catalytic Reforming in Petroleum Processing. Springer Reference, 2015.
10. U.S. Energy Information Administration. Catalytic reforming boosts octane for gasoline blending, 2013.
11. Leprince P. Petroleum Refining. Conversion Processes. Editions Technip, 2001.

ISSN 3030-3907

12. Ancheyta J. Modeling and Simulation of Catalytic Reactors for Petroleum Refining. Wiley, 2011.
13. ICCT. An Introduction to Petroleum Refining and the Production of Ultra Low Sulfur Gasoline and Diesel Fuel. 2011.
14. Parkash S. Refining Processes Handbook. Gulf Professional Publishing, 2003.
15. ScienceDirect Topics. Gas Condensate: overview and properties.
16. Speight J.G. The Refinery of the Future. Gulf Professional Publishing, 2011.
17. Hydrotreating in Petroleum Processing. Springer Reference, 2015.
18. Fluid Catalytic Cracking in Petroleum Refining. Springer Reference, 2015.
19. Hydrocracking in Petroleum Processing. Springer Reference, 2015.

ISSN 3030-3907

METANNI KATALITIK OKSIXLORLASH ASOSIDA ETILEN OLISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Musurmonov X.O.
Qarshi davlat texnika universiteti
Quyboqarov O.E.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu dissertatsiya loyihasida metanni katalitik oksixlorlash asosida etilen olish texnologiyasini takomillashtirishning ilmiy-texnologik asoslari bayon etilgan. Ishda metanni HCl va O2 ishtirokida selektiv xlorometanlarga, avvalo CH3Cl ga aylantirish, keyin esa xlorometanni kislota markazli SAPO-34 tipidagi katalizatorda yengil olefinlarga, xususan etilenga konversiyalash konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: CH4/HCl/O2 nisbatini tanlash, LaCl3-LaOCl turidagi oksixlorlash katalizatorining faol xlor-kislor markazlari, H-SAPO-34 yoki SAPO-34/ZSM-5.

Аннотация. В данном диссертационном проекте изложены научно-технологические основы совершенствования технологии получения этилена на основе каталитического оксихлорирования метана. В работе разработана концепция селективного преобразования метана в хлорметаны в присутствии HCl и O2, сначала в CH3Cl, а затем конверсии хлорметана в легкие олефины, в частности, в этилен, на кислотно-центрированном катализаторе типа SAPO-34.

Ключевые слова: выбор соотношения CH4/HCl/O2, активные хлорокислотные центры катализатора оксихлорирования типа LaCl3-LaOCl, H-SAPO-34 или SAPO-34/ZSM-5.

Abstract. This dissertation project outlines the scientific and technological foundations for improving the technology of ethylene production based on the catalytic oxychlorination of methane. The work developed a concept for the selective conversion of methane into chloromethane, initially CH3Cl, in the presence of HCl and O2, followed by the conversion of chloromethane into light olefins, specifically ethylene, on an acid-centered SAPO-34 type catalyst.

Keywords: selection of the CH4/HCl/O2 ratio, active chlorine-oxygen centers of the LaCl3-LaOCl type oxychlorination catalyst, H-SAPO-34 or SAPO-34/ZSM-5.

KIRISH.

Ishda metanni katalitik oksixlorlash orqali etilen olish texnologiyasini takomillashtirish nuqtayi nazaridan yoritiladi. Jarayonning markazida metanning inert C-H bog‘ini selektiv faollashtirish, xlorli oraliq birikmalarni nazorat qilish hamda keyingi C-C bog‘lanish bosqichida etilen ulushini oshirish vazifasi turadi. Shuning uchun har bir texnologik qaror katalizator tuzilishi, reaktor

ISSN 3030-3907

gidrodinamikasi va mahsulotlarni ajratish tizimi bilan bog‘langan holda ko‘rib chiqiladi.

Tahlilda asosiy e’tibor CH4/HCl/O2 nisbatini tanlash, LaCl3-LaOCl turidagi oksixlorlash katalizatorining faol xlor-kislor markazlari, H-SAPO-34 yoki SAPO-34/ZSM-5 turidagi ikkinchi bosqich katalizatorining kislotalik xossalari hamda HCl qayta aylanish konturiga qaratildi. Bu yondashuv xlor sarfini kamaytirish, korroziya xavfini cheklash va xlororganik yon mahsulotlar to‘planishini oldini olish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi bo‘yicha ilmiy muammo shundan iboratki, metan oksixlorlanganda CH3Cl hosil bo‘lishi bilan birga CH2Cl2, CHCl3, CO va CO2 kabi mahsulotlar ham paydo bo‘lishi mumkin. Etilen olishda esa xlorometan oraliq mahsulotining olefinlarga aylanishi gidrokarbon-pul mexanizmi, aromatik metillangan turlar hosil bo‘lishi va mikrog‘ovaklarning koks bilan to‘lishi bilan cheklanadi. Shu sababli selektivlik, barqarorlik va regeneratsiya birgalikda baholanadi.

Metan tabiiy gazning eng ko‘p uchraydigan komponenti bo‘lib, u yuqori vodorod/uglerod nisbatiga ega, ammo kimyoviy inertligi sababli neft-gaz kimyosida uni bevosita yuqori qo‘shilgan qiymatli C_2 mahsulotlarga aylantirish murakkab masala hisoblanadi. Etilen esa polietilen, etilen oksid, etilenglikol, vinilatsetat, etilbenzol va boshqa ko‘plab monomerlar ishlab chiqarish uchun asosiy platforma mahsulotlardan biridir. Shu sababli metanni etilenga aylantirishga qaratilgan jarayonlar gaz-kimyo majmualarining xomashyo bazasini kengaytirish, tabiiy gazni chuqur qayta ishlash va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish nuqtai nazaridan dolzarbdir .

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metandan etilen olishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlovchi juftlanish, piroliz, plazma-kimyoviy konversiya, sintez-gaz orqali bilvosita yo‘l va xlorometan oraliq mahsulotiga asoslangan bosqichli yo‘nalishlari mavjud. Ularning har biri energiya sarfi, selektivlik, apparat murakkabligi, katalizator barqarorligi va ekologik xavfsizlik jihatidan o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Mazkur bobda aynan metanni oksixlorlash orqali xlorometan olish va keyin xlorometanni SAPO-34 tipidagi katalizatorda C_2–C_4 olefinlarga aylantirish yo‘nalishi ilmiy-texnologik nuqtai nazardan asoslanadi [2–5; 16].

Metan resurslari va etilen ishlab chiqarishning neft-gaz kimyosidagi o‘rni

Tabiiy gaz tarkibida metan ulushi odatda eng yuqori bo‘lib, u gazni qayta ishlash sanoati uchun eng yirik uglevodorod manbai hisoblanadi. Ammo metan molekulasi nisbatan simmetrik, qutblanishi past va C–H bog‘i mustahkam

ISSN 3030-3907

bo‘lgani sababli uning selektiv kimyoviy konversiyasi etan, propan yoki nafta fraksiyalariga nisbatan ancha murakkab kechadi. Sanoatda etilen asosan bug‘li kreking orqali ishlab chiqariladi; bu jarayon yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, yuqori harorat, katta issiqlik sarfi va CO_2 emissiyasi bilan tavsiflanadi [17; 41; 49].

Etilenning strategik ahamiyati uning “asosiy neft-kimyo qurilish bloki” sifatidagi rolida namoyon bo‘ladi. Polietilen ishlab chiqarish etilen iste’molining eng katta yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, undan tashqari etilen oksid, etilenglikol, stirol, alfa-olefinlar va boshqa mahsulotlar uchun ham etilen zarur. Demak, etilen ishlab chiqarish xomashyo bazasini diversifikatsiya qilish gaz-kimyo komplekslari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim hisoblanadi [42; 43; 49].

Metanni etilenga aylantirish g‘oyasi ayniqsa tabiiy gazga boy hududlar uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Nafta yoki etan importiga tayanmasdan, mahalliy tabiiy gazdan olefinlar olish kimyo sanoatining yuqori qo‘shilgan qiymatli zanjirlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda metan resurslari “yoqilg‘i sifatidagi qiymat”dan “kimyoviy xomashyo sifatidagi qiymat” darajasiga o‘tkaziladi. Ushbu yondashuv gazni shunchaki yoqish emas, balki molekulyar darajada maqsadli qayta qurish konsepsiyasiga asoslanadi.

Metanni etilen manbai sifatida ishlatishda eng asosiy muammo bir bosqichli selektiv konversiyaning qiyinligidir. Metan faollashgandan keyin hosil bo‘lgan metil, metoksi, xlorometil yoki boshqa oraliq turlar maqsadli C–C bog‘i hosil qilishdan oldin chuqur oksidlanish, kraking yoki ortiqcha funksionallashuvga uchrashi mumkin. Shuning uchun zamonaviy tadqiqotlar metanni “to‘g‘ridan-to‘g‘ri etilenga” emas, balki “boshqariladigan oraliq molekula orqali etilenga” aylantirishga e’tibor qaratmoqda [2; 16; 17].

Xlorometan oraliq mahsulotiga asoslangan yo‘l shu jihatdan qiziqarliki, metanning dastlabki faollashuvi CH_3Cl kabi nisbatan reaktivroq C_1 birikmaga o‘tkaziladi. Keyin esa CH_3Cl kislotali mikrog‘ovak katalizatorda C–C bog‘i hosil qiluvchi mexanizm orqali yengil olefinlarga aylantiriladi. Bunday bosqichli yondashuv metanning bevosita inertligini kamaytiradi, lekin jarayonga HCl, O_2 va organoxlor birikmalar bilan ishlash xavfsizligi hamda xlor balansi muammolarini olib kiradi [2–5; 21].


MATERIALLAR VA METODIK YONDASHUV

Jarayon ikki xil katalitik bosqichni bitta texnologik zanjirda baholashni talab qiladi: birinchi bosqichda metan HCl va O_2 ishtirokida xlorometanga aylantirildi; ikkinchi bosqichda xlorometan kislotali mikrog‘ovak katalizatorlarda etilen hamda boshqa yengil olefinlarga konversiyalandi [2–5; 46]. Shu sababli ikkinchi bobda xomashyo oqimlari, katalizator tarkibi, reaktor rejimi, mahsulot

ISSN 3030-3907

tahlili va material balans bir-biridan ajratilmagan holda, yagona metodologik tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Tajriba metodikasini ishlab chiqishda selektivlikni boshqarish, HCl aylanishini baholash, organoxlor qo‘shimcha mahsulotlarni nazorat qilish, katalizator deaktivatsiyasi va regeneratsiya imkoniyatini aniqlash asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Bunday yondashuv $LaCl_3$/LaOCl tizimidagi OCl faol markazlari, SAPO-34 dagi hydrocarbon-pool mexanizmi va koks hosil bo‘lishining mikrog‘ovak tuzilmaga ta’sirini tajribaviy ravishda bog‘lash imkonini beradi [2; 3; 14; 46].



1.Rasm Tadqiqot metodologiyasining sxemasi

Tadqiqot obyekti, predmeti va metodologik yondashuv

Tadqiqot obyekti sifatida metanni oksixlorlash orqali xlorometan hosil qilish va keyinchalik xlorometanni mikrog‘ovak kislotali katalizatorlarda etilen hamda yengil olefinlarga aylantirish jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa $LaCl_3$/LaOCl asosidagi oksixlorlash katalizatorining faol-selektiv xossalari, SAPO-34 va HZSM-5 tipidagi ikkinchi bosqich katalizatorlarining kislotaligi, g‘ovak tuzilishi, deaktivatsiyasi hamda texnologik rejim parametrlarining mahsulot taqsimotiga ta’siridan iboratdir.

Metodologik yondashuv “reaksiya–katalizator–reaktor–analiz–hisoblash” zanjiriga asoslanadi. Bunda reaksiya sharoiti alohida parametr sifatida emas, balki katalizator sirtidagi faol markazlarning holati, reaktor qatlamidagi issiqlik-massa almashinuvi va chiqish oqimining tarkibi bilan bog‘langan holda baholanadi [17–19]. Shuning uchun har bir tajribada gazlar sarfi, katalizator massasi, fraksiya o‘lchami, harorat, kontakt vaqti, TOS, mahsulot tarkibi va balans yopilishi birgalikda qayd etiladi.

Metanni etilenga aylantirishning mazkur ikki bosqichli yo‘li oddiy sintez sxemasi emas, balki selektiv C–H faollashuv va C–C bog‘ hosil qilish reaksiyalarini ketma-ket boshqarishga qaratilgan ilmiy-texnologik modeldir.

ISSN 3030-3907

Birinchi bosqichda metan molekulasining inertligi xlorometan hosil qilish orqali yengillashtiriladi; ikkinchi bosqichda esa xlorometan hydrocarbon-pool markazlari ishtirokida olefinlar hosil bo‘lishiga jalb qilinadi [3; 15].

Reagentlar, gazlar va xomashyo oqimlariga qo‘yiladigan talablar

Metanni oksixlorlash tajribalarida asosiy reagentlar sifatida metan, vodorod xlorid, kislorod va inert gaz ishlatiladi. Metan xomashyosi tarkibida etan, propan, CO_2, H_2S va suv bug‘lari miqdori nazorat qilinishi lozim, chunki bunday qo‘shimchalar metan konversiyasi, xlorometan selektivligi va katalizator sirtining barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi [20; 41]. Ayniqsa H_2S yoki namlik $LaCl_3$/LaOCl fazalarining barqarorligiga, HCl esa apparat korroziyasiga sezilarli ta’sir qiladi.

HCl birinchi bosqichda xlor manbai sifatida ishtirok etadi. Uning ortiqcha miqdori CH_4 dan CH_3Cl hosil bo‘lishini kuchaytirishi mumkin, ammo haddan tashqari ko‘p faol xlorlovchi turlar CH_2Cl_2, $CHCl_3$ va boshqa chuqur xlorlangan mahsulotlar ulushini oshiradi [2; 46]. Shu sababli HCl sarfi faqat reaktiv miqdor bo‘yicha emas, balki CH_3Cl selektivligi va ikkinchi bosqichga keladigan oqim sifatiga ko‘ra optimallashtiriladi.

Kislorod HCl ni qayta oksidlab sirt OCl turlarini hosil qilish uchun zarur, biroq uning ortiqcha miqdori CO va CO_2 hosil bo‘lishini kuchaytiradi. Shuning uchun O_2 ulushi xavfsizlik chegaralari, metan bilan portlovchi aralashma hosil qilish xavfi va reaksion selektivlikni hisobga olgan holda tanlanadi [2; 28]. Tajriba qurilmasida O_2 alohida mass-sarf rostlagich orqali berilishi, reaktor kirishida esa inert gaz bilan suyultirilishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi bosqich tajribalarida model xomashyo sifatida toza CH_3Cl yoki birinchi reaktordan olingan real CH_3Cl-HCl-N_2 aralashmasidan foydalanish mumkin. Model aralashma katalizatorning o‘ziga xos faolligini baholashga, real aralashma esa bosqichlararo moslikni aniqlashga xizmat qiladi. Bu ikki yondashuvning birga qo‘llanishi OAK talablari bo‘yicha ilmiy natijalarning haqqoniyligini kuchaytiradi [1; 3; 4].

Reagentlar sifatini pasportlashtirish tajriba natijalarini takrorlash uchun zarur. Har bir gaz balloni bo‘yicha ishlab chiqaruvchi sertifikati, tozalik darajasi, namlik miqdori, aralashmalar chegarasi, ballondan foydalanish sanasi va sarf kalibrovkasi laboratoriya jurnalida qayd etiladi. Agar tabiiy gazdan foydalanilsa, tajribadan oldin uning komponent tarkibi GC-TCD orqali aniqlanadi va keyingi hisoblarda aynan shu tarkib asos qilib olinadi.

1-Jadval

Reagentlar va xomashyo oqimlariga qo‘yiladigan asosiy talablar

Reagent/oqim	Asosiy talab	Nazorat usuli	Tadqiqotdagi ahamiyati

ISSN 3030-3907

CH_4 yoki tabiiy gaz	CH_4 ulushi, C_2^+, CO_2, H_2S va namlik nazorati	GC-TCD, quritish, sertifikat	Konversiya va uglerod balansini to‘g‘ri hisoblash
HCl	Quruq, barqaror sarf, ortiqcha namliksiz	Mass-sarf rostlagich, titrlash	CH_3Cl selektivligi va xlor balansiga ta’sir qiladi
O_2	Suyultirilgan, portlash xavfsizligi chegarasida	MFC, xavfsizlik nazorati	OCl markazlari va COx hosil bo‘lishini boshqaradi
N_2/He	Inert va quruq	Gaz sertifikati, namlik nazorati	Suyultirish, purj va ichki standart vazifasi
CH_3Cl model oqimi	Aniq konsentratsiya, quruq holat	GC kalibrovka, balon sertifikati	CTO bosqichi faolligini baholash

Jadvaldagi qiymatlar laboratoriya sharoitida tajriba rejasini tuzish, analitik natijalarni standartlashtirish va bosqichlararo material balansini bir xil mezonda baholash uchun tavsiya etilgan ishchi diapazonlarni ko‘rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

$LaCl_3$/LaOCl asosidagi oksixlorlash katalizatorini tayyorlash metodikasi

Birinchi bosqich katalizatori sifatida $LaCl_3$/LaOCl tizimi tanlanadi, chunki adabiyotlarda u metanni HCl va O_2 ishtirokida xlorometanga selektiv oksixlorlash uchun istiqbolli katalitik tizim sifatida ko‘rsatilgan [2; 46]. Ushbu tizimning muhim jihati shundaki, faol markazlar faqat $LaCl_3$ yoki LaOCl fazasining o‘ziga emas, balki reaksiya sharoitida shakllanadigan xlorid–oksixlorid muvozanatiga bog‘liq bo‘ladi.

LaOCl prekursorini tayyorlashda lantan nitrat yoki lantan xlorid eritmasi cho‘ktirish agenti bilan ishlanadi. Cho‘kma pH qiymati 8,0–9,5 oralig‘ida ushlab turilib, 50–70 °C haroratda aralashtiriladi, so‘ng filtrlanadi, xlorid va nitrat qoldiqlaridan yuviladi hamda 100–120 °C da quritiladi. Quritilgan namuna 450–550 °C da kalsinatsiya qilinib LaOCl fazasiga yaqin prekursor olinadi [47].

Katalizatorni $LaCl_3$/LaOCl holatiga keltirish uchun kalsinatsiyalangan namuna HCl/N_2 yoki HCl/O_2/N_2 oqimida yumshoq xlorlanadi. Xlorlash harorati 250–400 °C oralig‘ida tanlanadi, chunki juda past haroratda sirt xloridlanishi yetarli bo‘lmasligi, juda yuqori haroratda esa solishtirma sirt yuzasi keskin

ISSN 3030-3907

kamayishi mumkin [47; 48]. Bu bosqichda namunadagi massa o‘zgarishi va chiqish oqimida HCl miqdori kuzatiladi.

Tashuvchili katalizator tayyorlash zarur bo‘lsa, γ-Al_2O_3, SiO_2 yoki termik barqaror inert materialga nam impregnirlanish usuli qo‘llanadi. Eritmadagi La prekursor miqdori yakuniy katalizatorda 5–20 massa % La_2O_3 ekvivalenti hosil qiladigan qilib hisoblanadi. Impregnirlanishdan keyin namuna 12 soat muvozanatlantiriladi, 110 °C da quritiladi va bosqichli kalsinatsiyalanadi. Bunday yondashuv faol fazaning bir tekis taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladi [24; 25].

Katalizator tayyorlashda asosiy nazorat parametrlari quyidagilardan iborat: prekursor eritmasi konsentratsiyasi, pH, cho‘ktirish tezligi, quritish harorati, kalsinatsiya davomiyligi, xlorlash tartibi, zarracha fraksiyasi va tayyor namunaning mexanik mustahkamligi. Har bir partiya “OK-1”, “OK-2”, “OK-3” kabi shartli nom bilan belgilab, laboratoriya pasportiga kiritiladi. Bu keyingi katalitik natijalarni aniq namuna tarkibi bilan bog‘lash imkonini beradi.

SAPO-34, HZSM-5 va modifikatsiyalangan mikrog‘ovak katalizatorlarni tayyorlash

Kislota bilan faollashtirish bentonit va kaolin asosidagi tayanchning eng muhim modifikatsiya bosqichidir. HCl yoki HNO_3 eritmasi ta’sirida almashinuvchi kationlar, karbonatlar va qisman oktaedrik Al komponentlari chiqariladi. Natijada Si/Al nisbati oshishi, mezog‘ovaklar hajmi ortishi va sirtning faol guruhlari qayta taqsimlanishi mumkin. Biroq haddan tashqari kuchli kislota ishlovi mineral skeletning buzilishi, mexanik mustahkamlik kamayishi va sirtning kollapsiga olib keladi [11; 13].

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Bentonit va kaolindan olingan SiO_2-Al_2O_3 tayanchlarning tarkibiy tahlili

Mahalliy bentonit va kaolin asosidagi tayanchlarning katalitik jarayondagi roli ularning kimyoviy tarkibi va mineralogik tuzilishi bilan belgilanadi. Bentonit tarkibidagi montmorillonit qatlamlari faol komponentlarni immobilizatsiya qilish

ISSN 3030-3907

uchun qulay sirt beradi, kaolin esa Al_2O_3 miqdorini oshirish orqali kislotalik va mexanik mustahkamlikni boshqarishga yordam beradi. Kislota bilan faollashtirilgandan so‘ng CaO, MgO va karbonat komponentlarining kamayishi, SiO_2 ulushining nisbiy ortishi, g‘ovaklikning rivojlanishi kutiladi [11; 12].

Tayanchning optimal Si/Al nisbati ikkita qarama-qarshi talabni muvozanatlaydi. SiO_2 ulushi yuqori bo‘lsa sirt nisbatan inert va termik barqaror bo‘ladi; Al_2O_3 ulushi ortsa kislota markazlari ko‘payadi. Sintez gazdan olefinlar olishda kuchli kislotalik noxush aromatizatsiya va koks hosil bo‘lishini kuchaytirishi mumkin, shuning uchun o‘rta darajadagi kislotalikka ega mezog‘ovak tayanch maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3-jadval

Mahalliy xomashyo va faollashtirilgan tayanchning namunaviy oksid tarkibi, massa %

Namuna	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	CaO+MgO	Na_2O+K_2O	Yo‘qotish
Tabiiy bentonit	58,0	15,5	5,2	6,8	2,4	12,1
Kislota bilan faollashtirilgan bentonit	67,5	12,8	3,1	2,0	1,1	13,5
Kaolin	49,2	35,8	1,4	0,8	1,0	11,8
Bentonit-kaolin tayanchi	61,0	20,5	2,6	1,9	1,2	12,8

Jadval mahalliy xomashyo va faollashtirilgan tayanchning oksid tarkibini qiyoslaydi. Kislota bilan ishlov berishdan keyin SiO_2 ulushining nisbiy ortishi va ishqoriy-er oksidlarning kamayishi tayanchning sirt-g‘ovak xossalari yaxshilanishi bilan bog‘lanadi.


Katalizatorlarning fazaviy tarkibi va kristall tuzilishi

XRD tahlili katalizatorlarda tayanch fazalari, temir oksidlar, rux oksidi, sirkoniy oksidi va reaksiya keyingi temir karbid fazalarini aniqlash uchun qo‘llanadi. Faollashtirilgan bentonitda kvarts, montmorillonit qoldiq fazalari va amorf aluminosilikat fond kuzatilishi mumkin. Fe-Zn-Zr-Na kiritilgandan so‘ng Fe_2O_3 yoki Fe_3O_4 fazalariga xos piklar paydo bo‘ladi. Reaksiya oldi faollashtirish va sintez gaz muhitida ishlash natijasida Fe karbid fazalari shakllanishi mumkin, ular FTO mexanizmida faol markazlar sifatida qaraladi [2; 7].

XRD piklarining kengligi faol komponentlar zarracha o‘lchami haqida ma’lumot beradi. Keng va past intensivlikdagi piklar yuqori disperslikni, keskin va kuchli piklar esa yirik kristallitlarni bildiradi. Katalizatorning yuqori selektivligi uchun Fe fazalarining juda yiriklashib ketmasligi, Zn va Zr

ISSN 3030-3907

komponentlarining bir tekis taqsimlanishi va tayanch skeletining kalsinatsiyada saqlanishi zarur.



2-rasm. XRD difraktogrammalarining namunaviy ko‘rinishi


Izoh. Rasm tayanch va faol komponentlar kiritilgan katalizatorning fazaviy o‘zgarishlarini XRD difraktogrammalari orqali ko‘rsatadi. Piklarning holati va intensivligi mineral fazalar, temir oksidlari hamda reaksiyadan keyingi faol karbid fazalar mavjudligini aniqlashda qo‘llanadi.

G‘ovaklik, solishtirma sirt va kislotalik xossalarining shakllanishi

Sintez gazdan olefinlar olishda katalizator sirt maydoni va g‘ovaklik tuzilishi reaksiya tezligi, diffuziya va deaktivatsiya jarayonlariga ta’sir qiladi. Juda kichik mikrog‘ovaklar og‘ir molekulalarning diffuziyasini cheklashi va koksni tez yig‘ishi mumkin; juda yirik g‘ovaklar esa shakl-selektivlikni kamaytiradi. Mahalliy aluminosilikat tayanchlar uchun mezog‘ovaklikning rivojlanishi faol komponentlar dispersligi va mahsulotlarning reaktor qatlamidan chiqishini yaxshilaydi.

BET izotermasi orqali solishtirma sirt maydoni, BJH hisoblash orqali g‘ovak diametri va hajmi baholanadi. Kislota bilan faollashtirish odatda sirt maydonini oshiradi, lekin faol komponentlar kiritilgandan so‘ng sirt maydoni qisman kamayishi mumkin, chunki metall oksidlar g‘ovaklar ichiga joylashadi. Shuning uchun yakuniy katalizatorning sirt maydoni emas, balki faol komponentlar bilan muvozanatlashgan g‘ovaklik ko‘rsatkichi muhim hisoblanadi.

ISSN 3030-3907



3-rasm. N_2 adsorbsiya-desorbsiya izotermasi (BET/BJH)

Izoh. Rasm N_2 adsorbsiya-desorbsiya izotermasi orqali katalizatorning sirt-g‘ovak tuzilishini baholashni ko‘rsatadi. Histerezis halqasi mezog‘ovaklarning mavjudligini bildiradi, BET sirt maydoni va BJH g‘ovak taqsimoti esa faol komponentlar joylashishi hamda diffuziya sharoitlarini izohlashga yordam beradi.

4-jadval


Katalizatorlarning namunaviy teksturaviy ko‘rsatkichlari

Namuna	SBET, m^2/g	G‘ovak hajmi, sm^3/g	O‘rtacha g‘ovak diametri, nm	Izoh
Faollashtirilgan bentonit	72	0,18	9,8	Mezog‘ovak tayanch
Fe/SiO_2-Al_2O_3	58	0,15	10,4	Fe oksidlar kiritilgach sirt kamayadi
Fe-Zn-Zr/SiO_2-Al_2O_3	49	0,14	12,1	Promotorlar g‘ovaklarda joylashadi
Fe-Zn-Zr-1,0Na/SiO_2-Al_2O_3	43	0,13	13,5	Na qisman sirtni bloklaydi
Fe-Zn-Zr-2,0Na/SiO_2-Al_2O_3	31	0,10	16,8	Na ortiqchaligi sirtni pasaytiradi

Jadvalda katalizatorlarning sirt maydoni, g‘ovak hajmi va o‘rtacha g‘ovak diametri kabi teksturaviy ko‘rsatkichlarini beradi. Bu qiymatlar faol komponentlar yuklamasi va Na miqdori ortishi bilan g‘ovaklarning qisman to‘silishi yoki mezog‘ovaklarning o‘zgarishini baholashda qo‘llanadi.

ISSN 3030-3907

Kislotalik NH_3-TPD orqali kuchsiz, o‘rta va kuchli markazlarga ajratiladi. Kuchsiz markazlar 150-250 °C, o‘rta markazlar 250-400 °C, kuchli markazlar esa 400-600 °C oralig‘idagi desorbsiya piklari bilan shartli baholanadi. Quyi olefinlar selektivligi uchun o‘rta kuchli markazlar yetarli bo‘lishi, kuchli markazlar esa haddan tashqari ko‘p bo‘lmasligi lozim.



4-rasm. NH_3-TPD profilining namunaviy ko‘rinishi

NH_3-TPD profili bo‘yicha kislota markazlari kuchini ajratib ko‘rsatadi. Past, o‘rta va yuqori haroratli desorbsiya hududlari mos ravishda kuchsiz, o‘rta va kuchli markazlarga bog‘lanadi; ularning nisbati olefin selektivligi va koks hosil bo‘lish ehtimoliga ta’sir qiladi.

5-jadval

Katalizator kislota markazlarining namunaviy taqsimoti

Namuna	Kuchsiz markazlar, μmol/g	O‘rta markazlar, μmol/g	Kuchli markazlar, μmol/g	Umumiy kislotalik, μmol/g
SiO_2-Al_2O_3 tayanch	220	310	90	620
Fe-Zn-Zr/SiO_2-Al_2O_3	190	360	120	670
Fe-Zn-Zr-1,0Na/SiO_2-Al_2O_3	160	330	80	570
Fe-Zn-Zr-2,0Na/SiO_2-Al_2O_3	120	240	60	420
ZnZrOx/SAPO-34	260	520	210	990

Jadvalda kuchsiz, o‘rta va kuchli kislota markazlari taqsimotini ko‘rsatadi. Olefinlar sintezi uchun o‘rta kuchli markazlar foydali, kuchli markazlarning ortib ketishi esa koks va aromatik yon mahsulotlar hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

ISSN 3030-3907

XULOSA.

Mahalliy bentonit, kaolin va diatomit xomashyolari SiO_2-Al_2O_3 tayanch, zeolit sintezi uchun Si-Al manba yoki granulalash bog‘lovchisi sifatida ishlatilishi mumkinligi asoslandi. Kislota-termik faollashtirish tayanchning sirt maydoni, kislotaligi va g‘ovaklik tuzilishini boshqarish uchun asosiy bosqich hisoblanadi.

Fe-Zn-Zr-Na/SiO_2-Al_2O_3 katalizatorlarida Fe faol faza, Zn disperslik modifikatori, Zr strukturaviy stabilizator va Na alkali promotor sifatida qaraldi. Na yuklamasining optimal oralig‘i olefin/parafin nisbatini oshirishi, ortiqcha miqdori esa CO konversiyasini kamaytirishi mumkinligi ilmiy asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Steynberg A.P., Dry M.E. Fischer-Tropsch Technology. Amsterdam: Elsevier, 2004.
2. de Klerk A. Fischer-Tropsch Refining. Weinheim: Wiley-VCH, 2011.
3. GOST 7.1-2003. Bibliograficheskaya zapis'. Bibliograficheskoe opisanie. Obshchie trebovaniya i pravila sostavleniya. Moskva: Standartinform.
4. GOST R 7.0.5-2008. Bibliograficheskaya ssylka. Obshchie trebovaniya i pravila sostavleniya. Moskva: Standartinform.
5. IUPAC. Compendium of Chemical Terminology: Gold Book. 2nd ed. Oxford: Blackwell Scientific Publications, 1997.
6. Bartholomew C.H., Farrauto R.J. Fundamentals of Industrial Catalytic Processes. 2nd ed. Hoboken: Wiley, 2006.
7. Gates B.C. Catalytic Chemistry. New York: Wiley, 1992.
8. Fogler H.S. Elements of Chemical Reaction Engineering. 5th ed. Boston: Pearson, 2016.
9. Levenspiel O. Chemical Reaction Engineering. 3rd ed. New York: Wiley, 1999.
10. Froment G.F., Bischoff K.B., De Wilde J. Chemical Reactor Analysis and Design. 3rd ed. Hoboken: Wiley, 2011.
11. Moulijn J.A., van Leeuwen P.W.N.M., van Santen R.A. Catalysis: An Integrated Approach. 2nd ed. Amsterdam: Elsevier, 1999.

ISSN 3030-3907

MAHALLIY XOM ASHYOLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN KATALIZATORLARDA SINTEZ GAZDAN QUYI OLEFINLARNI OLISH TEXNOLOGIYASI

G‘oziyev J.Ya.
Qarshi davlat texnika universiteti
Quyboqarov O.E.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu ishda mahalliy bentonit, kaolin va aluminosilikat xomashyolari asosida sintez gazdan quyi olefinlar olishga mo‘ljallangan Fe-Zn-Zr-Na/SiO_2-Al_2O_3 hamda oksid-zeolit tipidagi bifunksional katalizatorlarni ishlab chiqish masalalari yoritildi. Ishda sintez gazning manbalari, Fischer-Tropsch-to-olefins (FTO) va OX-ZEO yo‘nalishlarining nazariy asoslari, mahalliy mineral xomashyoning katalizator tayanchi sifatidagi imkoniyatlari, katalizatorlarni tayyorlash, fizik-kimyoviy tahlil qilish, sobit qatlamli reaktorda sinash va texnologik sxemani ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Fe-Zn-Zr-Na/SiO_2-Al_2O_3 katalizatorlari, xromatografik tahlil, SiO_2-Al_2O_3, SEM, NH3-TPD va Syngas-to-olefins, ya’ni sintez gazdan olefinlar olish jarayoni.

Аннотация. В данной работе освещены вопросы разработки бифункциональных катализаторов типа Fe-Zn-Zr-Na/SiO2-Al2O3 и оксид-цеолита, предназначенных для получения низших олефинов из синтез-газа на основе местного бентонита, каолина и алюмосиликатного сырья. В работе изучены источники синтез-газа, теоретические основы направлений Fischer-Tropsch-to-olefins (FTO) и OX-ZEO, возможности местного минерального сырья в качестве катализаторной опоры, приготовление катализаторов, физико-химический анализ, испытания в реакторе с твердым слоем и разработана технологическая схема.

Ключевые слова: катализаторы Fe-Zn-Zr-Na/SiO2-Al2O3, хроматографический анализ, SiO2-Al2O3, СЭМ, NH3-TPD и Syngas-to-olefins, то есть процесс получения олефинов из синтез-газа.

Abstract. This work covers the development of bifunctional catalysts of the Fe-Zn-Zr-Na/SiO2-Al2O3 type and the oxide-zeolite type for obtaining lower olefins from synthesis gas based on local bentonite, kaolin, and aluminosilicate raw materials. The work examines synthesis gas sources, the theoretical foundations of the Fischer-Tropsch-to-olefins (FTO) and OX-ZEO directions, the potential of local mineral raw materials as a catalyst base, catalyst preparation, physicochemical analysis, solid-layer reactor testing, and the development of a technological scheme.

ISSN 3030-3907

Keywords: Fe-Zn-Zr-Na/SiO2-Al2O3 catalysts, chromatographic analysis, SiO2-Al2O3, SEM, NH3-TPD, and Syngas-to-olefins, i.e., the process of obtaining olefins from synthesis gas.

KIRISH.

Sintez gazni quyi olefinlarga aylantirish texnologiyasining ilmiy murakkabligi CO molekulasining yuqori barqarorligi bilan bog‘liq. CO molekulasida C≡O bog‘i kuchli bo‘lgani sababli katalizator sirtida avvalo adsorbsiyalanish, qutblanish, dissotsiatsiya yoki kislorodli oraliq turlar hosil bo‘lishi talab etiladi. Keyingi bosqichda C_1 fragmentlari yoki kislorodli intermediatlardan C–C bog‘ hosil bo‘lishi, zanjirning cheklangan uzunlikda o‘sishi va C_2–C_4 olefinlarning desorbsiyasi sodir bo‘ladi. Jarayonning maqsadi metanlanish va og‘ir C_5+ fraksiyalar hosil bo‘lishini kamaytirgan holda etilen, propilen va butilenlar ulushini oshirishdan iborat [2; 7].

An’anaviy Fischer–Tropsch sintezida uglevodorodlar taqsimoti Anderson–Schulz–Flory qonuniyati bilan tavsiflanadi. Bu qonuniyat zanjir o‘sishi ehtimoli bir xil bo‘lganda mahsulotlar keng taqsimlanishini ko‘rsatadi. Quyi olefinlarga yo‘naltirilgan texnologiyada esa mazkur taqsimotni buzish, ya’ni C_2–C_4 fraksiyani selektiv ravishda ko‘paytirish talab etiladi. Bunga temir asosli katalizatorlarning promotorlanishi, tayanchning kislota-asos xossalarini o‘zgartirish, mikrog‘ovakli zeolitlar bilan birlashtirish va reaktor sharoitlarini optimallashtirish orqali erishiladi. Shuning uchun sintez gaz kimyosi oddiy gaz konversiyasi emas, balki ko‘p bosqichli katalitik boshqaruv masalasi hisoblanadi.

Sintez gazning manbalari turlicha bo‘lgani uchun katalizator tanlashda gaz tarkibini hisobga olish zarur. Tabiiy gazdan olingan sintez gaz ko‘pincha vodorodga boy bo‘ladi, ko‘mir gazifikatsiyasidan olingan sintez gazda esa CO va CO_2 ulushi yuqori bo‘lishi mumkin. Biomassadan olingan sintez gazda smola, kislorodli birikmalar va ishqoriy metallar izlari uchrashi mumkin. Agar H_2/CO nisbati juda yuqori bo‘lsa, olefinlar vodorodlanib parafinlarga aylanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Katalizator promotorlari faol komponentning miqdori kam bo‘lsa-da, mahsulotlar taqsimotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan qo‘shimchalardir. FTO jarayonida promotorlar elektron, strukturaviy va kislota-asos xossalarini o‘zgartirish orqali CO konversiyasi, olefin/parafin nisbati, metan selektivligi va katalizator barqarorligini boshqaradi. Alkali promotorlar, xususan Na va K, temir sirtining elektron zichligini o‘zgartiradi va CO adsorbsiyasini kuchaytirib, H_2 dissotsiatsiyasi va vodorodlashni nisbatan susaytiradi. Natijada olefinlarning parafinlarga aylanishi kamayadi. Biroq promotor miqdori optimallashtirilmasa, faol markazlar bloklanishi va umumiy konversiya pasayishi mumkin [2; 7].

ISSN 3030-3907

Na promotorining ta’siri ayniqsa mahalliy aluminosilikat tayanchlarda qiziqarli hisoblanadi. Bentonitning tabiiy almashinuvchi kationlari orasida Na, Ca, Mg kabi elementlar bo‘lishi mumkin; kislota bilan faollashtirish ularning bir qismini chiqaradi, keyinchalik nazoratli Na kiritish esa katalitik xossalarni boshqaradi. Na miqdori past bo‘lsa, vodorodlash yetarlicha cheklanmaydi; juda yuqori bo‘lsa, g‘ovaklar va Fe faol markazlari qisman bloklanadi. Shu sababli tajribada Na ning 0,5–2,0 massa % oralig‘ida o‘zgarishi maqsadga muvofiq. 1.3-rasmda Na miqdorining mahsulot taqsimotiga namunaviy ta’siri ko‘rsatilgan.

Zn promotorining roli bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ZnO fazasi Fe oksid zarrachalarining aglomeratsiyasini cheklashi mumkin. Ikkinchidan, Zn elektron effekt orqali CO adsorbsiyasi va vodorod faolligiga ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, Zn oksid–zeolit tizimlarida kislorodli intermediatlar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq faol markaz sifatida ham qaraladi. Zn ning bunday ko‘p funksiyaliligi uni Fe–Zn–Zr–Na va ZnZrOx/SAPO-34 tipidagi tizimlarda muhim komponentga aylantiradi. Biroq Zn miqdori ortib ketganda faol Fe markazlari suyulishi yoki alohida inert fazalar ko‘payishi ehtimoli mavjud.

Zr qo‘shimchasi ko‘pincha strukturaviy stabilizator va oksid komponentning kislorod bo‘shliqlarini boshqaruvchi element sifatida muhokama qilinadi. ZrO_2 yuqori termik barqarorlikka ega bo‘lib, Fe yoki Zn oksid fazalarining dispersligini saqlashga yordam beradi. OX-ZEO adabiyotlarida ZnZrOx, InZrOx va GaZrOx kabi tizimlar sintez gazdan olefinlar olishda istiqbolli ekanligi ko‘rsatilgan [3; 4]. Zr ishtirokidagi oksid komponentlar CO va H_2 dan metanolga yaqin oraliq turlar hosil qilishda muhim bo‘lishi mumkin. Fe asosli tizimlarda esa Zr zarrachalar sinterlanishini cheklab, uzoq muddatli barqarorlikni oshirishi kutiladi.

Promotorlar o‘zaro sinergiya yoki antagonizm ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Na olefin/parafin nisbatini oshirsa, Zn va Zr strukturaviy barqarorlikni yaxshilaydi. Ammo Na ning ortiqcha miqdori Zn yoki Zr bilan birikib, faol markazlar sonini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, promotorlarni kiritish ketma-ketligi ham natijaga ta’sir qiladi. Agar Fe avval tayanchga mahkam bog‘lanib, keyin Zn va Zr kiritilsa, faol fazalar taqsimoti bir xil bo‘lishi mumkin; agar barcha tuzlar birgalikda kiritilsa, cho‘kish yoki kristallanish jarayoni boshqacha kechadi.

MATERIALLAR VA METODIK YONDASHUV.

Oksid–zeolit tipidagi bifunksional katalizatorlarni tayyorlash

Oksid–zeolit tipidagi bifunksional katalizatorlar sintez gazdan quyi olefinlar olishda Fischer–Tropsch mexanizmidan farq qiluvchi yo‘lni taklif qiladi. Bu tizimlarda metall oksid komponenti CO va H_2 ni kislorodli oraliq mahsulotlarga aylantiradi, zeolit yoki aluminosilikat komponenti esa ushbu oraliq

ISSN 3030-3907

mahsulotlarni C_2–C_4 olefinlarga aylantiradi. Bunday konsepsiya OX-ZEO deb yuritiladi va so‘nggi yillarda sintez gaz kimyosining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda [3; 5; 9].

Bifunksional katalizator tayyorlashda oksid komponenti sifatida ZnZrOx, FeZnZrOx, InZrOx yoki GaZrOx tipidagi tizimlar ishlatilishi mumkin. Mazkur dissertatsiya mavzusida mahalliy xomashyo bilan bog‘liqlikni kuchaytirish uchun Fe–Zn–Zr oksid komponentini faollashtirilgan aluminosilikat yoki SAPO-34/ZSM-5 bilan birlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda mahalliy bentonit va kaolindan olingan Si–Al komponent zeolitga muqobil yoki qo‘shimcha tayanch sifatida xizmat qilishi mumkin.

Zeolit komponentni tanlashda uning g‘ovak tuzilishi va kislotaligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. SAPO-34 kichik g‘ovakli chabazit topologiyasiga ega bo‘lib, metanol-to-olefins yo‘nalishida etilen va propilen selektivligini oshirishga moyil. ZSM-5 esa o‘rta g‘ovakli tuzilishga ega bo‘lib, propilen, butilen va aromatiklar hosil bo‘lishiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun SAPO-34 yuqori C_2–C_3 olefin selektivligi uchun, ZSM-5 esa mahsulot taqsimotini kengroq o‘rganish uchun tanlanadi [3; 8].

Bifunksional katalizatorlarni tayyorlashning uchta asosiy usuli ko‘rib chiqiladi: mexanik aralashtirish, granulalashda birlashtirish va ketma-ket qatlamda joylashtirish. Mexanik aralashtirishda oksid va zeolit kukunlari ma’lum nisbatda aralashtiriladi. Granulalashda ikkala komponent bog‘lovchi bilan birgalikda granulaga aylantiriladi. Ketma-ket qatlamda esa reaktorda avval oksid, so‘ng zeolit komponent joylashtiriladi yoki aksincha. Har bir usul komponentlar orasidagi masofa va oraliq mahsulotlarning migratsiyasiga ta’sir qiladi.

OX-ZEO tizimlarida oksid va zeolit komponentlari orasidagi fizik masofa juda muhim. Agar komponentlar juda yaqin bo‘lsa, oraliq mahsulotlar tez zeolitga o‘tadi, biroq noxush ikkilamchi reaksiyalar kuchayishi mumkin. Agar masofa juda uzoq bo‘lsa, metanol yoki DME kabi oraliq birikmalar gaz fazasida yo‘qolishi yoki qayta reaksiyaga kirishishi mumkin. Shu sababli mexanik aralashtirish va granulalash usullari alohida solishtiriladi.

Kislotalikni boshqarish uchun zeolit komponenti bug‘ bilan ishlov berish, ion almashinish yoki Si/Al nisbatini tanlash orqali modifikatsiya qilinadi. Juda kuchli kislota markazlari olefinlarning oligomerlanishi, aromatlanishi va koks hosil bo‘lishini kuchaytiradi. Kuchsiz kislotalik esa oraliq mahsulotlarning olefinlarga aylanishini sekinlashtiradi. Shuning uchun o‘rta kuchli kislota markazlari va cheklangan g‘ovak geometriyasi muhimdir.


Bifunksional namunalarda oksid/zeolit massaviy nisbati 1:2, 1:1 va 2:1 qilib tanlanadi. Oksid komponenti ko‘p bo‘lsa, CO konversiyasi ortishi mumkin, lekin olefin hosil qiluvchi kislota markazlari yetishmasligi ehtimoli bor. Zeolit

ISSN 3030-3907

ko‘p bo‘lsa, oraliq mahsulotlar samarali konversiyalanadi, ammo CO faollanishi cheklanishi mumkin. Optimal nisbat katalitik tajribalar asosida aniqlanadi.

Mahalliy aluminosilikat komponentini OX-ZEO tizimiga kiritishda uning kislotaligi va g‘ovakligi SAPO-34 yoki ZSM-5 bilan solishtiriladi. Agar faollashtirilgan bentonit/kaolin tayanchi o‘rta kuchli kislota markazlari va mezog‘ovak tuzilishga ega bo‘lsa, u zeolit komponentini qisman almashtirishi yoki kompozit granulada mexanik mustahkamlikni oshirishi mumkin. Bu holat dissertatsiyaning mahalliylashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Bifunksional katalizatorlarni baholashda faqat umumiy C_2–C_4 selektivlik emas, balki etilen/propilen nisbati, butilen izomerlari, metan hosil bo‘lishi, CO_2 selektivligi va koks yig‘ilishi ham o‘rganiladi. Chunki OX-ZEO tizimlarida mahsulot taqsimoti zeolit topologiyasi, kislotalik va oksid komponenti xossalariga juda sezgir. Metodik jihatdan har bir namuna bir xil sharoitda tekshirilishi kerak.



1-rasm. Oksid–zeolit tipidagi bifunksional katalizatorda bosqichli konversiya modeli

Izoh. Rasm OX-ZEO bifunksional katalizatorida konversiya bosqichma-bosqich kechishini tushuntiradi. Oksid markazlarda CO va H_2 dan kislorodli oraliq mahsulotlar, zeolitning kislotali-g‘ovak tuzilmasida esa C_2–C_4 olefinlar hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Oksid–zeolit katalizatorlarini tayyorlash variantlari

Variant	Tarkib	Tayyorlash usuli	Ilmiy maqsad

ISSN 3030-3907

OZ-1	ZnZrOx + SAPO-34	mexanik aralashtirish, 1:1	OX-ZEO bazaviy modelini tekshirish
OZ-2	FeZnZrOx + SAPO-34	granulalashda birlashtirish	Fe ishtirokining ta’sirini baholash
OZ-3	ZnZrOx + ZSM-5	mexanik aralashtirish	Zeolit topologiyasi ta’siri
OZ-4	FeZnZrOx + faollashtirilgan bentonit	kompozit granulalash	Mahalliy aluminosilikat imkoniyati
OZ-5	Oksid qatlam + zeolit qatlam	reaktorda ketma-ket joylashtirish	Komponentlar masofasi ta’siri

Izoh. Jadval oksid–zeolit katalizatorlarini tayyorlash variantlarini taqqoslaydi. Mexanik aralashtirish, bosqichli sintez yoki alohida komponentlarni birlashtirish usuli faol markazlar orasidagi masofani va tandem konversiya samaradorligini belgilaydi.

2-jadval.

Bifunksional katalizatorlarda boshqariladigan parametrlar

Parametr	O‘rganiladigan qiymatlar	Kutiladigan ta’sir	Baholash ko‘rsatkichi
Oksid/zeolit nisbati	1:2; 1:1; 2:1	CO faollanishi va olefin hosil bo‘lishi muvozanati	CO konversiyasi, C_2–C_4 selektivligi
Aralashtirish usuli	mexanik, granulalash, qatlamli	Oraliq mahsulotlar migratsiyasi	olefin/parafin nisbati
Zeolit turi	SAPO-34, ZSM-5, aluminosilikat	Topologiya va kislotalik ta’siri	etilen/propilen nisbati
Kislotalik darajasi	kuchsiz, o‘rta, kuchli markazlar	Ikkilamchi reaksiyalarni boshqarish	NH_3-TPD, koks miqdori
Granula o‘lchami	0,5–1,0; 1,0–3,0 mm	Diffuziya va bosim tushishi	reaktor barqarorligi

Izoh. Jadval bifunksional katalizatorlarda boshqarilishi kerak bo‘lgan asosiy parametrlarni ko‘rsatadi. Oksid/zeolit nisbati, zarracha o‘lchami, kislotalik

ISSN 3030-3907

va kontakt darajasi oraliq mahsulotlarning olefinlarga aylanishini belgilovchi muhim omillardir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Fe, Zn, Zr va Na promotorlarining CO konversiyasiga ta’siri

Fe asosli katalizatorda faol faza CO faollanishi va C-C bog‘lanish bosqichini ta’minlaydi. Zn va Zr qo‘shimchalari faol faza tarqalishini va termik barqarorlikni boshqaradi. Na promotorining ta’siri ikki tomonlama: u vodorodlashni cheklab olefin/parafin nisbatini oshiradi, ammo yuqori miqdorda faol markazlarni bloklab CO konversiyasini pasaytiradi. Shu sababli Na yuklamasi 0,5-1,5 massa % oralig‘ida optimallashtiriladi [7].

Model natijalarga ko‘ra, Fe-Zn-Zr-1,0Na/SiO_2-Al_2O_3 namunasi CO konversiyasi va C_2-C_4 olefinlar selektivligi bo‘yicha muvozanatli natija berishi mumkin. Na miqdori 2,0 massa % ga yetganda CH_4 selektivligi pasaysa ham, CO konversiyasi va umumiy olefin unumi kamayishi ehtimoli bor. Bu holat alkali promotorning optimal oynasi mavjudligini ko‘rsatadi.

3-jadval

Fe-Zn-Zr-Na katalizatorlarining namunaviy katalitik ko‘rsatkichlari

Namuna	CO konversiyasi, %	C_2-C_4= selektivligi, %	CH_4 selektivligi, %	O/P nisbati	Baholash
Fe/SiO_2-Al_2O_3	42	34	20	1,8	Faollik bor, vodorodlanish yuqori
Fe-Zn/SiO_2-Al_2O_3	45	39	18	2,2	Zn selektivlikni yaxshilaydi
Fe-Zn-Zr/SiO_2-Al_2O_3	48	44	16	2,7	Zr barqarorlikni oshiradi
Fe-Zn-Zr-1,0Na/SiO_2-Al_2O_3	46	56	12	4,1	Optimal olefin/parafin nisbati
Fe-Zn-Zr-2,0Na/SiO_2-Al_2O_3	34	58	10	4,5	Selektivlik yuqori, konversiya past

Izoh. Jadval Fe–Zn–Zr–Na katalizatorlarining CO konversiyasi, C_2–C_4 olefinlar selektivligi, CH_4 selektivligi va O/P nisbati bo‘yicha model


ISSN 3030-3907

ko‘rsatkichlarini qiyoslaydi. Bu jadval promotorlar kombinatsiyasi optimal selektivlikka qanday olib kelishini tushuntirish uchun xizmat qiladi.

Harorat, bosim va H_2/CO nisbatining quyi olefinlar selektivligiga ta’siri

Harorat oshishi CO konversiyasini ko‘paytiradi, ammo juda yuqori harorat metanlanish, koks hosil bo‘lishi va olefinlarning ikkilamchi reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin. Model natijalarda 380-400 °C oralig‘i CO konversiyasi va C_2-C_4 olefinlar selektivligi o‘rtasidagi maqbul muvozanat sifatida ko‘rinadi. 420 °C dan yuqori haroratda CH_4 selektivligi ortishi va olefin/parafin nisbati pasayishi ehtimoli bor.

Bosimning ortishi CO konversiyasini oshirishi mumkin, ammo vodorodlanish reaksiyalarini ham kuchaytiradi. H_2/CO nisbatining yuqori bo‘lishi parafinlar ulushini oshiradi, past bo‘lishi esa koks hosil bo‘lishi va katalizatorning tez deaktivatsiyasiga olib kelishi mumkin. Shu sababli Fe asosli katalizatorlar uchun H_2/CO = 1,0-1,5 oralig‘i, OX-ZEO tizimlari uchun esa katalizator turiga qarab 1,0-2,0 oralig‘i sinovdan o‘tkaziladi [2; 3].



3-rasm. Haroratning konversiya va selektivlikka ta’siri (model ma’lumot)

Izoh. Rasm haroratning CO konversiyasi va mahsulot selektivligiga model ta’sirini ko‘rsatadi. Harorat oshishi konversiyani kuchaytirishi mumkin, biroq juda yuqori harorat metanlanish, parafinlanish va koks hosil bo‘lishini kuchaytirgani uchun optimal harorat oralig‘i aniqlanishi zarur.

ISSN 3030-3907

4-jadval

Jarayon omillarining mahsulot taqsimotiga kutiladigan ta’siri

Omil	Ortishi natijasida kutiladigan ijobiy ta’sir	Ehtimoliy salbiy ta’sir	Optimal nazorat mezoni
Harorat	CO konversiyasi ortadi	CH_4 va koks ortadi, olefin selektivligi pasayadi	C_2-C_4= unumining maksimumi
Bosim	Kontakt samaradorligi va konversiya ortadi	Parafinlanish kuchayadi	O/P nisbati va CO konversiyasi muvozanati
H_2/CO	H_2 yetishmovchiligi kamayadi	H_2 ortiqcha bo‘lsa parafinlar ortadi	CH_4 past, olefinlar yuqori bo‘lishi
GHSV	Olefinlarning ikkilamchi reaksiyalari kamayadi	Konversiya pasayadi	Olefin unumi va reaktor quvvati
TOS	Barqarorlik baholanadi	Deaktivatsiya ko‘rinadi	Regeneratsiyagacha ishlash vaqti

Izoh. Jadval harorat, bosim, H_2/CO nisbati va GHSV kabi jarayon omillarining mahsulot taqsimotiga kutiladigan ta’sirini umumlashtiradi. U reaktor sharoitlarini tanlashda konversiya va selektivlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

OX-ZEO tipidagi katalizatorlarda kislorodli oraliq mahsulotlar orqali olefin hosil bo‘lishi

OX-ZEO tizimida sintez gazdan olefinlar hosil bo‘lishi tandem mexanizm bo‘yicha kechadi. Dastlab CO va H_2 oksid komponentida faollashib, metanol, DME, keten yoki yuzaga bog‘langan formiat/metoksi turlari kabi oraliq mahsulotlar hosil qiladi. Keyin bu oraliq mahsulotlar zeolit mikrog‘ovaklariga kirib, gidrokarbon-pool mexanizmi orqali etilen, propilen va butilenlarga aylanadi. Zeolit tanlovi mahsulot taqsimotini belgilaydi: SAPO-34 quyi olefinlarga, ZSM-5 esa ko‘proq propilen va aromatiklarga moyil bo‘lishi mumkin [3; 6; 8].

Mahalliy xomashyo ushbu tizimda uch xil rol bajarishi mumkin: oksid komponent uchun arzon tayanch, zeolit granulalarini bog‘lovchi, yoki Si-Al manba sifatida. Agar mahalliy kaolin metakaolinga aylantirilib, gidrotermal sintezda SAPO yoki aluminosilikat zeolit olish uchun ishlatilsa, OX-ZEO tizimi

ISSN 3030-3907

yanada mahalliylashtiriladi. Biroq bunday yondashuvda zeolit kristalligi, kislotaligi va g‘ovak topologiyasi qat’iy nazorat qilinishi kerak.

XULOSA.

Optimal katalizator faqat eng yuqori CO konversiyasiga ega namuna emas, balki CO konversiyasi, C_2-C_4 olefinlar selektivligi, CH_4 selektivligi, O/P nisbati, TOS barqarorligi va regeneratsiyadan keyingi tiklanish darajasi bo‘yicha kompleks baholangan namunadir. Fe-Zn-Zr-1,0Na/SiO_2-Al_2O_3 tizimi FTO yo‘nalishi uchun muvozanatli variant bo‘lishi, ZnZrOx/SAPO-34 esa OX-ZEO yo‘nalishida yuqori selektivlik berishi mumkin. Mahalliy xomashyo asosidagi yakuniy texnologik yechim bu ikki konsepsiyani iqtisodiy va amaliy mezonlar bilan solishtirish orqali tanlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Steynberg A.P., Dry M.E. Fischer-Tropsch Technology. Amsterdam: Elsevier, 2004.
2. de Klerk A. Fischer-Tropsch Refining. Weinheim: Wiley-VCH, 2011.
3. GOST 7.1-2003. Bibliograficheskaya zapis'. Bibliograficheskoe opisanie. Obshchie trebovaniya i pravila sostavleniya. Moskva: Standartinform.
4. GOST R 7.0.5-2008. Bibliograficheskaya ssylka. Obshchie trebovaniya i pravila sostavleniya. Moskva: Standartinform.
5. IUPAC. Compendium of Chemical Terminology: Gold Book. 2nd ed. Oxford: Blackwell Scientific Publications, 1997.
6. Bartholomew C.H., Farrauto R.J. Fundamentals of Industrial Catalytic Processes. 2nd ed. Hoboken: Wiley, 2006.
7. Gates B.C. Catalytic Chemistry. New York: Wiley, 1992.
8. Fogler H.S. Elements of Chemical Reaction Engineering. 5th ed. Boston: Pearson, 2016.
9. Levenspiel O. Chemical Reaction Engineering. 3rd ed. New York: Wiley, 1999.
10. Froment G.F., Bischoff K.B., De Wilde J. Chemical Reactor Analysis and Design. 3rd ed. Hoboken: Wiley, 2011.

ISSN 3030-3907

A GIS-BASED FRAMEWORK FOR INDUSTRIAL FRESHWATER PRODUCTION AND SUSTAINABLE WATER RESOURCE MANAGEMENT USING SOLAR ENERGY TECHNOLOGIES

Azizbek Rakhmonov Yigitali o‘g‘li
E-mail: ***azizbek.raxmonov@fstu.uz arakhmonov111@gmail.com***
Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich
E-mail: yoturk1986@gmail.com iqboljon.zoxidov@fstu.uz

Annotatsiya. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ortishi va sanoat ehtiyojlarining ko‘payishi natijasida chuchuk suv tanqisligi dolzarb muammoga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotda quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalangan holda sanoat miqyosida chuchuk suv ishlab chiqarish va suv resurslarini barqaror boshqarishni baholash uchun GIS asosidagi yondashuv taklif etilgan. Metodika hududiy tahlil, quyosh resurslarini baholash va barqarorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari GIS va qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini integratsiyalash suv xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, chuchuk suv ishlab chiqarish, GIS, suv chuchuklashtirish, suv resurslarini boshqarish, barqarorlik.

Аннотация. Дефицит пресной воды становится одной из наиболее актуальных глобальных проблем вследствие изменения климата, роста населения и увеличения промышленного потребления воды. В работе предложен ГИС-ориентированный подход к оценке промышленного производства пресной воды и устойчивого управления водными ресурсами с использованием солнечных энергетических технологий. Методика включает пространственный анализ, оценку солнечного потенциала и показатели устойчивого развития. Результаты исследования подтверждают эффективность интеграции ГИС-технологий и возобновляемых источников энергии для повышения водной безопасности и устойчивого развития.

Ключевые слова: солнечная энергия, производство пресной воды, ГИС, опреснение воды, управление водными ресурсами, устойчивое развитие.

Abstract. Water scarcity has become a major global challenge due to climate change, population growth, and increasing industrial demand. This study proposes a GIS-based framework for industrial freshwater production and sustainable water resource management using solar energy technologies. The approach integrates spatial analysis, solar resource assessment, and sustainability indicators to identify suitable locations for solar-powered water desalination systems. The results demonstrate the potential of combining GIS and renewable energy technologies to improve water security and support sustainable development.

Keywords: Solar energy, freshwater production, GIS, desalination, water management, sustainability.

INTRODUCTION.

Freshwater scarcity has become one of the most critical global challenges due to climate change, population growth, and increasing industrial water demand. At the same time, the transition toward renewable energy technologies has accelerated worldwide as countries seek sustainable solutions to environmental and resource management problems. Solar energy technologies offer significant opportunities for producing freshwater while reducing dependence on conventional energy sources.

Despite the growing deployment of solar-powered desalination and water treatment systems, challenges remain in identifying suitable locations, optimizing resource utilization, and ensuring sustainable water management. Effective planning requires the integration of spatial information, solar resource availability, water demand characteristics, and environmental considerations.

Geographic Information Systems (GIS) provide powerful tools for spatial analysis and decision support in water resource management. By combining GIS-based assessment with solar energy technologies, it becomes possible to identify optimal sites for freshwater production and improve the efficiency of desalination systems.

Therefore, this study proposes a GIS-based framework for industrial freshwater production and sustainable water resource management using solar energy technologies. The proposed approach integrates spatial analysis, solar resource assessment, and sustainability indicators to support decision-making and enhance water security in water-stressed regions.

LITERATURE REVIEW.

The rapid expansion of renewable energy systems has generated a growing body of academic research focusing on governance mechanisms, digital transparency, and infrastructure monitoring technologies. Previous studies have explored various aspects of renewable energy transitions, including policy frameworks, institutional governance structures, digital transparency tools, and spatial monitoring systems. Understanding these research contributions is essential for identifying existing knowledge gaps and developing new analytical frameworks for renewable energy governance.

This section reviews the existing literature related to renewable energy governance, digital transparency in the energy sector, and GIS-based monitoring technologies for energy infrastructure. First, the literature on renewable energy governance and institutional frameworks is examined. Second, studies addressing digital transparency and open data systems in energy governance are reviewed. Finally, research focusing on GIS-based monitoring systems and spatial analysis for renewable energy infrastructure planning is discussed.

ISSN 3030-3907

2.1 Renewable Energy Governance

The transition toward renewable energy systems has become one of the central strategies for addressing global climate change and achieving sustainable development goals. Renewable energy technologies such as solar, wind, and hydropower play an essential role in reducing greenhouse gas emissions and improving environmental sustainability. Empirical studies show that increasing renewable energy adoption significantly contributes to lowering carbon emissions and promoting sustainable economic development (Hasan, 2023). However, the expansion of renewable energy infrastructure requires not only technological innovations but also effective governance frameworks to ensure successful implementation.

Renewable energy governance involves the institutional arrangements, regulatory policies, and stakeholder interactions that guide the development and management of energy systems. According to Geels (2020), energy transitions should be understood as socio-technical transformations that require coordinated interactions between technological innovations, policy frameworks, and social actors. In this context, governance mechanisms play a crucial role in shaping energy transitions by influencing investment decisions, regulatory structures, and policy coordination.




Figure 1. Conceptual framework of renewable energy governance and energy transition processes.

Source: Adapted from Geels (2020).

Several studies emphasize that institutional quality and policy effectiveness significantly influence the development of renewable energy systems. For example, Mahalik and Mallick (2021) demonstrate that strong institutional frameworks and governance quality positively affect renewable energy

ISSN 3030-3907

consumption and environmental sustainability. Similarly, Zhao et al. (2022) highlight that institutional quality and governance effectiveness are critical factors in supporting renewable energy development and achieving sustainable environmental outcomes. These findings indicate that governance structures play an essential role in enabling the successful implementation of renewable energy policies.

In addition, the governance of renewable energy systems often involves multiple stakeholders, including governments, private investors, local communities, and regulatory agencies. Effective governance mechanisms must therefore facilitate coordination among these actors to ensure efficient policy implementation and infrastructure development. Busch and McCormick (2022) emphasize that sustainability governance and local energy transitions require strong institutional collaboration and policy coordination to achieve long-term sustainability objectives. Similarly, Neij and Johansson (2021) argue that energy system transitions and climate-neutral development strategies depend heavily on effective governance frameworks and integrated policy approaches.

Recent studies also highlight the importance of governance principles in large-scale renewable energy projects. Söylemez (2024) notes that governance transparency, public participation, and accountability mechanisms are essential for increasing public acceptance of renewable energy megaprojects. Without transparent governance frameworks, renewable energy projects may face resistance from local communities and stakeholders. Furthermore, Dujany et al. (2024) argue that governance frameworks for energy transitions must address institutional dynamics, policy coherence, and stakeholder engagement in order to ensure sustainable energy transitions.

Overall, the literature suggests that renewable energy governance plays a crucial role in supporting energy transitions and sustainable development. Effective governance mechanisms can enhance policy coordination, improve institutional capacity, and increase stakeholder participation in renewable energy infrastructure development.

2.2 Digital Transparency in the Energy Sector

In recent years, digital technologies have emerged as important tools for improving governance transparency and accountability in the energy sector. Digital platforms, open data systems, and information technologies enable stakeholders to access information about energy infrastructure projects, monitor project development, and evaluate policy implementation more effectively. The increasing availability of digital technologies has created new opportunities for enhancing transparency in energy governance systems.

ISSN 3030-3907

Open data initiatives and digital transparency mechanisms play a significant role in strengthening public oversight and improving accountability in infrastructure development. Janssen et al. (2020) highlight that open data systems can improve transparency and enable better collaboration between governments, policymakers, and citizens. By providing access to information about public infrastructure projects, open data platforms can enhance public trust and support evidence-based decision-making processes.

Similarly, digital governance frameworks have become increasingly important in modern urban and energy systems. Meijer and Bolívar (2021) argue that digital governance and smart city technologies can significantly improve transparency, accountability, and citizen participation in public administration. These digital governance tools allow governments to share information about infrastructure development, environmental performance, and policy implementation with the public.

International organizations have also emphasized the importance of digital transparency in improving governance performance. According to the World Bank (2022), open data platforms and digital monitoring systems can significantly improve transparency in infrastructure projects by enabling real-time monitoring and public access to project information. These systems allow regulators and stakeholders to track project progress, identify potential risks, and evaluate the effectiveness of policy interventions.

Similarly, the United Nations Development Programme (UNDP, 2023) highlights that digital transparency mechanisms can enhance governance in the energy sector by increasing accountability and strengthening public participation. Digital monitoring systems allow policymakers and regulators to monitor infrastructure performance and ensure compliance with environmental and regulatory standards.

ISSN 3030-3907




Figure 2. Digital transparency framework for energy infrastructure governance.

Source: Adapted from Janssen et al. (2020).

Overall, the literature indicates that digital transparency technologies play an important role in modern energy governance systems. By integrating digital platforms, open data systems, and monitoring technologies, governments can improve transparency and strengthen the management of renewable energy infrastructure.

2.3 GIS-Based Monitoring Systems for Renewable Energy Infrastructure

Geographic Information Systems (GIS) have become widely used tools for spatial analysis and monitoring of renewable energy infrastructure. GIS technologies enable researchers and policymakers to analyze spatial data related to energy resources, environmental conditions, and infrastructure networks. These technologies play an important role in energy planning, site selection, and infrastructure management.

GIS-based analysis has been widely applied in renewable energy resource assessment and infrastructure planning. For example, Wang et al. (2020) developed a GIS-based framework for assessing renewable energy resources and supporting spatial planning of energy systems. Their study demonstrates that GIS technologies can improve decision-making processes by enabling spatial analysis of renewable energy potential and infrastructure development.

ISSN 3030-3907

Similarly, Bódis et al. (2019) conducted a GIS-based assessment of solar photovoltaic energy potential, demonstrating that spatial analysis tools can help identify optimal locations for solar energy infrastructure. These technologies allow policymakers to evaluate renewable energy potential and plan infrastructure development more effectively.

Recent studies have also applied GIS technologies for monitoring renewable energy infrastructure and evaluating sustainability outcomes. Gwenzi et al. (2022) highlight that GIS-based modelling can support renewable energy infrastructure planning by integrating spatial data on environmental conditions, resource availability, and infrastructure networks. Such systems enable policymakers to monitor renewable energy infrastructure and assess environmental impacts more effectively.

GIS technologies are also widely used in solar energy system planning and infrastructure management. Charabi and Gastli (2021) demonstrate that GIS-based spatial analysis can improve solar energy planning by identifying suitable locations for solar power installations and evaluating environmental constraints.

Furthermore, recent research highlights the growing role of GIS technologies in renewable energy community planning and sustainable infrastructure development. Martinez-López et al. (2024) emphasize that GIS-driven planning models can support renewable energy communities by integrating spatial analysis with energy system modelling. These approaches enable policymakers and planners to design renewable energy infrastructure more efficiently and sustainably.

Despite the increasing use of GIS technologies in renewable energy infrastructure planning, existing research rarely integrates GIS monitoring systems with digital transparency frameworks. Most studies focus on spatial analysis and energy planning, while relatively few studies address transparency and governance aspects of renewable energy infrastructure monitoring.

Therefore, there is a need for integrated frameworks that combine GIS-based monitoring technologies with digital transparency mechanisms in order to improve governance transparency in renewable energy infrastructure systems.

LITERATURE GAP.

Although previous studies have examined renewable energy governance, digital transparency systems, and GIS-based monitoring technologies, limited research has integrated these approaches into a comprehensive analytical framework. In particular, there is a lack of quantitative models for evaluating transparency performance in renewable energy infrastructure projects. Therefore, this study proposes a digital transparency framework and introduces a

ISSN 3030-3907

Transparency Index model to evaluate governance transparency in renewable energy infrastructure systems

METHODOLOGY.




Figure 3. Conceptual framework of the digital transparency governance system for renewable energy infrastructure monitoring.

Source: Developed by the authors.

3.1 Research Framework

Figure 3 presents the proposed framework for enhancing governance transparency in renewable energy infrastructure systems. The framework consists of three interconnected components: GIS-based monitoring, digital transparency platforms, and the Transparency Index (TI). GIS technologies support spatial monitoring and infrastructure planning, while digital platforms improve information accessibility, accountability, and stakeholder engagement. The Transparency Index evaluates governance transparency through indicators related to information openness, monitoring accessibility, stakeholder participation, and institutional accountability. By integrating these components, the framework promotes more transparent, efficient, and accountable renewable energy governance systems.

3.2 Digital Transparency Platform Architecture

ISSN 3030-3907




Figure 4. Architecture of the digital transparency platform for monitoring renewable energy infrastructure systems.

Source: Developed by the authors.

The proposed digital transparency platform is designed to improve transparency and accountability in renewable energy infrastructure governance. The platform integrates open data systems, monitoring tools, and digital technologies to provide real-time access to project information.

The platform consists of three main layers: **data acquisition**, **data processing and analysis**, and **transparency interface**. The data acquisition layer collects information from energy databases, GIS data, environmental monitoring systems, and institutional reports. The processing layer applies GIS and analytical tools to transform raw data into meaningful transparency and governance indicators. The transparency interface provides accessible information through digital dashboards and open data portals for governments, investors, regulators, and the public.

By integrating these components, the platform enhances information accessibility, stakeholder engagement, and evidence-based decision-making, contributing to more transparent and accountable renewable energy governance.

3.3 GIS-Based Monitoring System

ISSN 3030-3907




Figure 5. GIS-based monitoring framework for renewable energy infrastructure.

Figure 5 presents the workflow of the GIS-based monitoring system for renewable energy infrastructure management. The framework consists of four main stages: **GIS data sources, spatial data processing, infrastructure mapping, and monitoring and visualization**. Spatial data are collected from infrastructure databases, satellite imagery, GIS platforms, and environmental monitoring systems. The collected data are then processed and analyzed using GIS tools to ensure accuracy and consistency. Processed data are used to create spatial maps of renewable energy facilities, supporting infrastructure planning and assessment. Finally, GIS-based dashboards and visualization tools enable real-time monitoring, improve transparency, and support evidence-based decision-making in renewable energy management.

3.4 Data Sources and Data Collection

Reliable data sources are essential for monitoring renewable energy infrastructure and evaluating governance transparency. In this study, multiple data sources are integrated into the proposed digital transparency and GIS-based monitoring framework. These data sources provide spatial, environmental, and governance-related information required for infrastructure monitoring and transparency assessment.

The collected datasets include renewable energy infrastructure information, GIS spatial data, satellite imagery, and governance transparency indicators. These

ISSN 3030-3907

datasets enable spatial analysis, infrastructure mapping, and transparency evaluation within the proposed monitoring framework.

Table 1.

Renewable Energy Infrastructure Data

Data Type	Source	Description
Solar Power Plants	Energy databases	Location and capacity of solar installations
Wind Energy Facilities	Energy infrastructure reports	Information about wind farms
Renewable Energy Projects	Government datasets	Infrastructure development information

Table 2.

GIS and Spatial Data Sources

Data Type	Source	Description
Geographic Coordinates	GIS databases	Spatial location of infrastructure
Land Use Data	Environmental databases	Land classification and spatial planning
Satellite Imagery	Remote sensing systems	Environmental monitoring and spatial analysis

Table 3.

Transparency and Governance Indicators

Indicator	Description	Purpose
Data Accessibility	Availability of project data	Transparency evaluation
Monitoring Availability	Access to monitoring systems	Infrastructure tracking
Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tizimda eng katta ulush aynan yirik zarrachalarga tegishli bo‘lib, ular umumiy intensivlikning asosiy qismini tashkil etadi. Bu holat NaDDS eritmasida agregatsiya jarayoni yuqori darajada rivojlanganini bildiradi. Micellalar faqat hosil bo‘lib qolmay, balki o‘zaro ta’sirlashib, kattaroq klasterlar va aglomeratlar shakllantiradi. Shu sababli tizim oddiy micella tizimi emas, balki murakkab kolloid tuzilishga ega.

Shuningdek, natijalar tizimning polidispersligini, ya’ni turli o‘lchamdagi zarrachalarning bir vaqtda mavjudligini tasdiqlaydi. Bu esa eritmaning fizik-kimyoviy xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yirik agregatlarning ustunligi tizim barqarorligining pasayishiga yoki vaqt o‘tishi bilan fazaviy ajralishga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot NaDDS eritmasida kuchli agregatsiya mavjudligini ko‘rsatdi va bunday tizimlarda barqarorlikni boshqarish muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. Konsentratsiya, ion kuchi va tashqi sharoitlarni nazorat qilish orqali micella va agregatlar o‘rtasidagi muvozanatni boshqarish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Noorganik kimyo: Fani bo‘yicha ma’ruzalar matni,” Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, O‘zbekiston, 2018.
2. Rosen, M. J., & Kunjappu, J. T. (2012). *Surfactants and interfacial phenomena* (4th ed.). Wiley. https://doi.org/10.1002/9781118228920
3. D. Y. Myers, *Surfactant Science and Technology*, 4th ed. Hoboken, NJ, USA: John Wiley & Sons, Inc., 2020, ISBN: 9781119465850.
4. Israelachvili, J. N. (2011). *Intermolecular and surface forces* (3rd ed.). Academic Press. https://doi.org/10.1016/C2009-0-21560-1
5. Bhattacharjee, S. (2016). DLS and zeta potential – What they are and what they are not? *Journal of Controlled Release*, 235, 337–351. https://doi.org/10.1016/j.jconrel.2016.06.017

ISSN 3030-3907

6. Hunter, R. J. (2001). *Foundations of colloid science*. Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/foundations-of-colloid-science-9780198505020

ISSN 3030-3907

UDK 621.867.2:621.318.3

ВУЛКАНИЗАЦИОН ПРЕССЛАРНИНГ КОНСТРУКТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ҲАРОРАТ НАЗОРАТ ТИЗИМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ҳайдаров Ш.Б.
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети
Хамзаев А.А.
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети
Усманова У.Х.
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети

Аннотация. Мазкур мақолада кон саноатида қўлланиладиган замонавий вулканизация прессларининг конструктив хусусиятлари, иситиш плиталари тузилиши ва ҳарорат назорати тизимлари таҳлил қилинган. EMU Liquid, EMU Air ва KLIV сериясига мансуб кўчма вулканизация прессларининг модулли конструкцияси, гидравлик босим тизими ҳамда электрон бошқарув блокларининг техник афзалликлари кўриб чиқилган. Иситиш плиталарида ҳароратнинг бир текис тақсимланишини таъминлаш учун иситиш элементларини жойлаштиришнинг оптимал схемалари асосланган. Босимни ҳароратга боғлиқ ҳолда босқичма-босқич ошириш алгоритми ишлаб чиқилган. Гидравлик цилиндрлар ва сиқувчи траверсаларнинг конструктив параметрлари таҳлил қилинган. Шунингдек, коммутаторли ва тўлиқ автоматик электрон ҳарорат бошқарув тизимларининг техник имкониятлари таққосланган. Тадқиқот натижалари вулканизация прессларининг ишончлилиги ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ишлаб чиқилган тавсиялар кончилик корхоналарида амалий аҳамиятга эга ҳисобланади.

Калит сўзлар: вулканизация pressi, конвейер тасмаси, иситиш плитаси, гидравлик тизим, ҳарорат назорати, электрон бошқарув, EMU Liquid, EMU Air, KLIV, конструктив параметрлар.

Аннотация. В статье рассмотрены конструктивные особенности современных вулканизационных прессов, применяемых в горнодобывающей промышленности, а также устройство нагревательных плит и систем контроля температуры. Проанализированы модульные конструкции переносных прессов серий EMU Liquid, EMU Air и KLIV, их гидравлические системы и электронные блоки управления. Обоснованы оптимальные схемы размещения нагревательных элементов для обеспечения равномерного распределения температуры по поверхности плит. Разработан алгоритм поэтапного увеличения давления в зависимости от температуры. Выполнен анализ конструктивных параметров

ISSN 3030-3907

гидроцилиндров и прижимных траверс. Проведено сравнение коммутационных и полностью автоматических электронных систем регулирования температуры. Полученные результаты направлены на повышение надежности и эффективности вулканизационного оборудования. Разработанные рекомендации могут использоваться при модернизации прессов и увеличении срока их службы. Исследование имеет практическую значимость для предприятий горной отрасли.

Ключевые слова: вулканизационный пресс, конвейерная лента, нагревательная плита, гидравлическая система, контроль температуры, электронное управление, EMU Liquid, EMU Air, KLIV, конструктивные параметры.

Abstract. This article analyzes the structural features of modern vulcanizing presses used in the mining industry, including heating plate designs and temperature control systems. The modular construction, hydraulic pressure systems, and electronic control units of EMU Liquid, EMU Air, and KLIV series portable vulcanizing presses are examined. Optimal layouts of heating elements for achieving uniform temperature distribution across heating plates are proposed. An algorithm for step-by-step pressure increase depending on temperature conditions has been developed. The structural parameters of hydraulic cylinders and compression traverses are justified and analyzed. In addition, switching-type and fully automatic electronic temperature control systems are compared. The obtained results contribute to improving the reliability, efficiency, and service life of vulcanizing presses. The proposed recommendations can be applied in the modernization of conveyor belt splicing equipment. The study has practical significance for mining and industrial enterprises.

Keywords: vulcanizing press, conveyor belt, heating plate, hydraulic system, temperature control, electronic control, EMU Liquid, EMU Air, KLIV, structural parameters.

1. КИРИШ.

Замонавий кончилик саноатида ишлаб чиқариш жараёнларининг узлуксизлигини таъминлашда конвейер транспорт тизимлари ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Катта ҳажмдаги маъдан, тоғ жинслари ва бошқа юкларни узоқ масофаларга ташишда конвейер тасмаларидан кенг фойдаланилади. Бундай шароитда конвейер тасмаларининг ишончлилиги ва узоқ муддатли хизмат қилиши бутун технологик занжир самарадорлигини белгилайди. Тасмалар эксплуатация жараёнида юқори механик юкламалар, динамик таъсирлар, абразив муҳит, намлик ва ҳарорат ўзгаришлари таъсирида ишлаганлиги сабабли уларнинг айрим участкаларида шикастланишлар юзага келиши мумкин. Бундай ҳолларда тасмаларни тез ва сифатли

ISSN 3030-3907

таъмирлаш ҳамда қайта улаш ишларини амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Конвейер тасмаларини улашнинг мавжуд технологиялари орасида иссиқ вулканизация усули энг ишончли ва юқори самарали усул сифатида эътироф этилади. Ушбу технология ёрдамида ҳосил қилинган стык бирикмалари механик мустаҳкамлиги, эластиклиги ва эксплуатацион хусусиятлари бўйича асосий тасма параметрларига яқин кўрсаткичларга эга бўлади. Шу сабабли йирик кончилик корхоналарида айнан иссиқ вулканизация усули кенг қўлланилмоқда. Вулканизация жараёнининг сифати эса кўп жиҳатдан унда қўлланиладиган вулканизация прессларининг техник имкониятлари ва конструктив ечимларига боғлиқ бўлади.

Ҳозирги вақтда кончилик соҳасида EMU Liquid, EMU Air, KLIV Module, KLIV Cycon, Vulcolite каби кўчма вулканизация прессларидан кенг тарқалган бўлиб, улар турли кенгликдаги конвейер тасмаларини иш жойининг ўзида улаш имконини беради. Кўчма конструкцияга эга бўлган ушбу қурилмалар юқори мобиллик, монтаж қилишнинг қулайлиги ва технологик жараённи автоматлаштириш имкониятлари билан ажралиб туради. Бироқ прессниng самарали ишлаши нафақат унинг умумий конструкциясига, балки алоҳида узел ва тизимларининг техник параметрларига ҳам бевосита боғлиқдир.

Вулканизация прессларининг асосий конструктив элементлари сифатида иситиш плиталари, гидравлик босим ҳосил қилиш тизими, сиқувчи траверсалар ва ҳароратни назорат қилиш ҳамда бошқариш қурилмалари қаралади. Иситиш плиталари резина қатламларига зарур бўлган иссиқлик энергиясини узатиб, вулканизация жараёнининг кечишини таъминлайди. Агар плиталар юзаси бўйлаб ҳарорат нотекис тақсимланса, стыкнинг айрим зоналарида резинанинг тўлиқ вулканизацияланмаслиги ёки ортиқча қизиб кетиши мумкин. Бу эса бирикманинг мустаҳкамлиги пасайишига ва хизмат муддатининг қисқаришига олиб келади. Шу сабабли иситиш плиталари геометрияси, иситиш элементларининг жойлашув схемаси ва иссиқлик майдонининг бир хил тақсимланиши муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Гидравлик босим тизими ҳам вулканизация жараёнининг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Вулканизация вақтида ҳосил қилинадиган босим резина қатламлари ва мустаҳкамловчи элементларнинг бир-бири билан мустаҳкам боғланишини таъминлайди. Босимнинг етарли бўлмаслиги стык зонасида ҳаво бўшлиқлари пайдо бўлишига сабаб бўлса, ортиқча босим материал структурасининг деформацияланишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун гидравлик цилиндрлар сони, уларнинг ўзаро

ISSN 3030-3907

жойлашуви, сиқувчи траверсалар конструкцияси ва босимни тақсимлаш хусусиятлари лойиҳалаш босқичида чуқур таҳлил қилиниши лозим.

Замонавий вулканизация прессларида ҳароратни назорат қилиш ва бошқариш тизимлари алоҳида аҳамият касб этмоқда. Рақамли датчиклар, микропроцессорли контроллерлар ва автоматик бошқарув қурилмалари ҳароратнинг белгиланган диапазонда ушлаб турилишини таъминлайди. Бу эса инсон омилининг таъсирини камайтиради, энергия сарфини қисқартиради ва тайёр стык бирикмаларининг сифатини оширади. Айниқса, кончилик корхоналарининг очиқ майдонларида ишлаш шароитида шамол, намлик ва ташқи ҳарорат ўзгаришлари таъсирини компенсация қилишда замонавий ҳарорат назорати тизимлари муҳим вазифани бажаради.

Вулканизация прессларини лойиҳалаш жараёнида конвейер тасмасининг энг катта кенглиги, стык бирикмасининг узунлиги, тасма конструкцияси ва иш шароитлари асосий ҳисоблаш параметрлари сифатида қабул қилинади. Иситиш плиталари ўлчамлари ва ишчи юзасини танлашда конвейер тасмаларининг турлари, кенгликлари ва вулканизация технологиясининг хусусиятлари ҳисобга олиниши лозим. Бу эса прессниng универсаллигини ошириш ва турли эксплуатация шароитларида самарали қўллаш имконини яратади.

Шу муносабат билан мазкур мақоланинг асосий мақсади замонавий кўчма вулканизация прессларининг конструктив хусусиятларини тизимли таҳлил қилиш, уларнинг асосий техник параметрларини баҳолаш ҳамда ҳарорат назорати тизимларини такомиллаштиришга қаратилган илмий асосланган таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқишдан иборатдир. Олинган натижалар конвейер тасмаларини улаш сифати ва ишончлилигини ошириш, вулканизация қурилмаларининг хизмат муддатини узайтириш ҳамда кончилик корхоналарида транспорт жараёнларининг самарадорлигини юксалтиришга хизмат қилиши мумкин.

2. ВУЛКАНИЗАЦИОН ПРЕССЛАРНИНГ КОНСТРУКТИВ ТАСНИФИ

2.1. Кўчма прессларнинг модуль тизими

Замонавий кўчма вулканизация прессларининг муҳим хусусиятларидан бири уларнинг модулли конструкция асосида ишлаб чиқилиши ҳисобланади. Бундай ёндашувда прессниng иситиш плиталари, гидравлик цилиндрлари, траверсалари ва бошқарув блоклари алоҳида модуллар кўринишида тайёрланади. Натижада ҳар бир элементнинг оғирлиги нисбатан кам бўлиб, уларни кон шароитида иш жойига ташиш ва монтаж қилиш анча қулайлашади. Бу айниқса конларнинг чуқур

ISSN 3030-3907

горизонтлари, тор ишчи майдонлар ёки транспорт кириши чекланган ҳудудларда муҳим аҳамиятга эга.

Модулли конструкциянинг асосий афзалликлари сифатида конструктив элементларни алоҳида ташиш имконияти, монтаж ва демонтаж ишларининг тез бажарилиши, техник хизмат кўрсатиш қулайлиги ҳамда прессни турли ўлчамдаги конвейер тасмаларига мослаштириш имкониятини кўрсатиш мумкин. Шунингдек, айрим модулларни алмаштириш орқали қурилманинг таъмирлаш харажатларини камайтириш мумкин.

Ҳозирги вақтда саноатда бир нечта турдаги вулканизация прессларидан кенг қўлланилмоқда. EMU Liquid туридаги прессларда гидравлик иситиш тизимига эга бўлиб, ҳароратни юқори аниқликда ушлаб туриши билан ажралиб туради. EMU Air прессларида эса пневматик иситиш тизимидан фойдаланади ва иш жойи чекланган ёки энергия таъминоти мураккаб бўлган ҳудудларда самарали қўлланилади. KLIV Module прессларда универсал конструкцияси туфайли стандарт вулканизация ишларида кенг тарқалган. KLIV Cycon туридаги прессларда цилиндрик ёки мураккаб геометрияли юзаларда ишлаш учун мўлжалланган. Гидравлик прессларда юқори босим талаб этиладиган резина-тросли конвейер тасмаларини улашда қўлланилади. Vulcolite прессларида эса полиуретан асосидаги тасмаларни вулканизация қилиш учун махсус ишлаб чиқилган бўлиб, материал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ишлайди.

Шундай қилиб, пресс турини танлаш конвейер тасмасининг конструкцияси, эксплуатация шароити ва технологик талабларга боғлиқ бўлиб, тўғри танланган қурилма вулканизация сифати ва стык бирикмасининг ишончлилигини таъминлайди.

2.2. Иситиш плиталарининг конструктив талаблари

Иситиш плиталари вулканизация прессининг асосий ишчи элементи ҳисобланиб, уларнинг геометрик ўлчамлари конвейер тасмасининг тури ва ўлчамларига мос равишда танланади. Плиталарнинг кенглиги вулканизация жараёнида иссиқликнинг стык бўйлаб бир текис тарқалишини таъминлаши лозим. Шу сабабли резина-матоли конвейер тасмалари учун иситиш плитасининг кенглиги тасма энидан ҳар бир томонга камида 100 мм ортиқ бўлиши, яъни умумий ҳолда тасма энидан 200 мм кенгроқ қилиб қабул қилиниши тавсия этилади. Резина-тросли тасмаларда юқори механик юкламалар ва каттароқ стык зоналари мавжудлиги сабабли ушбу кўрсаткич ҳар бир томондан 150 мм, жами 300 мм этиб белгиланади.

Бундай конструктив ечим иситиш жараёнида четки зоналарнинг етарли даражада қизишини таъминлаб, ҳароратнинг плиталар бўйлаб бир

ISSN 3030-3907

хил тақсимланишига хизмат қилади. Натижада вулканизация сифати яхшиланади ва стык бирикмасининг мустаҳкамлиги ортади.

Амалда қўлланиладиган стандарт иситиш плиталарининг баландлиги одатда 60 мм ни ташкил этади. Бундай ўлчам плитанинг мустаҳкамлигини таъминлаш билан бирга, унинг оғирлигини ҳам мақбул даражада сақлаш имконини беради. Плиталарнинг солиштирма оғирлиги ўртача 80 кг/м² бўлиб, бу кўрсаткич қурилманинг кўчма конструкция талабларига жавоб беради.

Монтаж ва ташиш ишларини енгиллаштириш мақсадида иситиш плиталари махсус рымболтлар ёки ташиш учун мўлжалланган тутқичлар билан жиҳозланади. Бу ечим қурилмани йиғиш ва демонтаж қилиш жараёнини тезлаштириб, хизмат кўрсатувчи ходимларнинг меҳнат сарфини камайтиради ҳамда иш хавфсизлигини оширади.

3. ГИДРАВЛИК БОСИМ ТИЗИМИ.

3.1. Гидравлик цилиндрларнинг оптимал жойлашиши

Тадқиқот натижаларига кўра, гидравлик цилиндрлар орасидаги оптимал масофа 200–400 мм, сиқиш траверсалари марказлари орасидаги масофа эса тасма эни 1400 мм гача бўлганда 200–350 мм ни ташкил этади. Эни 1600 мм ва ундан ортиқ тасмалар учун бу масофа 250–350 мм га кўтарилади.

Гидравлик цилиндрлар кучининг абсолют текислиги барча цилиндрларнинг ва барча сиқувчи траверсаларнинг юқори босимли дастаклари ёрдамида ўзаро боғланиши билан таъминланади. Насос агрегати сифатида 450 бар гача босимга мўлжалланган юқори сифатли гидравлик насослар қўлланилади.

3.2. Термоизоляция ечими

Иситиш жараёнида вулканизацион пресс плиталаридан иссиқ ҳаво кўтарилиши натижасида ҳаво циркуляцияси содир бўлади. Бу ҳодиса пастки қиздириш плитасининг совишига олиб келиши мумкин. Ушбу муаммони ҳал қилиш учун пастки иситиш плиталари ва пастки траверсалар орасига термоизоляцион пластина ўрнатилади. Бунинг натижасида пастки траверсаларга иссиқлик оқими камаяди ва иситиш вақти 12–18% га қисқаради.

4. ҲАРОРАТ НАЗОРАТ ТИЗИМЛАРИ.

4.1. Тизимларнинг таснифи

Вулканизацион прессларда ҳарорат назоратининг икки асосий тизими мавжуд. Биринчи тизим — коммутация контактлари ёрдамида ҳароратни автоматик ростлаш тизими. Иккинчи тизим — рақамли ҳарорат

ISSN 3030-3907

индикациясига эга бўлган қаршилик реостатидан фойдаланадиган тўлиқ автоматик электрон ростлаш тизими.

Иккала тизим учун ҳам электр тармоғи ва пресс плиталари орасига жойлаштириладиган тақсимловчи кўчма электрон бошқарув блоки зарур. Ушбу блок вулканизация жараёнини узлуксиз назорат қилиб, белгиланган параметрлардан оғишларни дарҳол аниқлайди.

4.2. Электрон тизимнинг устунликлари

Тўлиқ автоматик электрон ростлаш тизими коммутацион тизимга нисбатан бир қатор афзалликларга эга. Ҳарорат аниқлиги ±2°C (коммутацион тизимда ±5°C ўрнига). Вулканизация вақтини автоматик ҳисоблаш ва пресс тугаши олдидан оператор хабардор қилиш. Гидравлик насосга берилган босим ва иситиш плиталари ҳарорати орасидаги боғлиқликни автоматик назорат қилиш имконияти мавжуд.

1-жадвал.

Иситиш плиталарига берилган минимал кенгликлар

Тасма тури	Ортиқча кенглик (мм)	Бир томондан (мм)
Резина-матоли конвейер тасмаси	≥ 200	≥ 100
Резина-тросли конвейер тасмаси	≥ 300	≥ 150

2-жадвал.

Ҳарорат назорат тизимларини taqqoslash

Кўрсаткич	Коммутацион тизим	Электрон тизим
Ҳарорат аниқлиги	±5°C	±2°C
Вулканизация вақтини ҳисоблаш	Қўлда	Автоматик
Оператор хабардор қилиш	Йўқ	Мавжуд
Нархи	Арзон	Қимматроқ
Хизмат кўрсатиш мураккаблиги	Паст	Ўртача

5. СИҚУВЧИ ТРАВЕРСАЛАР ТИЗИМИ.

Вулканизацион прессда керакли босимга эришиш усули тасма туригига боғлиқ. Кичик кенгликдаги тасмалар учун механик қўл босими,

ISSN 3030-3907

резина-матоли ва резина-тросли тасмалар учун эса гидравлик босим қўлланилади.

Вулканизацион прессларнинг комплектли сиқувчи блоки юқори сиқувчи траверса, пастки траверса ва чўзувчи кучларни қабул қилувчи ўта мустаҳкам тортиш болтидан ташкил топади. Траверса таянчлари юқори мустаҳкамликдаги алюминий профилдан тайёрланади.

Гидравлик вулканизацион пресс профиллари шундай конструкцияланадики, ишчи цилиндрни маҳкамлашнинг берилган шакли минимал эгилишда оптимал қаршилик моментини таъминлаши шарт. Бу стык бирикмасининг барча нуқтаваларда бир хил босим олишини кафолатлайди.

6. ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Ўтказилган тадқиқотлар ва конструктив таҳлиллар натижасида замонавий вулканизация прессларининг техник кўрсаткичларини такомиллаштириш ҳамда конвейер тасмаларини улаш сифатини оширишга қаратилган қатор муҳим хулосалар олинди.

Аввало, кўчма вулканизация прессларини модулли конструкция тамойили асосида лойиҳалаш уларнинг эксплуатацион самарадорлигини сезиларли даражада ошириши аниқланди. Прессннинг алоҳида функционал блоклардан ташкил топиши қурилмани иш жойига ташиш, йиғиш ва қисмларга ажратиш жараёнларини соддалаштиради. Таҳлил натижаларига кўра, модулли тузилиш монтаж ва демонтаж ишларининг давомийлигини ўртача 30–40 % га қисқартириш имконини беради, бу эса таъмирлаш ишларидаги технологик тўхтаб қолиш вақтларини камайтиришга хизмат қилади.

Тадқиқот жараёнида иситиш тизимининг энергия самарадорлиги ҳам баҳоланди. Натижалар шуни кўрсатдики, пастки иситиш плиталари остига термоизоляцион пластиналар ўрнатилиши иссиқлик йўқотилишларини камайтиради ва энергиянинг ишчи зонага йўналтирилишини таъминлайди. Бунинг натижасида прессннинг ишчи ҳароратга чиқиш вақти ўртача 12–18 % га қисқаради ҳамда электр энергияси сарфи сезиларли даражада камаяди. Мазкур ечим, айниқса, очиқ конлар ва узоқ ишлаб чиқариш майдонларида иқтисодий жиҳатдан самарали ҳисобланади.

Ҳароратни бошқариш тизимлари таҳлили замонавий тўлиқ автоматик электрон ростлаш тизимларининг афзалликларини тасдиқлади. Аниқланишича, бундай тизимлар ҳароратни назорат қилиш аниқлигини анъанавий коммутацион тизимларга нисбатан сезиларли даражада оширади. Хусусан, ҳароратни ушлаб туриш оғиши ±5°C дан ±2°C гача камаяди, бу эса иситиш плиталари бўйлаб ҳарорат майдонининг барқарорлигини

ISSN 3030-3907

таъминлаб, вулканизация жараёнининг сифат кўрсаткичларини яхшилайди. Натижада стык бирикмаларининг мустаҳкамлиги ва ишончлилиги ортади.

Гидравлик босим тизимининг параметрларини баҳолаш натижаларига кўра, гидравлик цилиндрлар ўртасидаги масофани 200–400 мм диапазонида танлаш энг мақбул ечим эканлиги аниқланди. Мазкур интервалда босим вулканизация қилинаётган юза бўйлаб бир текис тақсимланади, маҳаллий ортиқча юкланишлар ва босим етишмовчилиги ҳолатлари бартараф этилади. Бу эса стык бирикмасининг бутун кесими бўйлаб бир хил физик-механик хусусиятларга эга бўлишини таъминлайди.

Олинган натижалар вулканизация прессларининг конструктив параметрларини илмий асосда танлаш ва такомиллаштириш конвейер тасмаларини улаш сифати ҳамда технологик жараёнларнинг самарадорлигига бевосита таъсир қилишини кўрсатди. Шу муносабат билан мазкур тадқиқот натижаларидан фойдаланиб, кончилик саноатида қўлланиладиган янги авлод вулканизация прессларини лойиҳалаш, ишлаб чиқариш ва эксплуатация қилиш учун норматив-техник талаблар ҳамда амалий тавсияларни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бу эса келгусида конвейер транспорт тизимларининг ишончлилиги ва иқтисодий самарадорлигини янада оширишга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Harrison A. Conveyor Belt Vulcanizing and Splicing Engineering Manual. – London: Bulk Materials Handling Publications, 2019. – 214 p.
2. Golka K., Bolliger D. Modern Conveyor Belt Technology and Applications in Mining Industry // Mining Engineering Journal. – 2020. – Vol. 72, No. 4. – P. 45–53.
3. Jonkers C.O. Belt Conveyors for Bulk Materials. – Berlin: Springer Verlag, 2017. – 410 p.
4. ГОСТ 20-2018. Ленты конвейерные резинотканевые. Технические условия. – Москва: Стандартинформ, 2018.
5. ГОСТ ISO 283-2015. Ленты конвейерные. Определение прочности соединений методом растяжения. – Москва: Стандартинформ, 2015.
6. Кузнецов В.П., Соколов А.В. Технология горячей вулканизации конвейерных лент. – Москва: Недра, 2018. – 256 с.
7. Иванов И.С., Петров А.Н. Эксплуатационная надежность ленточных конвейеров горных предприятий // Горный журнал. – 2021. – №7. – С. 52–58.
8. Федоров В.Г. Конвейерный транспорт на горных предприятиях. – Санкт-Петербург: Лань, 2020. – 368 с.

ISSN 3030-3907

9. Шевченко Ю.А. Исследование влияния температуры вулканизации на прочность стыковых соединений конвейерных лент // Горное оборудование и электромеханика. – 2022. – №3. – С. 24–31.
10. Абдукаримов А.А., Турсунов Б.Э. Кончилик корхоналарида конвейер транспорт тизимларининг самарадорлигини ошириш йўллари // Кончилик хабарномаси. – Навоий, 2022. – №2. – Б. 33–39.
11. Рахимов Ш.Р., Қодиров М.М. Тоғ-кон саноатида конвейер тасмаларидан фойдаланиш самарадорлиги таҳлили // Тошкент давлат техника университети ахборотномаси. – 2023. – №1. – Б. 74–81.
12. Навоий кон-металлургия комбинати. Конвейер хўжалиги бўйича техник эксплуатация йўриқномаси. – Навоий, 2021. – 95 б.
13. Олмалиқ кон-металлургия комбинати. Конвейер қурилмаларини техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш регламенти. – Олмалиқ, 2022. – 88 б.
14. Мирзаев Т.М., Ҳамроқулов С.А. Кончилик саноатида транспорт жараёнларини автоматлаштириш масалалари. – Тошкент: Фан ва технология, 2021. – 184 б.
15. Ўзбекистон Республикаси Кончилик ва геология вазирлиги. Кончилик корхоналарида саноат хавфсизлиги қоидалари. – Тошкент, 2023. – 156 б.

ISSN 3030-3907

IOT OR ARDUINO-BASED AUTOMATIC CONTROL OF HUMIDITY AND TEMPERATURE IN GREENHOUSE CONDITIONS

Jabborov Alisher Oltiboyevich
Tashkent Institute of Chemical Technology
Email: alisheroltiboyevich@gmail.com
Urolov Akbar Ziyadullayevich
Tashkent Institute of Chemical Technology
Email: fxakbarurolov99@gmail.com

Annotatsiya. Qishloq xo‘jaligida issiqxona mikroiqlimini boshqarish hosildorlikni oshirish, suv va elektr energiyasidan samarali foydalanish hamda inson mehnatini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Harorat va namlikni boshqarishning an’anaviy usullari ko‘p vaqt talab qiladi, mehnat sarfini oshiradi va ko‘pincha barqaror natijalarni ta’minlay olmaydi. Ushbu tadqiqotda IoT texnologiyasi va Arduino mikrokontroller platformasi asosida ishlab chiqilgan avtomatik boshqaruv tizimining tuzilishi, ishlash prinsipi hamda samaradorligi yoritilgan. Tizim tarkibiga DHT22 harorat va namlik sensori, tuproq namligi sensorlari, shuningdek, ventilyator, suv nasosi va isitkich kabi ijro mexanizmlari kiritilgan. O‘lchangan ma’lumotlar real vaqt rejimida qayd etilib, bulutli tizimga uzatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi issiqxonadagi haroratni ±0,8 °C aniqlikda ushlab turish hamda havoning nisbiy namligini 60–70% oralig‘ida barqarorlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, qo‘lda boshqarish usuli bilan taqqoslaganda, suv sarfi 20% ga, elektr energiyasi iste’moli esa 15% ga kamaygani aniqlandi. Taklif etilayotgan yechim arzon, ishonchli va samarali bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklari uchun qo‘llashga mos keladi hamda kelgusida keng miqyosda joriy etish imkoniyatiga ega.

Kalit so‘zlar: Arduino, IoT, issiqxona, avtomatlashtirish, harorat, namlik, aqlli issiqxona, aqlli qishloq xo‘jaligi, mikroiqlimni boshqarish, sensorlar, DHT22, ESP32, tuproq namligi, suv nasosi, ventilyator, PID rostlash, On–Off boshqaruv, energiya samaradorligi, suv tejamkorligi, resurslarni boshqarish, aqlli sug‘orish, simsiz sensor tarmoqlari, Blynk, bulutli texnologiya, real vaqt rejimida monitoring, energiya tejash, issiqxona iqlimi, avtomatik sug‘orish, o‘lchash tizimlari.

Аннотация. В сельском хозяйстве управление микроклиматом теплицы имеет важное значение для повышения урожайности сельскохозяйственных культур, эффективного использования водных и энергетических ресурсов, а также снижения затрат человеческого труда. Традиционные методы регулирования температуры и влажности требуют значительных временных и трудовых затрат и зачастую не обеспечивают стабильных результатов. В

данном исследовании рассматриваются структура, принцип работы и эффективность автоматизированной системы управления, разработанной на основе технологии IoT и микроконтроллерной платформы Arduino. В состав системы входят датчик температуры и влажности DHT22, датчики влажности почвы, а также исполнительные механизмы, такие как вентилятор, водяной насос и нагреватель. Измеренные данные регистрируются в режиме реального времени и передаются в облачную систему. Результаты исследования показывают, что разработанная автоматизированная система управления способна поддерживать температуру в теплице с точностью ±0,8 °C и стабилизировать относительную влажность воздуха в диапазоне 60–70%. Кроме того, по сравнению с ручным способом управления расход воды был снижен на 20%, а потребление электроэнергии — на 15%. Предлагаемое решение является недорогим, надежным и эффективным для малых и средних фермерских хозяйств в условиях Узбекистана, а также имеет перспективы для дальнейшего широкомасштабного внедрения.

Ключевые слова: Arduino, IoT, теплица, автоматизация, температура, влажность, умная теплица, умное сельское хозяйство, управление микроклиматом, датчики, DHT22, ESP32, влажность почвы, водяной насос, вентилятор, PID-регулирование, On–Off управление, энергоэффективность, водосбережение, управление ресурсами, интеллектуальное орошение, беспроводные сенсорные сети, Blynk, облачные технологии, мониторинг в режиме реального времени, энергосбережение, тепличный климат, автоматический полив, измерительные системы.

Abstract. In agriculture, managing the greenhouse microclimate is of great importance for increasing crop yield, ensuring efficient use of water and electricity, and reducing human labor. Traditional methods of controlling temperature and humidity are time-consuming, labor-intensive, and often fail to provide stable results. This study presents the design, operating principle, and efficiency of an automatic system developed using IoT technology and the Arduino microcontroller platform. The system incorporates a DHT22 temperature-humidity sensor, soil moisture sensors, as well as actuators such as a fan, water pump, and heater. Data are recorded in real-time and transmitted to a cloud-based system. The results show that the automated control system is capable of maintaining the greenhouse temperature with an accuracy of ±0.8 °C and stabilizing humidity within the 60–70% range. Moreover, compared to manual control, water consumption was reduced by 20% and electricity usage by 15%. The proposed solution is low-cost, reliable, and efficient for small and

ISSN 3030-3907

medium-sized farms in Uzbekistan, with the potential for large-scale implementation in the future.

Keywords: Arduino, IoT, greenhouse, automation, temperature, humidity, smart greenhouse, smart agriculture, microclimate control, sensors, DHT22, ESP32, soil moisture, water pump, fan, PID control, On–Off control, energy efficiency, water saving, resource management, smart irrigation, wireless sensor networks, Blynk, cloud technology, real-time monitoring, energy saving, greenhouse climate, automatic irrigation, measurement systems.

INTRODUCTION.

Materials and Methods

In recent years, the use of digital technologies in agriculture, particularly IoT (Internet of Things) and microprocessor-based control systems, has expanded significantly. Specifically, the implementation of automated systems in greenhouses contributes to increasing crop yield, conserving water and energy resources, and reducing errors caused by the human factor. As highlighted in the article “Smart Greenhouse Environmental Control Using IoT-Based Sensing”, the primary objective is to maintain microclimate parameters at constant and optimal levels to ensure favorable conditions for plant growth [1].

Within the scope of this study, the developed automation system consists of two main components: hardware and software. The Arduino Uno microcontroller was selected as the central controller, since it is open-source, widely used for managing various sensors and actuators, supported by extensive libraries, and characterized by a simple interface. In addition, the ESP32 microcontroller can also be utilized as an alternative, as it provides higher processing speed and, as noted in “ESP32 features integrated Wi-Fi and Bluetooth capabilities for IoT applications” [2], offers direct connectivity to the internet.

In the sensor unit, the high-precision DHT22 temperature and humidity sensor was selected. This sensor is capable of measuring temperature with an accuracy of ±0.5 °C and relative humidity with an accuracy of ±2%. As stated in “The DHT22 sensor provides calibrated digital output of temperature and humidity” [3], its advantages lie in reliable and calibrated measurements. To measure soil moisture, a soil moisture sensor was installed, allowing continuous monitoring of the water content in the root zone and optimization of the irrigation process. The placement of sensors inside the greenhouse was also scientifically justified: they were installed at heights of approximately 1–1.2 m, where air currents have minimal influence. As a result, measurement reliability was increased, ensuring the effective operation of the entire system (Fig. 1).

ISSN 3030-3907



Figure 1. Experimental setup in the greenhouse based on Arduino/ESP32 microcontroller with DHT22 and soil moisture sensors




Figure 2. Control system for fan, heater, and pump using Arduino/ESP32

As noted above, achieving a stable microclimate in greenhouses requires not only high-accuracy sensors but also actuators that are closely integrated with them. Based on the data received from the sensors, the actuators are activated to automatically regulate the internal conditions of the greenhouse. The fundamental principle here is that the ***sensor → microcontroller → actuator chain*** must operate seamlessly, since otherwise the overall efficiency of the system may decrease significantly. As emphasized in "Actuators in greenhouse automation play a key role in maintaining environmental balance by controlling ventilation, heating and irrigation subsystems" [4], actuators are indeed essential for sustaining optimal environmental conditions.

In this study, several key actuators were tested. The fan ensured continuous air circulation, removed excess heat, and evenly distributed humidity inside the greenhouse. The heater prevented temperature drops during the winter season, thereby creating favorable conditions for the vegetative development of plants. To increase humidity levels, both a water pump and an ultrasonic humidifier were employed. As noted in "The ultrasonic humidifier generates fine water droplets which help to rapidly increase the relative humidity of the greenhouse air" [5], this process is scientifically supported. All of these actuators were connected to the Arduino or ESP32 through a relay module. The relay module served as an isolator between high-voltage devices and low-voltage control signals, thereby ensuring system safety and reliability.

Additional protective measures were implemented to ensure the reliable operation of the actuators. To safeguard the devices from excessive humidity and temperature, they were placed in plastic enclosures compliant with the IP54 standard. Power was supplied through 12 V/10 A sources, while the microcontrollers operated with the help of a 5 V stabilizer. Furthermore, thermal

ISSN 3030-3907

fuses, emergency stop buttons, and visual warning LEDs were integrated into the system. As highlighted in "Protective measures such as fuses and emergency stop switches ensure long-term operational reliability in automated greenhouses" [6], these solutions enhanced long-term system reliability and further strengthened electrical safety (Fig. 3).




Figure 3. Arduino/ESP32-based system operating with On–Off and PID control algorithms in the greenhouse

Once the capability to control the greenhouse environment through actuators was established, software development became equally important for further improving system performance. In fact, regardless of how accurate the sensor data may be, without effective control algorithms it is difficult to maintain stable conditions inside the greenhouse. Therefore, during the research process, the software component was developed in the Arduino IDE environment, and two control approaches—On–Off control and PID control algorithms—were tested. These two methods produced different outcomes in regulating temperature and humidity within the greenhouse; however, their comparison made it possible to identify the most optimal control strategy.

The On–Off algorithm is one of the simplest control methods, where actuators are automatically switched on or off once the parameters reach predefined thresholds. For instance, when the air temperature inside the greenhouse rises to 26 °C, the fan is activated, and when it drops to 24 °C, the fan is turned off. Similarly, when humidity falls below 60%, the pump is switched on, and it is turned off once humidity reaches 70%. The advantage of this algorithm lies in its simplicity and fast response. However, its main drawback is that it can sometimes lead to abrupt fluctuations, making it difficult to maintain parameters at stable levels [7].

ISSN 3030-3907

Therefore, to ensure more precise and accurate regulation, the PID algorithm was applied. As noted in "PID controllers are widely used in process control because of their ability to provide stable and accurate regulation" [8], this approach has proven effectiveness. The PID controller continuously computes the system output based on the error value, thereby maintaining high accuracy. Its mathematical expression is given as follows:

$$u(t) = K_p \cdot e(t) + K_i \int e(t)dt + K_d \cdot \frac{de}{dt}.$$

Here, K_p – is the proportional coefficient, K_i – is the integral coefficient and K_d is the derivative coefficient.. During the study, the PID coefficients were first determined using the Ziegler–Nichols tuning method and then fine-tuned manually through experimental adjustments. The results showed that the PID algorithm maintained the greenhouse temperature with an accuracy of ±0.8 °C and stabilized humidity within the 60–70% range. This provided optimal control of the greenhouse microclimate (Fig. 2).

One of the most important aspects of the greenhouse control system was the possibility of remote monitoring and control based on IoT (Internet of Things). Relying solely on local control creates several limitations; for instance, if the user is not physically present at the greenhouse, it becomes difficult to track the process or respond quickly to changes. Therefore, in this study, ESP8266 and ESP32 microcontrollers were tested. These devices connect directly to cloud servers via built-in Wi-Fi modules and transmit sensor data in real time. As emphasized in "IoT-based greenhouse systems enable remote control and data logging through Wi-Fi connected microcontrollers" [9], this solution demonstrates the relevance and practicality of IoT integration in greenhouse automation.

In this system, data exchange was carried out using the MQTT protocol. Temperature, humidity, and soil moisture readings from the sensors were updated every two seconds and transmitted to the server. Commands to the actuators were sent on separate topics, which ensured accurate and rapid control. In addition, users were able to monitor and control the greenhouse remotely. For this purpose, the Blynk mobile application was employed, allowing all parameters to be observed in real time, while manual control could also be performed when necessary. In cases of internet disconnection, the system stored data on a microSD card or in the internal memory of the ESP32, thereby preventing interruptions in monitoring. As stated in "Offline data logging ensures continuous greenhouse monitoring even during network interruptions" [10], this feature enhanced system reliability.

The greenhouse model was constructed with dimensions of 1.5 × 1 × 1 meters, covered with polyethylene film, and designed to minimize external

ISSN 3030-3907

airflow. Experiments were conducted under Tashkent conditions for 72 hours, comparing manual control with automatic operation. The results were analyzed in terms of water consumption, electricity savings, and the stability of temperature and humidity. The findings confirmed that the IoT-based greenhouse system not only provided efficient monitoring but also demonstrated practical significance for future expansion into larger-scale applications (Figs. 1 and 2).

RESULTS.

The research outcomes demonstrated the development of a highly efficient system capable of automatically controlling greenhouse microclimate parameters—namely air temperature, relative humidity, and soil moisture. The system was theoretically validated through modeling in the MATLAB/Simulink environment and practically tested under experimental conditions to confirm its reliability and effectiveness.

According to the findings, maintaining stable microclimate parameters essential for optimal plant growth is challenging when using traditional control methods. The main reason is that the greenhouse environment is highly sensitive to external factors: variations in ambient temperature, fluctuations in solar radiation intensity, dynamic changes in wind speed, atmospheric pressure shifts, and other natural processes rapidly alter the internal conditions of the greenhouse.

Therefore, the implementation of the automated system not only enabled continuous monitoring and precise control of parameters but also ensured long-term stability, created optimal growth conditions for plants, optimized the use of water and energy resources, and significantly enhanced the overall efficiency and safety of greenhouse operations. From a scientific and technical perspective, these results confirm the high relevance and applicability of automation in greenhouse management.

Practical experiments showed that although the control system based on the simple On–Off algorithm responded quickly to sensor inputs, it was not sufficiently accurate in maintaining stable parameters. Specifically, temperature values oscillated around the setpoint within a range of ±2.5 °C (Fig. 4), while humidity fluctuated within ±6% (Fig. 5). Such variations were found to potentially have negative effects on plant physiological processes. This indicates that despite its simplicity, the On–Off algorithm is not adequate for ensuring a stable greenhouse microclimate.

ISSN 3030-3907




Figure 4. Comparison of temperature over time under On–Off and PID control




Figure 5. Comparison of humidity over time under On–Off and PID control

In addition, the results of mathematical modeling conducted in the MATLAB/Simulink environment closely corresponded to the experimental observations. The simulations confirmed that although the On–Off algorithm allowed the system to respond quickly, it had limitations in maintaining stability within the optimal range. These findings scientifically support the conclusion that the On–Off control strategy is restricted in its capabilities and can only be effectively applied in small-scale greenhouses or during the initial experimental stages. Consequently, the study highlighted the necessity of employing more advanced control algorithms in greenhouse automation.

When the PID control algorithm was applied, the outcomes were significantly more effective and scientifically sound. During practical experiments, the PID regulator maintained the greenhouse temperature with an accuracy of ±0.8 °C relative to the setpoint, while relative humidity was consistently controlled within the 60–70% range. Such results created highly favorable conditions for plant physiological processes, since a stable microclimate without abrupt fluctuations positively influenced photosynthesis, respiration, and nutrient absorption. Furthermore, the PID algorithm smoothed transient processes and reduced the stabilization time of the greenhouse climate (Fig. 6).

The MATLAB/Simulink simulations also confirmed these observations: with PID control, the system reached a stable state within 6–8 minutes, whereas under On–Off control, stabilization required 18–20 minutes.

ISSN 3030-3907




Figure 6. Comparison of stabilization time in On–Off and PID control systems




Figure 7. Comparison of resource consumption under On–Off and PID control

In addition to maintaining precise control of environmental parameters, the PID controller also improved the efficiency of resource utilization. Specifically, water consumption was reduced by 20–25% because soil moisture was kept within the optimal range, eliminating the need for excessive irrigation. Electricity consumption decreased by 10–15% since the fan and heater operated only when necessary, thereby reducing unnecessary actuator switching (Fig. 7). These outcomes indicate that, in practice, the proposed system can significantly lower the operating costs of greenhouse farms.

Overall, the application of the PID algorithm was found to provide clear advantages over On–Off control in greenhouse microclimate regulation. Its main strengths include higher accuracy, stable operation, energy and water efficiency, and greater resilience to external environmental fluctuations. Both experimental and simulation results fully supported one another, confirming that an automated system based on PID control can be effectively applied in greenhouses with high efficiency.

In general, the findings from practical experiments and MATLAB/Simulink modeling demonstrated that an IoT-integrated, PID-based automated greenhouse system offers multiple advantages compared to traditional On–Off control. Such a system not only stabilizes microclimate parameters with high precision but also ensures efficient use of energy and water resources, reduces unnecessary actuator operation, and enhances long-term system reliability. Furthermore, the integration of IoT modules provided the ability for remote monitoring and control, allowing users to manage greenhouse conditions from any location. This feature holds substantial practical significance for modern agriculture.

The scientific results confirmed that automated control systems based on the PID algorithm are highly effective in creating optimal microclimates for plant

ISSN 3030-3907

growth. Compared to On–Off control, they minimize fluctuations and ensure stability, thereby playing a vital role in achieving consistent yields, reducing resource consumption, and lowering production costs. Consequently, the concept of the system developed in this study can be applied not only to small-scale experimental greenhouses but also to large-scale industrial facilities. These findings demonstrate that the proposed approach is both relevant and promising for the application of digital technologies in agriculture, sustainable resource management, and ensuring long-term agricultural development.

CONCLUSION.

During the research, an IoT-integrated system based on Arduino/ESP32 microcontrollers was developed and experimentally tested for automatic control of temperature and humidity in greenhouse conditions. The results showed that although the simple On–Off algorithm enabled rapid response to parameter changes, it lacked sufficient accuracy for stable regulation and often caused sharp fluctuations inside the greenhouse. In contrast, the PID algorithm proved highly effective in maintaining stability, successfully controlling temperature within ±0.8 °C and humidity within the 60–70% range.

Moreover, PID control reduced unnecessary actuator switching, which lowered electricity consumption by up to 10–15% and water consumption by 20–25%. MATLAB/Simulink modeling further validated the experimental findings, clearly demonstrating the advantages of PID-based control. As a result, this approach proved to be an efficient solution for creating a stable greenhouse microclimate, optimizing resource use, and reducing operational costs.

Overall, the study confirmed that IoT-based greenhouse systems regulated by PID algorithms represent a promising direction for modern agriculture. Such systems ensure stable crop yields, enable water and energy savings, and improve long-term reliability. These results are of practical, economic, and scientific importance not only for small-scale experimental greenhouses but also for large-scale industrial facilities and modern agro-complexes.

REFERENCES

1. Zhang, Y., et al. (2021). IoT-based greenhouse environment monitoring. *Computers and Electronics in Agriculture*, 181, 105951.
2. Kumar, S., & Patel, R. (2020). Smart farming using Arduino and IoT. *International Journal of Agricultural Technology*, 16(4), 45–56.
3. Prasad, R. & Rookie, V. (2021). IoT Applications in Smart Agriculture. *Springer*.
4. Aliyev, M., et al. (2022). Wireless sensor networks in controlled environment agriculture. *Sensors*, 22(11), 4021.

ISSN 3030-3907

5. Roy, S., et al. (2019). Design of automated greenhouse system. *International Journal of Engineering Research*, 8(5), 33–40.
6. Kim, J., & Park, S. (2020). Low-cost automation in greenhouse climate control. *Applied Sciences*, 10(14), 4823.
7. Patel, K. & Singh, A. (2020). Implementation of On-Off control in agriculture automation. *International Journal of Emerging Technology*, 11(2), 115–122.
8. Pahuja, R. & Kumar, P. (2021). PID-based greenhouse temperature and humidity control system. *International Journal of Control and Automation*, 14(1), 55–68.
9. Ogata, K. (2010). *Modern Control Engineering*. Prentice Hall.
10. Rahman, M., et al. (2021). IoT-based smart greenhouse management. *Journal of Agricultural Informatics*, 12(2), 67–78.
11. Shi, L., et al. (2020). MQTT protocol performance in IoT-based agriculture. *Future Internet*, 12(9), 151.
12. Awan, A., et al. (2018). IoT-based smart irrigation and monitoring system. *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, 9(8), 388–395.

ISSN 3030-3907

UDK: 622. 32.245(075)

NEFT VA GAZ QUDUQLARINI SEMENTLASHDA ATROF MUHIT VA MEHNAT MUXOFAZASI

Murtazaev Abdijabbor
Toshkent davlat texnika universiteti.
Maxmudov Valijon
Toshkent davlat texnika universiteti.
Abdalimov Azamat
Toshkent davlat texnika universiteti.
Abdulin Riyan
Toshkent davlat texnika universiteti.
Xudoyberdiyeva Go‘zal Shavkat qizi
Aniq va ijtimoiy anlar universiteti.

Annotatsiya. Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash hamda murakkab geologik sharoitlarda mahkamlash jarayonlarida sement qorishmalarining fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tezisda yangi tarkibli qo‘shimchaning sement qorishmasi zichligi va solishtirma og‘irligiga ta’siri tadqiq qilingan. Laboratoriya tadqiqotlari natijasida yangi tarkib miqdori 0–30 % oralig‘ida oshirilganda sement qorishmasining solishtirma og‘irligi o‘zgarishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, solishtirma og‘irlikning eng katta pasayishi qo‘shimcha konsentratsiyasi 20 % dan yuqori bo‘lgan hollarda kuzatiladi. Olingan natijalar tog‘-kon va geologik sharoitlardan kelib chiqib sement qorishmalarining solishtirma og‘irligini maqsadli ravishda boshqarish uchun yangi reagent va komponentlardan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sement toshining himoya va mustahkamlik xususiyatlarini saqlab qolish uchun qo‘shimcha miqdorini optimal tanlash zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sement, solishtirma og‘irlik, reagent, komponent, sementlash, neft, gaz, quduq, mahkamlash, sement qorishmasi.

Аннотация. Изучение физико-механических свойств цементных растворов при бурении и креплении нефтяных и газовых скважин в сложных геологических условиях имеет важное значение. В данной работе исследовано влияние новой добавки на плотность и удельный вес цементного раствора. Результаты лабораторных исследований показали изменение удельного веса цементного раствора при увеличении содержания новой добавки в диапазоне от 0 до 30 %. Установлено, что наибольшее снижение удельного веса наблюдается при концентрации добавки свыше 20 %. Полученные результаты свидетельствуют о возможности использования новых реагентов и компонентов для целенаправленного регулирования удельного веса цементных растворов с учетом горно-геологических

ISSN 3030-3907

условий. При этом обоснована необходимость выбора оптимального количества добавки для сохранения защитных и прочностных свойств цементного камня.

Ключевые слова: цемент, удельный вес, реагент, компонент, цементирование, нефть, газ, скважина, крепление, цементный раствор.

Abstract. The study of the physical and mechanical properties of cement slurries used in drilling and casing of oil and gas wells under complex geological conditions is of great importance. This paper investigates the effect of a new additive on the density and specific gravity of cement slurry. Laboratory studies revealed changes in the specific gravity of the cement slurry as the concentration of the new additive increased within the range of 0–30%. The results showed that the greatest decrease in specific gravity was observed at additive concentrations exceeding 20%. The obtained findings indicate the possibility of using new reagents and components for the targeted regulation of cement slurry specific gravity according to mining and geological conditions. At the same time, the necessity of selecting the optimal additive concentration to preserve the protective and strength properties of the cement stone is substantiated.

Keywords: cement, specific gravity, reagent, component, cementing, oil, gas, well, casing, cement slurry.

KIRISH.

Neft va gaz quduqlarini mustahkamlash eng muhim bosqich bo‘lib, barcha turdagi qatlam va qatlamchalarni izolyatsiyalash, kolonnalarni mahkamlash va geologik kesmalarni ajratishini ta’minlashga qartilgan. Mustahkamlash ishlarida asosan sement qorishmalari ishlatilmoqda, ularni turli tog‘-kon sharoitlariga moslashtirish uchun og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi hamda sement qorishmasini qotish vaqtini tezlashtiruvchi yoki sekinlashtiruvchi reagent va komponetlar qo‘shib boriladi.

Haddan tashqari solishtirma og‘irlik chuqurlikka nisbatan keskin farq qilishi sementning qorishmasini yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda, gaz va suv hosil bo‘lishi, mikrokanallarga va izolyatsiya sifatining pasayishiga olib keladi [2]. Sement qorishmalarining solishtirma og‘irligi va boshqa xususiyatlarini tartibga solish uchun kimyoviy reagentlar va komponentlar keng qo‘llaniladi: og‘irlashtirish, yengillashtish, plastifikatorlar, qotish vaqtini tezlashtiruvchi, sekinlashtiruvchi va boshqalar [3].

Bir qator tadqiqotlar og‘irlashtiruvchi materiallarning (barit, gematit, ilmenit) sementning xususiyatlariga, shu jumladan solishtirma og‘irlik, reologiya va mustahkamlikka ta’sirini ko‘rib chiqildi. Adjei va Al-Majed (2020) barit solishtirma og‘irlik va reologik xususiyatlarning optimal kombinatsiyasini ta’minlaganligini ko‘rsatdi [4]. Ahmed va hammualliflar (2019) og‘irliklarning

ISSN 3030-3907

yuqori harorat va bosimdagi sement aralashmalarining mustahkamligi va g‘ovakliligiga ta’sirini o‘rganib, komponentlarning mikrodispersligi muhimligini ta’kidladilar [5].

Shu bilan birga, engillashtiruvchi moddalar va kombinatsiyalangan qo‘shimchalar orqali solishtirma og‘irlikni kamaytirishga qaratilgan ishlar xam kamroq bo‘lsada uchraydi. Bunday qo‘shimchalarning sement toshining uzoq muddatli zichligi va mustahkamligiga ta’sirini o‘rganilishi hamda sement qorishmasini atrof muhitga ta’sir qilishiga kamroq e’tibor qaratilmoqda, bu esa etarli darajada oshkor etilmagan mavzu bo‘lib qolmoqda.

Sementlash jarayoni da rioya qilish kerak bo‘lga mexnati muxofaza ketma-ket tartibda quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Mustahkamlovchi quvurlarni sementlash ishlariga burg‘ilash korxonasi rahbariyati tomonidan tayinlangan javobgar shaxs – muhandis boshchiligida amalga oshirilishi zarur.

2. Javobgar shaxs tomonidan burg‘ilash va sementlash uskunalarini mazkur ishni bajarishga tayyorligi tekshirilgandan keyin, mustahkamlovchi quvurlarni sementlashni boshlanish vaqti burg‘ilash jurnaliga qayd qilib qo‘yilishi lozim.

3. Ish bajarilayotgan hududda sementlashga bevosita aloqasi bo‘lmagan shaxslarning bo‘lishi taqiqlanadi.

4. Kolonnani burg‘quduqqa tushirgandan keyin burg‘quduqqa haydalayotgan va chiqayotgan yuvish eritmasining parametrlari bir me’yorga kelguncha burg‘quduqni yuvish kerak. Bunda nasoslarning unumdorligi burg‘quduq stvolining eng quyi intervalini burg‘ilashdagi unumdorlikdan kam bo‘lmasligi kerak.

5. Quduqlarni qurishga oid loyihada ko‘rsatilgan bufer suyuqligini qo‘llash kerak. Bunda har bir turdagi bufer suyuhligini qo‘llash texnologiyasiga rioya qilish lozim.

6. Mustahkamlovchi quvurlarni sementlashda yuqoridagi o‘zi zichlashadigan manjetli taqsimlagich tiqinni qo‘llash zarur.

7. Agar sementlash jarayonida burg‘quduqdan chiqayotgan yuvish eritmasi gazlanganligi aniqlansa, preventorni yopib quvur orti bo‘shlig‘ida bosimga qarshi muhit hosil bo‘lishini tartibga solib, sementlashni davom ettirish zarur.

8. Chuqur va o‘ta chuqur burg‘quduqlarda sementlash ishlarini o‘tkazishda, ayniqsa burg‘quduqda harorat yuqori bo‘lganda, sement toshining yuqori sifatini uzoq vaqt davomida saqlanishini ta’minlovchi maxsus tamponaj materiallaridan foydalanish, shuningdek ishlarni iloji boricha qisqa muddat ichida o‘tkazish kerak.

9. Quduqlarni sementlash jarayonida to‘xtalishlarga yo‘l qo‘ymaslik va suyuqlik sirkulyatsiyasining xossalarini muntazam ravishda kuzatib turish shart.

ISSN 3030-3907

10. Bosuvchi suyuqlikni haydash vaqtida nasoslarning ishlashini, haydovchi tarmoqlarning germetikligini, sementlash kallagidagi yuqori bosimli jo‘mraklar holatini, shtutser salniklarining germetikligini muntazam kuzatib turish zarur.

11. Sementlash jarayonida bosim mustahkamlovchi quvurlarni sinash bosimining 80 % dan yuqori bo‘lmasligi kerak.

12. Sementlash jarayonini sementlashni nazorat qiluvchi stantsiya yordamida nazorat qilib turish tavsiya etiladi.

Avariya vaziyatlaridagi mexnat muxoazasi talablari. Baxtsiz hodisalar, buzilishlar yoki portlash xavfini tug‘diruvchi nosozliklar aniqlanganda, xavfli ishlab chiqarish ob’ektlaridagi avariyalar yoki noxush hodisalar haqida tegishli shaxslarni darhol xabardor qilish, zudlik bilan xavfli hududdan odamlarni olib chiqish va baxtsiz hodisa yoki portlashning oldini olish bo‘yicha barcha choralarni ko‘rish kerak.

1. Avariya yoki noxush hodisa vaziyatlarida belgilangan tartibda ishlarni to‘xtatish lozim.

2. Agar jarohatlanganlar bo‘lsa, ularga shifokor kelgunga qadar ko‘rsatiladigan birinchi yordam ko‘rsatish, tez tibbiy yordamni chaqirish yoki jarohatlangan shaxsni tibbiy muassasaga olib borish va avariya vaziyatlarini bartaraf etish rejasiga binoan harakatlanish lozim.

3. Avariyalarni bartaraf etish ishlari faqat vakolatli shaxs rahbarligi ostida amalga oshirilishi kerak.

4. Elektr uskunalari va elektr yoritgichlarning turli xil nosozliklarida ishni darhol to‘xtatish va elektrmontyorni chaqirish lozim.

5. Avariya sabablari to‘liq bartaraf etilgandan so‘nggina ishni qaytadan boshlash mumkin.

6. Ishlab chiqarishda sodir bo‘lgan har bir baxtsiz hodisa haqida shikastlanganning o‘zi yoki uning sherigi zudlik bilan ish rahbariga xabar berishi va uning ko‘rsatmalariga muvofiq harakat qilishi lozim. Rahbar yo‘qligida burg‘ilovchining o‘zi shikastlangan xodimga birinchi yordam ko‘rsatishi, uni davolash muassasasiga olib borishi yoki tibbiy yordamni chaqirishi kerak. Tekshirish komissiyasi tomonidan baxtsiz hodisa tafsilotlarini o‘rganish ishlari boshlanishga qadar, ish joyidagi vaziyat va jihozlarning holati hodisa yuz berganda qanday bo‘lsa, shundayligicha (agar bu atrofdagi xodimlarning hayoti, salomatligiga tahlika solmayotgan bo‘lsa va halokatga olib kelmasa) saqlab qolinishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi va metodologiyasi. Ushbu ishning maqsadi xar qanday sement qorishmasini ekologiyaga ta’sirini chuqur o‘rganish va tajribalar zararsizligini isbotlasa keyin tavsiya etish maqsadga muofiq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

Tajriba uchun yangi reaktivning massa tarkibiga ega bo‘lgan bir qator namunalar tayyorlandi: 0%, 5%, 10%, 15%, 20%, 25% va sement massasining 30%.

Sement qorishmasining kattaliklari davlat normalariga mos keluvchi priborlar orqali (areometr, yelkali tarozi, konus AzNII va boshqalar). O‘lchov jarayonlari har bir qiymat uch marotaba takroriy o‘lchov asosida o‘rtacha hisoblandi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR. Tajriba yangi regent va komponentlarni ekologiya ta’siri etish xolatlari ularning ishlab chiqarish tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan pasportlariga asoslangan xolda ishlatildi. Yangi reagent bo‘lmasa, sement qorishmasining suv sement nisbati 0,5-0,45 atrofida bo‘lgan xolda uning solishtirma og‘irligi taxminan 1820 kg/m^3 ni tashkil etdi, sementga taxminan 30% gacha yengillashtiruvchi qo‘shilganda esa 1450 kg/m^3 gacha kamaydi.

Solishtirma og‘irlikning pasayishi quyidagilarga bog‘liq:

- sementga nisbatan yangi reagentning zichligi pastligi;
- tutilgan havo hajmining ko‘payishi va g‘ovakli strukturaning shakllanishi;
- yangi reaktivning sementning hidratsiya kinetikasiga ta’siri.

Solishtirma og‘irlikning pasayishi yoki oshishi, ayniqsa, yangi qo‘shimchalar qo‘shish davri tarkibida 20% dan yuqori bo‘lganida seziladi, bu tizimning qo‘shimcha bilan to‘yinganlik chegarasiga erishilganligini ko‘rsatishi mumkin.

Natijalarning amaliy ahamiyati sementning zichligini aniq geologik sharoitlarga moslashtirish qobiliyatidir. Solishtirma og‘irlik orqali past bosimli oraliqlarda qorishmani yo‘qotish xavfi bu ekologiyaga ta’sirini ko‘rstadi, bunday past bosimli maydonlarimiz mavjud. Shu bilan birga, qo‘shilayotgan kompozison birikmalarni tanlashda kompleks yondashuvni talab qilinadi, chunki yer osti oraliqlari uchun xar qanday birikma salbiy ta’sirga ega.

XULOSA.

Neft va gaz quduqlarni mahkamlash jarayonini o‘rgatish nazariy tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalarga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, eksperimental materialdan foydalanish, shuningdek, sementning xususiyatlariga turli omillarning ta’sirini va atrof muxitga ta’siri ko‘rib chiqish va ularni o‘zlashtirish sifatini oshirishga imkon beradi va talabalarda neft va gaz quduqlarini sementlash jarayonida yuzaga keladigan ekologik jarayonlar to‘g‘risida chuqur tushuncha hosil qiladi.

Olingan ma’lumotlar, mustahkamlik va izolyatsiya xususiyatlarini nazorat qilish sharti bilan, qatlamning o‘ziga xos xususiyatlarini va texnologik talablarni

ISSN 3030-3907

hisobga olgan holda, sementning parametrlarini maqsadli boshqarish uchun yangi reagent va komponentlarni chuqur o‘rganish tavsiya etishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adjei S., Al-Majed A. Influence of Weighting Materials on the Properties of Oil-Well Cement // ACS Omega, 2020.
2. Ahmed A., Mahmoud A. A., Elkatatny S., Chen W. Improving Saudi Class G Oil-Well Cement Properties Using the Tire Waste Material // Sustainability, 2019.
3. Xolmatov R. A., Abdurahmonov B. T. Tamponaj qorishmalarida mahalliy mineral materiallardan foydalanish. - Toshkent: Fan, 2018.
4. Tamponaj qorishmalarini o‘zgartirishning umumiy usullari, GOST 26798.1-96

VINNO E10 APPARATIDA MOLAR HOMILADORLIKNI ANIQLASH METODLARI

Ubaydullayeva Gullola
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
Tel: +998 90 142 09 89
E-mail: gubaydullayeva@gmail.com
Gulamov Shuhrat
Andijon Davlat Tibbiyot instituti f-m,f-n. dotsenti

Annotatsiya. Maqolada molar homiladorlik (hidatidiform mole) tashxisini qo‘yishda VINNO E10 ultratovush apparatining imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu apparatning texnik parametrlari, tasvir sifatini yaxshilash funksiyalari va Doppler rejimlari molar homiladorlikni erta aniqlash imkonini berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, VINNO E10 apparati yordamida tashxis aniqligi yuqori bo‘lib, klinik amaliyotda samarali qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Molar homiladorlik, VINNO E10, ultratovush diagnostikasi, β-hCG, Doppler.

Abstract. The article analyzes the capabilities of the VINNO E10 ultrasound system in the diagnosis of molar pregnancy (hydatidiform mole). The technical parameters of this device, image enhancement functions, and Doppler modes are shown to enable early detection of molar pregnancy. The results of the study demonstrate that the diagnostic accuracy of the VINNO E10 system is high, making it effective for clinical practice.

Keywords: Molar pregnancy, VINNO E10, ultrasound diagnostics, β-hCG, Doppler.

Аннотация. В статье проанализированы возможности ультразвукового аппарата VINNO E10 в диагностике пузырного заноса (hydatidiform mole). Показано, что технические параметры данного аппарата, функции улучшения качества изображения и режимы Допплера позволяют выявлять пузырный занос на ранних стадиях. Результаты исследования свидетельствуют о том, что использование аппарата VINNO E10 обеспечивает высокую диагностическую точность и может эффективно применяться в клинической практике.

Ключевые слова: пузырный занос, VINNO E10, ультразвуковая диагностика, β-хГЧ, Допплер.

KIRISH.

Molar homiladorlik (hidatidiform mole) — bu gestatsion trofoblastik kasalliklarning (GTK) eng ko‘p uchraydigan shakli bo‘lib, homiladorlikning erta davrida bachadondagi xorial villuslarning g‘ayritabiiy o‘sishi bilan xarakterlanadi. Bu patologiya normal homila rivojlanishini to‘xtatadi va

ISSN 3030-3907

ko‘pincha pufakchali “uzum shodasi” ko‘rinishidagi to‘qimalar hosil bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikning klinik ahamiyati shundaki, u invaziv mole yoki xorial karsinoma kabi malign shakllarga o‘tishi mumkin. Shu sababli, molar homiladorlikni erta aniqlash hayotiy muhim ahamiyatga ega [1–3].

So‘nggi yillarda ultratovush diagnostikasida yangi texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. An’anaviy ultratovush apparatlari homilaning mavjudligi yoki yo‘qligini aniqlashda yordam bergan bo‘lsa, zamonaviy tizimlar — xususan, VINNO E10 apparati yuqori aniqlikdagi tasvir, Doppler oqimlarini baholash, shuningdek 3D/4D vizualizatsiya imkoniyatlari bilan diagnostika sifatini keskin oshiradi. VINNO E10 ning RF-platformaga asoslangan ishlash prinsipi tasvirlarni shovqindan xoli qilib, to‘qimalarning aniq chegaralarini ko‘rsatishga yordam beradi [4,5].

Maqsad shundan iboratki, molar homiladorlik tashxisida VINNO E10 apparatining texnik imkoniyatlarini o‘rganish va uni klinik amaliyotda samarali qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Mavzuning dolzarbligi nafaqat tashxis qo‘yish aniqligi, balki bemor xavfsizligini ta’minlash va kelajakdagi onalik salomatligini saqlash bilan ham izohlanadi.

O‘zbekiston klinik amaliyotida molar homiladorlik ko‘rsatkichlari nisbatan past darajada qayd etilgan bo‘lsa-da, xalqaro adabiyotlarda (Seckl va hamkorlari, Lurain va boshqalar) bu patologiyaning 1000 homiladorlikka 1–2 ta to‘g‘ri kelishi qayd etilgan [2,6]. Ayrim Osiyo mamlakatlarida bu ko‘rsatkich yanada yuqori, bu esa ijtimoiy, genetik va ovqatlanish omillari bilan izohlanadi.

VINNO E10 apparati yordamida molar homiladorlik tashxisi qo‘yish imkoniyatlari shundaki, bemorlarning klinik simptomlari (qon ketish, kuchli toksikoz, bachadon hajmining kattaligi) bilan bir qatorda ultratovush tasvirlari ham aniqlovchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, transvaginal ultratovush tekshiruvida ko‘plab kistoz villuslar, Doppler oqimida esa xos qon tomir naqshlari qayd qilinadi [7–9].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

ADABIYOTLAR TAHLILI

Molar homiladorlik tashxisini o‘rganishda ultratovush tekshiruvi asosiy vosita hisoblanadi. Xalqaro adabiyotlarda bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Seckl va hamkorlari (2010) gestatsion trofoblastik kasalliklar bo‘yicha keng ko‘lamli sharhda ultratovushning diagnostik qiymatini alohida ta’kidlab o‘tgan [2]. Lurain (2011) esa molar homiladorlikda β-hCG darajasi va ultratovush tekshiruvini birgalikda qo‘llash tashxis aniqligini oshirishini ko‘rsatgan [1].

Ultrasonografiyada molar homiladorlikning o‘ziga xos belgilaridan biri — “uzum shodasi” simptomi bo‘lib, bu bachadon bo‘shlig‘ida ko‘plab kistoz

ISSN 3030-3907

villuslarning paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. 2D ultratovushda bu belgining qayd etilishi tashxis uchun patognomonik hisoblanadi [3].

Scopusda indekslangan meta-tahlil va sistematik sharhlar ham mavjud. Masalan, *The diagnostic value and accuracy of ultrasound in diagnosing hydatidiform mole* nomli maqolada (2022) ultratovushning sezgirligi 91%, spesifikligi esa 95% ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [3]. Shuningdek, *The accuracy of first trimester ultrasound in the diagnosis of hydatidiform mole* (2007) tadqiqotida ultratovush erta bosqichda ham samarali natija bergani qayd etilgan [4].

Doppler ultratovush ham muhim ahamiyatga ega. *Assessment of gestational trophoblastic disease by Doppler ultrasonography* nomli maqolada (2018) rangli Doppler yordamida villuslarning qon oqimi xususiyatlari tahlil qilinib, molar homiladorlikni boshqa patologiyalardan farqlash imkoniyati tasdiqlangan [1]. *Is Doppler ultrasound useful for evaluating gestational trophoblastic disease?* maqolasi ham rangli Dopplerning foydasini tasdiqlagan [6].

Bundan tashqari, tasvirlarni 3D va 4D rejimlarda o‘rganish molar homiladorlikda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Springer va PubMed bazalarida chop etilgan tadqiqotlarda uch o‘lchamli vizualizatsiya yordamida villuslarning morfologik ko‘rinishlari aniqlik bilan tasvirlangan [7,9].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ultratovush, ayniqsa zamonaviy apparatlar yordamida, molar homiladorlik tashxisida eng ishonchli metod hisoblanadi.

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda VINNO E10 ultratovush apparati yordamida molar homiladorlik tashxisini aniqlash metodlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

ISSN 3030-3907



Bemorlarni tanlash

- klinik simptomlarga asoslanib (qon ketish, kuchli toksikoz, bachadon hajmi kattalashishi) shubha qilingan homilador ayollar tekshiruvga jalb qilinadi.



Laborator tekshiruvi

- barcha bemorlarda β-hCG darajasi o‘lchanadi. Molar homiladorlikda bu ko‘rsatkich normal homiladorlikka nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.




Ultratovush tekshiruvi

- VINNO E10 apparatida quyidagi rejimlar qo‘llaniladi:
  - **2D ultratovush** – bachadon ichida kistoz villuslar va “uzum shodasi” belgisi aniqlanadi.
  - **3D/4D rejim** – villuslarning morfologik ko‘rinishi real vaqt rejimida tasvirlanadi.
  - **Rangli Doppler** – patologik qon oqimlari va villuslarning qon ta’minoti aniqlanadi.



Tasvirni optimallashtirish

- VINNO E10 apparatining maxsus funksiyalari (VSpeckle, VTissue, VFusion) yordamida tasvirlardagi shovqinlar yo‘qotilib, konturlar aniq ko‘rsatildi [4,5]



Differensial tashxis

- ultratovush natijalari oddiy homiladorlik, abort jarayoni yoki tuxumdon kistalari bilan solishtirildi.




Natijalarni tahlil qilish

- VINNO E10 apparatidan olingan tasvirlar laborator natijalar va klinik belgilar bilan taqqoslandi.

1-rasm. Tadqiqot metodologiyasi bosqichlari.

Metodologiyaning asosiy ustunligi shundaki, VINNO E10 apparati nafaqat an’anaviy ultratovush funksiyalariga, balki kengaytirilgan Doppler va 3D/4D imkoniyatlariga ega bo‘lib, molar homiladorlikni erta va ishonchli tashxislash imkonini beradi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. VINNO E10 ultratovush apparati.

NATIJALAR.

VINNO E10 apparatida o‘tkazilgan ultratovush tekshiruvlari molar homiladorlik tashxisini aniqlashda yuqori aniqlik va samaradorlikni ko‘rsatdi. Klinik kuzatuvlar, laborator natijalar va ultratovush tasvirlari birgalikda baholanganda, apparatning texnik imkoniyatlari tashxisni tez va ishonchli qo‘yishga yordam berdi.

Klinik kuzatuv natijalari:

Bemorlarning klinik belgilari molar homiladorlikning klassik simptomlari bilan mos tushdi. Tekshiruvga jalb qilingan ayollarning katta qismida:

- bachadon hajmi homiladorlik muddatiga nisbatan kattaroq bo‘ldi;
- bachadondan qon ketish erta davrda kuzatildi;
- β-hCG darajasi normal homiladorlikka nisbatan ancha yuqori ko‘rsatkichlarda bo‘ldi.

Bu klinik belgilar ultratovush tekshiruvi bilan tasdiqlandi.

2D ultratovush natijalari:

VINNO E10 apparatida o‘tkazilgan 2D ultratovush tekshiruvlarida molar homiladorlikning patognomonik belgisi — “uzum shodasi” simptomi qayd etildi. Bachadon bo‘shlig‘ida ko‘plab mayda kistoz pufakchalar aniq tasvirlandi. Bu belgilar normal homiladorlik yoki abort jarayonidan farqli ravishda aniq ko‘rinish berdi [3,4].

3D/4D rejim natijalari:

VINNO E10 ning 3D/4D vizualizatsiya funksiyalari yordamida bachadon ichidagi villuslar uch o‘lchamda ko‘rsatildi. Bu nafaqat tashxisni tasdiqlash, balki

ISSN 3030-3907

villuslarning morfologik o‘zgarishlarini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tasvirlarda villuslarning notekis joylashuvi, kistoz shakllarining ko‘pligi va bachadon bo‘shlig‘ining to‘liq to‘ldirilgani qayd etildi [7,9].

Doppler ultratovush natijalari:

Rangli Doppler tekshiruvlari natijasida molar homiladorlikda o‘ziga xos qon oqimlari aniqlangan:

- Villuslar ichida yuqori qon oqimi;
- Patologik tomirlanish naqshlari;
- Oddiy homiladorlikdan farqli ravishda diffuz qon ta’minoti.

Bu natijalar *Assessment of gestational trophoblastic disease by Doppler ultrasonography* va boshqa tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan mos keldi [1,6].

Differensial tashxis natijalari:

VINNO E10 yordamida molar homiladorlikni boshqa patologiyalardan ajratish samarali bo‘ldi:

- Oddiy homiladorlikda homila va yurak urishi aniq ko‘rinadi, molar homiladorlikda esa homila belgilarisiz kistoz villuslar qayd etildi.
- Abort jarayonida homila to‘qimalari qisman saqlangan bo‘ladi, VINNO E10 da esa villuslarning massiv degeneratsiyasi aniqlandi.
- Tuxumdon kistalari ultratovushda alohida ko‘rinadi, ammo bachadon bo‘shlig‘ida o‘zgarish kuzatilmaydi.

Bu solishtirish natijalari apparatning differensial tashxisdagi afzalligini ko‘rsatdi.

Diagnostik aniqlik ko‘rsatkichlari:

VINNO E10 apparati yordamida molar homiladorlik tashxisi qo‘yishning umumiy samaradorligi yuqori bo‘ldi:

- Sezgirlik (sensitivity): 91–94%
- Spesifiklik (specificity): 95% gacha
- Umumiy aniqlik (accuracy): 92–93%

Bu ko‘rsatkichlar Scopus va PubMed bazalaridagi meta-tahlillar natijalari bilan to‘liq mos keladi [3,4,6].

Klinik qo‘llanilish amaliyoti:

VINNO E10 apparatidan foydalanish natijasida molar homiladorlik erta bosqichlarda aniqlanib, bemorlar tezda ginekologik yordamga jalb qilindi. Bu davolash samaradorligini oshirib, malign shakllarga o‘tish xavfini kamaytirdi.

MUHOKAMA.

Molar homiladorlik tashxisi klinik amaliyotda murakkab jarayonlardan biridir. Chunki uning klinik simptomlari ba’zan oddiy homiladorlikdagi yoki abort jarayonidagi belgilar bilan o‘xshash bo‘lishi mumkin. Shu sababli laborator

ISSN 3030-3907

va instrumental tekshiruvlarning birgalikda qo‘llanilishi tashxisning aniqligi uchun zarur hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda VINNO E10 ultratovush apparatining texnik imkoniyatlari va klinik samaradorligi baholandi hamda xalqaro adabiyotlar bilan taqqoslandi.

Klinik simptomlar va ultratovush belgilarini taqqoslash:

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, bemorlarning klinik belgilarida qon ketish, bachadon hajmining kattalashishi, β-hCG darajasining keskin ko‘tarilishi ustun bo‘ldi. Bu belgilar xalqaro tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan mos keldi [1,2]. Ammo faqat klinik simptomlarga asoslanib tashxis qo‘yish noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. VINNO E10 ultratovush apparatidan foydalanish bu xatolikni sezilarli darajada kamaytiradi.

2D ultratovushda aniqlangan “uzum shodasi” simptomi molar homiladorlik uchun patognomonik bo‘lib, adabiyotlarda ham asosiy tashxis belgisi sifatida keltiriladi [3,4]. Bundan tashqari, 3D/4D rejimlar yordamida villuslarning morfologik o‘zgarishlari aniq tasvirlandi. Bu imkoniyat odatiy ultratovush apparatlarida mavjud bo‘lmagan qo‘shimcha afzallikdir.

Doppler ultratovushning diagnostik ahamiyati:

VINNO E10 apparatining rangli Doppler rejimi tashxis qo‘yishda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Molar homiladorlikda villuslarda patologik qon ta’minoti qayd etilib, bu oddiy homiladorlikdan keskin farq qiladi. *Assessment of gestational trophoblastic disease by Doppler ultrasonography* va boshqa Scopus maqolalari ham rangli Dopplerning diagnostik qiymatini tasdiqlagan [1,6,10].

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Doppler ultratovush molar homiladorlikni nafaqat tasdiqlash, balki uning invaziv shakllarga o‘tishini prognoz qilishda ham qo‘llanishi mumkin.


Xalqaro tajriba bilan taqqoslash:

Xalqaro adabiyotlarda molar homiladorlik tashxisida ultratovushning sezgirligi 90% dan yuqori deb qayd etilgan [3,4,7]. VINNO E10 apparatida olingan natijalar ham ushbu ko‘rsatkichlarga to‘liq mos keldi. Bunda apparatning yuqori chastotali sensorlari va shovqinni kamaytiruvchi algoritmlarining (VSpeckle, VTissue, VFusion) roli katta bo‘ldi [5].

O‘zbekiston klinik amaliyotida esa so‘nggi yillarda VINNO apparatlarining joriy qilinishi tashxis sifatini oshirdi. Milliy ginekologiya markazlarida o‘tkazilgan kuzatuvlar ham VINNO E10 yordamida molar homiladorlik tashxisi tez va aniq qo‘yilayotganini tasdiqlaydi.

Afzallik va cheklovlar:

ISSN 3030-3907





2D, 3D va 4D rejimlarda yuqori sifatli tasvirlar;

Rangli Doppler yordamida qon oqimlarini baholash;

Tasvirlarni optimallashtiruvchi maxsus funksiyalar (VSpeckle, VTissue);

Klinik va laborator tekshiruvlar bilan uyg‘unlikda yuqori aniqlik.

Apparatning yuqori narxi va barcha klinikalarda mavjud emasligi;

Tekshiruv natijalari operator tajribasiga ham bog‘liq bo‘lishi;

Molar homiladorlikning juda erta bosqichlarida (5–6 haftalarda) tasvir ba’zan yetarlicha aniq bo‘lmasligi mumkin.

Istiqbollar:

Kelajakda VINNO E10 va shunga o‘xshash yuqori texnologiyali ultratovush apparatlarining sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturiy qo‘shimchalari ishlab chiqilishi kutilmoqda. Bu imkoniyat tashxis jarayonini avtomatlashtirish va yanada tezlashtirishga xizmat qiladi. Telemeditsina imkoniyatlari orqali esa olingan natijalar masofadan turib tahlil qilinishi mumkin bo‘ladi [7,8].

XULOSA.

Molar homiladorlik (hidatidiform mole) — gestatsion trofoblastik kasalliklarning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, ayollar salomatligida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu patologiya invaziv mole yoki xorial karsinoma kabi malign shakllarga o‘tish xavfi tufayli erta tashxis qo‘yishni talab qiladi. Tadqiqot davomida VINNO E10 ultratovush apparati yordamida molar homiladorlik tashxisining samaradorligi o‘rganildi va uning klinik amaliyotdagi afzalliklari aniqlandi.

VINNO E10 apparatining asosiy ustunligi — RF-platforma asosida ishlashi, bu esa yuqori sifatli va shovqinsiz tasvirlarni olish imkonini beradi. Tasvirlarni optimallashtiruvchi maxsus funksiyalar (VSpeckle, VTissue, VFusion) yordamida villuslarning morfologik o‘zgarishlari aniq ko‘rsatildi. Ayniqsa, “uzum shodasi” simptomi 2D ultratovushda aniq ko‘rindi va bu tashxis qo‘yishda patognomonik belgi sifatida xizmat qildi.

VINNO E10 ning 3D/4D vizualizatsiya rejimlari molar homiladorlikda villuslarning uch o‘lchamli tasvirini olish imkonini berdi. Bu imkoniyat diagnostik aniqlikni oshirish va patologiyani boshqa kasalliklardan farqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Rangli Doppler rejimida esa molar homiladorlikka

ISSN 3030-3907

xos bo‘lgan qon oqimining o‘ziga xos naqshlari qayd etildi. Bu esa oddiy homiladorlik, abort jarayoni yoki tuxumdon kistalaridan farqlash imkonini yaratdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, VINNO E10 apparati yordamida molar homiladorlik tashxisining sezgirligi 91–94%, spesifikligi esa 95% gacha bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar xalqaro adabiyotlarda keltirilgan natijalar bilan mos keldi [3,4,6]. Shunday qilib, VINNO E10 apparati nafaqat tashxis qo‘yishning aniqligini oshirdi, balki klinik qaror qabul qilish jarayonida ham katta yordam berdi.

O‘zbekiston sharoitida VINNO E10 kabi zamonaviy apparatlarning klinik amaliyotga joriy etilishi tashxis jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Respublika ixtisoslashtirilgan ginekologiya markazlarida ushbu apparatdan foydalanish molar homiladorlikni erta bosqichlarda aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa bemorlarni o‘z vaqtida davolashga jalb qilish, asoratlarni kamaytirish va onkologik shakllarga o‘tish xavfini sezilarli darajada pasaytirishga yordam bermoqda[13].

Muhokama qilingan afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, apparatning yuqori narxi va barcha klinikalarda mavjud emasligi, shuningdek natijalarning operator malakasiga bog‘liq bo‘lishi. Ammo bu kamchiliklar VINNO E10 ning umumiy diagnostik qiymatini kamaytirmaydi, balki uni yanada kengroq joriy etish zaruratini ko‘rsatadi.

Kelajakda ultratovush apparatlari, jumladan VINNO E10, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan algoritmlar bilan boyitilishi kutilmoqda. Bu tashxis jarayonini yanada tezlashtirib, shifokorlar uchun qo‘shimcha yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, telemeditsina imkoniyatlari orqali masofadan turib konsultatsiyalar o‘tkazish va natijalarni onlayn baholash keng joriy qilinishi mumkin.

Umuman olganda, VINNO E10 apparati yordamida molar homiladorlik tashxisini qo‘yish klinik amaliyotda samarali, ishonchli va xavfsiz metod hisoblanadi. Ushbu apparat nafaqat tashxis qo‘yish aniqligini oshiradi, balki bemor xavfsizligini ta’minlash, davolash jarayonini tezlashtirish va kelajakda sog‘liqni saqlash tizimida diagnostika sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lurain J.R. *Gestational trophoblastic disease: Epidemiology, pathology, clinical presentation and diagnosis.* American Journal of Obstetrics and Gynecology. 2011;203(6):531–539. https://doi.org/10.1016/j.ajog.2010.06.073
2. Seckl M.J., Sebire N.J., Berkowitz R.S. *Gestational trophoblastic disease.* The Lancet. 2010;376(9742):717–729. https://doi.org/10.1016/S0140-6736(10)60280-2

3. Zhao Y., Chen Q., Li X., et al. *The diagnostic value and accuracy of ultrasound in diagnosing hydatidiform mole: A systematic review and meta-analysis.* Medicine (Baltimore). 2022;101(27):e29623. https://doi.org/10.1097/MD.0000000000029623
4. Fowler D.J., Lindsay I., Seckl M.J., Sebire N.J. *The accuracy of first trimester ultrasound in the diagnosis of hydatidiform mole.* Ultrasound in Obstetrics & Gynecology. 2007;29(1):70–75. https://doi.org/10.1002/uog.3926
5. Kirk E., Papageorghiou A.T., Condous G., Tan L., Bora S., Bourne T. *Ultrasound diagnosis of molar pregnancy*. Ultrasound in Obstetrics & Gynecology. 2007;29(1):70–75. PMID: 30147739
6. Kurman R.J., Shih IeM. *Is Doppler ultrasound useful for evaluating gestational trophoblastic disease?* International Journal of Gynecological Cancer. 2015;25(1):16–20. PMID: 26735221
7. Srisomboon J., Phupong V., Tantipalakorn C. *Assessment of gestational trophoblastic disease by Doppler ultrasonography.* European Journal of Obstetrics & Gynecology and Reproductive Biology. 2018;228:176–181. https://doi.org/10.1016/j.ejogrb.2018.06.022
8. Sebire N.J., Fisher R.A., Foskett M., et al. *Histopathological diagnosis of partial and complete hydatidiform mole in the first trimester of pregnancy.* Histopathology. 2003;42(2):121–128.
9. Jauniaux E., Nicolaides K.H. *Hydatidiform mole: transvaginal sonographic diagnosis of partial and complete mole.* Ultrasound Obstet Gynecol. 1997;9(1):17–22.
10. Mubinaxon, R. va Gullola, U. (2025). EPILEPSIYANING KLINIK KO‘RINISHLARI VA ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI. *"YURT FAXRI"* , *1* (1).
11. Yin H., Zheng W., Xie Z. *Cornual invasive hydatidiform mole: a rare case report and literature review.* BMC Women’s Health. 2023;23:456. https://doi.org/10.1186/s12905-023-02727-z
12. Vinno Technology Co. Ltd. *VINNO E10 Ultrasound System User Manual.* Beijing, China: Vinno Medical, 2022.
13. Убайдуллаева Г. Х. Қ. Тиббий диагностик муассасаларда ўлчаш функциясига эга бўлган тиббий техникаларга қўйилган метрологик талаблар //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 9. – С. 161-165.

“AS-NAFAS” VA “AS-IMMUN” OZIQ-OVQAT QO‘SHILMALARI TARKIBIDAGI QURUQ VA SHILLIQ MODDALAR FOIZ ULUSHINI ANIQLASH

Islombek Karimov Jumaboy o‘g‘li
Qo‘qon universiteti Andijon filiali Umumiy kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi, k.f.f.d., (PhD)
E-mail: karimov-2026@list.ru
Tel: +998889059401
ORCID ID : https://orcid.org/0009-0001-9878-4098
Abdulaziz Jurayev Abdukaxxor o‘g‘li
Qo‘qon universiteti Andijon filiali Umumiy kimyo kafedrasi o‘qituvchisi,
E-mail: Chemistrykarimov94@gmail.com
Tel: +998701264204

Annotatsiya. Tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarining sifatini baholashda uning tarkibidagi organizm uchun foydali bo‘lgan biologik faol moddalar ya’ni quruq (oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, makro-mikroelementlar, vitaminlar, flavonoidlar) va shilliq moddalar (asosan, pentozan (90% gacha) va qisman geksozanlar) bilan belgilanadi. Yangi tayyorlangan sharbat sog‘liq uchun foydaliligini hisobga olib karam bargidan olingan sharbat asosida sirop olish uchun xozirgi kunda perkolyatsiya usulidan ko‘proq foydalaniladi. Sirop olish uchun xomashyo, tanlash va yuvish, qoldiq, olingan eritma filtrlash, konsentratsiya, sifat tahlili va miqdori, qadoqlash jarayonlari amalga oshiriladi. Shilliq moddalar hamda ulardan olinadigan dori turlari tibbiyotda nafas yo‘llari shamollaganda yo‘talni yengillashtiradigan, to‘xtatadigan va balg‘am ko‘chiradigan vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada “As-nafas” va “As-immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi quruq va shilliq moddalar foiz ulushini aniqlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat, quruq va shilliq modda, perkolyatsiya, sterilizatsiya, karam, loviya, mosh, sirop, qiyom.

Аннотация. При оценке качества натуральных пищевых добавок определяется содержание биологически активных веществ, полезных для организма, а именно сухого вещества (белки, жиры, углеводы, макро- и микроэлементы, витамины, флавоноиды) и слизистых веществ (в основном пентозан (до 90%) и частично гексозан). Учитывая пользу для здоровья свежеприготовленного сока, в настоящее время для получения сиропа на основе сока капустных листьев чаще всего используется метод перколяции. Для получения сиропа проводятся следующие процессы: отбор и промывка сырья, фильтрация остатка, фильтрация полученного раствора, концентрирование, качественный и количественный анализ, упаковка.

Слизистые вещества и полученные из них лекарственные средства используются в медицине как средства для облегчения кашля, остановки кашля и отхаркивания мокроты при инфекциях дыхательных путей.
В данной статье представлена информация об определении процентного содержания сухого вещества и слизистых веществ в пищевых добавках «Ас-нафас» и «Ас-иммун».
Ключевые слова: продукты питания, сухие и вязкие вещества, перколяция, стерилизация, капуста, фасоль, пюре, сироп, бульон.
Abstract. When assessing the quality of natural food additives, it is determined by the content of biologically active substances useful for the body, namely dry matter (proteins, fats, carbohydrates, macro- and microelements, vitamins, flavonoids) and mucous substances (mainly pentosan (up to 90%) and partly hexosan). Considering the health benefits of freshly prepared juice, the percolation method is currently used more often to obtain syrup based on cabbage leaf juice. To obtain syrup, the following processes are carried out: selection and washing of raw materials, filtration of the residue, filtration of the resulting solution, concentration, qualitative analysis and quantity, packaging. Mucilaginous substances and drugs obtained from them are used in medicine as a means of relieving cough, stopping cough and expectorating phlegm in respiratory tract infections. This article provides information on determining the percentage of dry matter and mucous substances in the food additives "As-nafas" and "As-immun".
Keywords: food, dry and viscous matter, percolation, sterilization, cabbage, beans, mash, syrup, broth.

KIRISH.

Bugungi kunga kelib, kasallikni davolash va uni oldini olish maqsadida dorivor o‘simliklardan dori turlari tayyorlanadi va ular tarkibidagi quruq va shilliq moddaning sifat hamda miqdori namlik miqdori to‘liq nolga teng bo‘lganda ya’ni suv holatiga kelgunga qadar o‘lchanadi [1].

Oziq-ovqat mahsulotidagi quruq moddalar miqdori suv nisbatiga teskari proporsionaldir. Quruq moddalar ozuqa tarkibidagi barcha suv bug‘langandan keyin qolgan narsadir. Quruq modda - barcha namlikni yo‘qotib bo‘lgach, don yoki dag‘al ozuqa tarkibidagi tolalar, oqsillar, minerallar, uglevodlar va boshqa oziq moddalar [2].

Tibbiyotda o‘rab oluvchi modda va farmatsevtikada emulgator sifatida ishlatiladi. Shuningdek, shilliq moddalar va ulardan olingan dori turlari tibbiyotda me’da va ichak kasalliklarida o‘rab oluvchi dori, nafas yo‘llari shamollaganda yo‘talni yengillashtiradigan, to‘xtatadigan va ko‘krakdagi og‘riqni qoldiradigan hamda balg‘am ko‘chiradigan vosita sifatida ishlatiladi.

ISSN 3030-3907

Shilliq moddalar kislotalar ta’sirida gidrolizlanib, 95 % pentozalar (arabinoza, ksiloza va boshqalar), oz miqdorda galaktoza, glyukoza, uron kislota va furfurol hosil qiladi [3].

Ushbu ma’lumotlar farmatsevtika va oziq-ovqat texnologiyasining muhim jihatlarini, xususan, dorivor o‘simlik xomashyosining sifatini baholashdagi asosiy ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Ushbu ma’lumotlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, o‘simlik tarkibidagi quruq moddalar miqdorini aniqlash dori vositasining dozasi va samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Mahsulotda namlik (suv) qancha yuqori bo‘lsa, quruq modda ulushi shuncha kam bo‘ladi. Tarkibida suv butunlay bug‘latilgandan so‘ng qolgan qoldiq — oqsillar, minerallar, uglevodlar va tolalar yig‘indisi “mutloq quruq modda” deb yuritiladi.

Ikkinchidan, shilliq moddalar o‘simliklar tarkibidagi murakkab poliamidlardir va ular tibbiyotda o‘ziga xos mexanizm asosida ta'sir ko‘rsatadi. Oshqozon-ichak trakti shilliq qavatini mexanik va kimyoviy ta’sirlardan himoya qiladi. Nafas yo‘llari uchun: Balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi xususiyati tufayli yo‘talga qarshi vositalar tarkibiga kiradi. Emulsiya tayyorlashda emulgator sifatida yordamchi modda vazifasini o‘taydi.

Uchinchidan, shilliq moddalarning kislotali muhitda parchalanishi natijasida hosil bo‘ladigan mahsulotlar ularning tarkibiy qismlarini tushunishga yordam beradi. Pentozalar (95%) dan, arabinoza va ksiloza kabi besh uglerodli qandlar asosiy qismni tashkil etadi. Geksozalar va kislotalardan galaktoza, glyukoza va uron kislotalari shilliqning qovushqoqlik xususiyatini ta’minlaydi. Ushbu jarayonlarni o‘rganish dorivor o‘simliklardan olinadigan ekstraktlarning standartini belgilashda va ularning saqlash muddatini uzaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Karam bargi sharbati asosida sirop tayyorlashda qo‘llanilgan usullar zamonaviy farmatsevtika va oziq-ovqat texnologiyasi talablariga juda mos keladi.

Perkolyatsiya usulining afzalliklari sharbat tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olishda eng samarali yo‘llardan biridir. Xomashyo doimiy ravishda yangi ekstragent (erituvchi) bilan aloqada bo‘lgani uchun moddalar maksimal darajada ajralib chiqadi. Oddiy tindirish (matsertsiya) usuliga qaraganda jarayon ancha tez amalga oshadi. Kam miqdordagi erituvchi bilan yuqori konsentratsiyali ekstrakt olish imkonini beradi.

Xomashyoni sterilizatsiya qilishda oziq-ovqat qo‘shimchalarini iste’mol sodasi (natriy gidrokarbonat) eritmasida bo‘ktirish va yuvish – bu samarali mexanik va kimyoviy tozalash usulidir. Ishqoriy muhitda soda eritmasi zamburug‘ sporalarini va ayrim bakteriyalarni neytrallashga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Tashqi sterilizatsiya bosqichida xomashyo yuzasidagi hasharotlar va mikrobial ifloslanishni bartaraf etib, siropning saqlanish muddatini uzaytiradi.

Tindirish va filtrlash bosqichida siropning 10 °C haroratda 2 kun davomida tindirilishi juda muhim texnologik bosqichdir. Past haroratda erimaydigan yirik molekulyar birikmalar (oqsil, kletchatka qoldiqlari) cho‘kmaga tushadi. So‘nggi filtrlash jarayoni siropga tovar ko‘rinishi va tiniqlik beradi [4].

Bugungi kunda siroplar qaysi usulda olinishidan qat’iy nazar 10 ^{0}C haroratda 2 kun davomida tindiriladi, so‘ngra filtrlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Yangi tayyorlangan sharbat sog‘liq uchun foydaliligini hisobga olib karam bargidan olingan sharbat asosida sirop olish uchun perkolyatsiya usulidan foydalandik. Chunki, hozirgi vaqtda korxona sharoitida ham shu usuldan ko‘proq foydalaniladi. Bu jarayon perkolyatorda olib borildi va bu usulning afzalligi shundaki, jarayon nisbatan tez ketadi, biologik faol moddalar to‘laroq ajraladi, ajratuvchi kamroq sarflanadi. Oziq-ovqat qo‘shilmalarining hammasi non sodaning kopik suviga 1 soat davomida bo‘ktirildi, so‘ngra toza sovuq suvda yuviladi. Bundan maqsad mahsulotlar ichi va tashidagi xar xil zamburug‘, bakteriya va hashoratlarni tashqi sterilizatsiya qilishdan iboratdir. Hosil bo‘lgan oziq-ovqat qo‘shilmasi sterillizatsiyaning filtrlash usuli tozalandi.

Kerakli reaktiv va asboblar: analitik tarozi, quritish shkafi, byuks yoki chinni kosachasi, eksikator, qum, stakan, shisha tayoqcha, etil spirti (96 %), metil ko‘k bo‘yog‘i, (olingan namunalar) oziq-ovqat qo‘shilmalari.

Biz tomonimizdan olingan tabiiy mahsulotlar 105 ^{0}C haroratdagi bosim ostida kukun holiga keltirildi. Analitik tarozida 0.001 gr aniqlikgacha tortilgan toza va quruq holdagi ichiga 10-12 gr atrofida qum solingan ikkita byuks yoki chinni kosachasi quritish shkafida 30 minut davomida qizdirildi va eksikatorda sovutilib doimiy og‘irlikka kelguncha quritildi, tarozida tortilgan 55 gr massaga ega bo‘ldi. So‘ngra qum solingan byuksning ustiga 5 gr miqdorda olingan namuna solindi va uning massasi 60 gr ni tashkil etdi. Ochiq holdagi byuks quritish pechining 105 ^{0}C haroratdagi muhitida 4 soat davomida quritildi hamda oxirida byuksning qopqog‘i yopilib, 0,5-1 soat davomida sovutildi va analitik tarozida qaytadan o‘lchandi.

O‘rganilayotgan namunalar tarkibidagi quruq moddaning % miqdorlari quyidagi tenglama orqali hisoblab topildi:

$$C_{\%} = \frac{M_2 - B}{M_1 - B} \cdot 100\%$$

Bu yerda: $C_{\%}$ - quruq modda, M_1 – quritishdan oldingi birinchi mahsulot og‘irligi + byuks + qum, M_2 – quritishdan keying ikkinchi mahsulot og‘irligi + byuks + qum, B – byuks + qum og‘irligi.

ISSN 3030-3907

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq - ovqat tarkibidagi shilliq moddalar miqdorini aniqlash uchun namunalarning 5 ml yopishqoq colloid eritmasidan olingandan so‘ng, shu eritmasiga teng hajmda 96 % li spirt eritmasidan qo‘shildi va xosil bo‘lgan cho‘kma filtrlanib, sovuq suv bilan yuvildi va 50-70 ^{0}C da doimiy og‘irlikka kelguncha quritildi, tarozida tortildi.

Mahsulot tarkibidagi shilliq moddalar miqdori quyidagi tenglama asosida hisoblandi: bu yerda: m-olingan shilliq moddalarning massasi.

$$W_{\%} = \frac{m}{5} \cdot 100\%$$

bu yerda: m-olingan shilliq moddalarning massasi.

Olingan na’muna tarkibidagi shilliq moddalarni quyidagi sifat reaksiyalari orqali aniqladik. Jumladan tarkibida shilliq moddalar bo‘lgan mahsulotlar ishqor eritmasi ta’sirida sariq rangga bo‘yaldi hamda mikroskopda ko‘rish uchun metal ko‘k bo‘yog‘i eritmasidan bir tomchi tomizildi va shilliq modda saqlovchi hujayralar to‘q ko‘k rangga kirdi.

Shuningdek oziq-ovqat qo‘shilmalarining tarkibidagi shilliq moddalar miqdorini esa, namuna tarkibidan sovuq suv yordamida ajratib olingan shilliq moddalar spirt yordamida cho‘ktirildi hamda viskozimetr yordamida ularning yopishqoqligiga qarab aniqladik. Ya’ni mPa*s da tanlangan aylanish tezligi ostida o‘lchangan qiymat suyuqlikning maksimal yopishqoqlik koeffitsientini bildiradi. Chunki, bosimga teng ravishda foiz belgisi ham teng miqdorda chiqadi.

Olingan natija va muhokama. Har qanday turdagi iste’mol qilinayotgan oziq-ovqatlarning kul tarkibi nam va quruq moddalardan iborat. Quruq modda tarkibini miqdorini eng keng tarqalgan usullardan biri og‘rilik usuli ya’ni bunda doimiy og‘irlikka keltirish va olingan namunadan suvni haydash orqali aniqlash mumkin.

“As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasining kuli tarkibidagi quruq moddalarning foiz ulushlari hisoblab chiqildi.

$$C_{\%} = \frac{56 - 55}{60 - 55} \cdot 100\ \% = 20\ \%$$

“As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalasining kuli tarkibida quruq moddaning foiz miqdori 50 % ni tashklil etdi.

$$C_{\%} = \frac{57{,}5 - 55}{60 - 55} \cdot 100\ \% = 50\ \%$$

“As-nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalarining kuli tarkibidagi quruq moddalar 20 va 50% foiz ulushlarini tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sifat reaksiyasi orqali tekshirilganda ishqor eritmasi ta’sirida sariq rangga bo‘yaldi va mikroskopda ko‘rish uchun metal ko‘k bo‘yog‘i eritmasidan

ISSN 3030-3907

tomizilganda shilliq modda saqlovchi hujayralar to‘q ko‘k rangga kirganligini kuzatdik. “As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibidagi shilliq moddalar miqdori 8 % hamda 23 % ni tashkil etdi.

Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

“As-Nafas” va “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi quruq va shilliq moddala (%) miqdori

Mahsulot nomlari	Vaqt/soat	Quruq modda	Shilliq modda
“As-Nafas”	4 + 1 soat	20 %	8 %
“As-Immun”	4 + 1 soat	50 %	23 %

Biz tomonimizdan yaratilgan tabiiy “As-Nafas” oziq-ovqat qo‘shilmasi tarkibida quruq moddalar 20% va shilliq moddalar 8% hamda “As-Immun” oziq-ovqat qo‘shilmasida quruq moddalar 50%, shilliq moddalar 23% ga teng ekanligi o‘tkazilgan tajribalar asosida isbotlandi.

Tadqiqot ishlari Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Umumiy kimyo” kafedrasi ilmiy laboratoriyasida amalga oshirildi.

XULOSA. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yuqoridagi oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibida inson organizmi uchun foydali bo‘lgan uglevod, yog‘, oqsil, organik kislota, vitaminlar, flavonoidlar va mineral moddalar yetarli ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.I. Sanoyev va boshq./Farmakognoziya/Darslik. Toshkent – 2023 – 416 b.
2. H.X. Xolmatov, O‘.A. Ahmedov, N.A. Musayeva. “Farmakognoziya va botanika asoslari” – 3 nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2017.
3. M.A. Jo‘rayeva. “Dorivor o‘simliklar atlasi”: O‘quv qo‘llanma – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019.
4. I.J. Karimov. “Karam, loviya, mosh asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni sinflash / dissertatsiya. Andijon shahri – 2025 -146 b.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA SHAMOL ELEKTR STANSIYALARIDAN ELEKTR ENERGIYASINI OLISH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Abdirasulov Komil Fayzulla o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
Esanov Jahongir Abdig‘affor o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
Xushboqov Botir Azamat o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
Sultonov Bozorboy Jo‘raqulovichi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi
E-mail: komilabdurasulov988@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida shamol elektr stansiyalaridan (SHES) elektr energiyasini olish imkoniyatlari, texnik xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi tadqiq etilgan. O‘zbekistonning janubiy va markaziy mintaqalarida o‘tkazilgan polevel tadqiqotlar asosida shamol resurslari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida shamol energetikasini rivojlantirish uchun yuqori potensial mavjud. Weibull taqsimot modeli asosida olingan hisob-kitoblar 3 MW quvvatli turbinalar uchun yillik energiya ishlab chiqarish 124,5 dan 192,3 GW*soat gacha ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar O‘zbekistonning 2030 yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 25% ga yetkazish bo‘yicha milliy dasturiga muhim hissa qo‘shishi mumkin.

Kalit so‘zlar: shamol energetikasi, SHES, Weibull taqsimoti, quvvat omili, qayta tiklanadigan energiya, O‘zbekiston.

Ftalosianin birikmalari keng π-kon'yugatsiyalangan makrotsiklik tuzilishi, yuqori rang barqarorligi, kimyoviy chidamliligi va termik mustahkamligi bilan ajralib turadigan muhim organik pigmentlar qatoriga kiradi. Ularning tarkibiga turli metall ionlarini kiritish orqali pigmentlarning optik, termik va funksional xossalarini boshqarish mumkin. Paxta tolali matolar tabiiy sellyulozali to‘qimachilik materiali hisoblanib, yuqori gigroskopiklik va ekspluatatsion xossalarga ega. Ammo ularning issiqlik ta'sirida tez parchalanishi va yonishga moyilligi sababli matoga funksional ishlov berildi. Modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan paxta matosini bo‘yash natijasida nafaqat rangli qoplama hosil bo‘ladi, balki pigment tarkibidagi metall markazlari, azotli makrohalqa va funksional guruhlar hisobiga matoning termik barqarorligi ham ta'minlaydi.

ADABIYOTLAH TAHLILI.

So‘nggi yillarda ftalosianin pigmentlari va boshqa funksional rang beruvchi moddalarni paxta matolariga qo‘llash orqali nafaqat rang berish, balki materialga qo‘shimcha termik, optik va himoyalovchi xossalar berish masalasi keng o‘rganilmoqda. Paxta matosini pigment bilan pad-dry-cure usulida ishlov berish natijasida bo‘yalgan matoning IQ va TGA tahlillari orqali funksional guruhlar va termik barqarorlik xossalari o‘rganolgan. Bu jarayonda pigment qatlamlari ortishi bilan uning termobarqarorligini ortishi va issiqlik o‘tkazuvchanlik kamayishini ko‘rsatgan [1]. Ftalosianin pigmentlari keng π-kon'yugatsiyalangan makrohalqa, yuqori kimyoviy barqarorlik va metall markazlari hisobiga funksional materiallar sifatida alohida ahamiyatga ega. Sakamoto va Ohno-Okumura ftalosianinlarning optik, elektron va funksional xossalari markaziy metall ioni hamda periferik o‘rinbosarlar tabiatiga bog‘liqligini aniqlagan[2]. Sintez qilingan yangi bis-metall ftalosianinlar IQ, UB, TGA va DTA usullari bilan o‘rganilgan bo‘lib, TGA tahlil

ISSN 3030-3907

natijalariga ko‘ra bunday birikmalar 320-410 °C gacha termik barqarorlik namoyon qilishi qayd etilgan [3]. Fayziyev va uning hamkasblari tomonidan sulfolangan mis ftalosianinning termik xossalarini TGA va DTA usullari yordamida o‘rganib, 2-4 ta sulfo-guruh kiritilishi pigmentning suvda eruvchan shaklga o‘tishiga olib kelishini hamda TGA egri chizig‘ida uchta asosiy massa yo‘qotish bosqichi kuzatilishini ko‘rsatgan [4]. Paxta hamda poliester matolarga yong‘inga qarshi ishlov berilgandan keyin ularning termik xossalarini TGA usuli bilan o‘rganildi. Tadqiqotda ishlov berilgan matolarda yuqori haroratda qoldiq massa ortishi va massa yo‘qotish jarayoni sekinlashishi aniqlangan [5]. Šimkovic tomonidan paxta matolarining yong‘inga chidamliligi TG/DTG/DTA usullari orqali o‘rganilib, bu usullar sellyulozali materiallarning termik parchalanish bosqichlarini aniqlashda samarali ekanligi ko‘rsatilgan[6]. Metall saqlagan ftalosianinlarning termik barqarorligi ularning makrohalqa tuzilishi, metall markazi va periferik guruhlar tabiatiga bog‘liqligini ta’kidlagan [7]. Ushbu ma’lumotlar modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo‘yalgan paxta matosining TGA/DTA tahlilini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Pigment eritmasini tayyorlash. 1000 ml deionizatsiyalangan suvga 4,2 g modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti qo‘shiladi uning istiga 0,5 g dispergator, 0,4g quyuqlashtiruvchi va 0,15 g penogaslovchi modda solindi. Hosil bo‘lgan aralashma bir jinsli dispers holatga kelguncha 12-18 daqiqa davomida tez aralashtiriladi. Zarur hollarda pigmentning paxta tolasi bilan bog‘lanishini kuchaytirish maqsadida jarayon yakunida 1,5-2,0 g fiksatsiyalovchi modda qo‘shildi. Ushbu tarkib mis-kobalt ftalosianin pigmentining suvli muhitda barqaror tarqalishini ta’minlab, bo‘yovchi eritmasining texnologik xossalarini yaxshilaydi.

Modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmentini paxta matosiga qo‘llash uchun pad-dry-cure va exhaust dyeing usullaridan foydalanildi. Jarayon parametrlari laboratoriya sharoitida pigmentning suvli muhitda disperslanishi, mato yuzasiga bir tekis singishi va fiksatsiyalanish darajasini hisobga olgan holda tanlandi.


Pad-Dry-Cure(shimdirish-quritish-fiksatsiyalash) usulida paxta matosi modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti eritmasiga botiriladi, so‘ngra valiklar orasidan o‘tkazilib 75-80 % siqish darajasida siqiladi. Quritish jarayoni 100-120 ^{0}C haroratda 4-6 daqiqa davomida olib boriladi. Keyingi fiksatsiya bosqichi 150-160 ^{0}C haroratda 2-4 daqiqa davomida amalga oshiriladi. Exhaust dyeing usulida bo‘yash uchun eritma tayyorlanadi, uning tarkibi 1,5-2,5 % modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti, 0,8-1,2 % natriy sulfat va 0,4–0,6 % fiksatsiyalovchi modda qo‘shiladi. Jarayon 65-75 °C

ISSN 3030-3907

haroratda 40-55 daqiqa davomida olib boriladi. Bo‘yashdan so‘ng mato yuvilib, tabiiy sharoitda quritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Suvda eruvchan modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo‘yalgan paxta matosining termik xossalari 25-650 °C harorat oralig‘ida TGA va DTA usullari yordamida o‘rganildi. Mazkur tahlil bo‘yalgan matoning issiqlik ta’siridagi barqarorligini, massa kamayish bosqichlarini hamda pigment–tola tizimida kechadigan termik o‘zgarishlarni o‘rganish imkonini beradi.



1-rasm. Modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo‘yalgan paxta matosining derivotogrammasi

Modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan ishlov berilgan paxta matosining termogravimetrik tahlili namunaning issiqlik ta’sirida massa yo‘qotishi bosqichma-bosqich kechishini ko‘rsatdi. TGA egri chizig‘iga ko‘ra, dastlabki massa kamayishi 34,79-282,26 °C haroratlar oralig‘ida kuzatilib 0,130 mg (4,208 %) ni tashkil etdi. Ushbu bosqich mato tarkibidagi adsorbsiyalangan namlik, kuchsiz bog‘langan suv molekulalari hamda uchuvchan komponentlarning ajralishi bilan bog‘liq. Bu haroratlar oralig‘ida paxta tolalarining asosiy sellyulozali skeleti va pigment qatlami sezilarli destruksiyaga uchramaydi, bu esa namunaning dastlabki bosqichda nisbatan termik barqarorligini ko‘rsatadi. Asosiy massa yo‘qotish 282,26-386,51 °C oralig‘ida sodir bo‘lib, bu bosqichda namuna massasi 2,51 mg (81,612 %) ga kamaydi. Bu haroratlar oraligida kuzatilgan o‘zgarish paxta tolasi tarkibidagi sellyulozaning termik parchalanishi, organik bog‘larning uzilishi va pigment-tola tuzilishidagi

ISSN 3030-3907

parchalanish jarayonlari boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lad, bu esa namunaning asosiy termik parchalanish bosqichi hisoblanadi.

Oxirgi parchalanish bosqichi 386,51-601,62 ^{0}C oralig‘ida kuzatilib, massa yo‘qotilishi 0,238 mg (7,705%) ni tashkil qiladi. Bu bosqichda karbonlangan qoldiqlar, yuqori haroratga chidamli organik qismlar hamda pigment tarkibidagi metall markazlari bilan bog‘liq barqaror qoldiqlar bosqichma-bosqich o‘zgarishga uchraydi. DTA egri chizig‘ida asosiy termik effekt 295,97-386,96 ^{0}C oralig‘ida namoyon bo‘lib, cho‘qqi maksimumi 348,46 ^{0}C da qayd etilgan. Ushbu endotermik effekt sellyuloza asosidagi paxta tolalarining asosiy termik parchalanishi hamda modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan hosil bo‘lgan rangli qoplama qatlamining issiqlik ta’siridagi o‘zgarishlari bilan izohlanadi. Boshlanish harorati 320,93 ^{0}C tugash harorati 369,24 °C qiymatlari namunaning faol termik destruksiya sohasi aynan shu intervalda sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

Deritogrammadagi TGA, DTA tahlil natijalari modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo‘yalgan paxta matosi 280 °C gacha nisbatan termik barqaror ekanligini, asosiy parchalanish esa 282-386 ^{0}C oralig‘ida sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

XULOSA.

Termogravimetrik va diffirensial termik analiz tahlillari modifikatsiyalangan mis-kobalt ftalosianin pigmenti bilan bo‘yalgan paxta matosining termik barqarorligi yaxshilanganini ko‘rsatdi. Pigment qatlami sellyuloza tolalarining yuqori haroratda parchalanishini sekinlashtirib, massa yo‘qotish jarayonini bosqichma-bosqich kechishini ta’minlaydi. Olingan natijalar ushbu pigmentni paxta matolariga rang berish bilan birga, ularning termik chidamliligini oshiruvchi funksional modda sifatida qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Holkar H. et al. Simultaneous dyeing and finishing of cotton fabrics using Red Ocher earth pigment //Cellulose chemistry and technology. – 2025. – T. 59. – №. 3-4. – C. 433-440.
2. Sakamoto K., Ohno-Okumura E. Syntheses and functional properties of phthalocyanines //Materials. – 2009. – T. 2. – №. 3. – C. 1127-1179.
3. Yilmaz E., Saydam S. Synthesis, Characterization and Thermal Behavior of New Bis-Metallophthalocyanines (Cu, Co, Zn, Ni) and Bis-Metal Free Phthalocyanine // MW Journal of Science. – 2024. – Vol. 1, № 1. – P. 36–43.
4. Fayziev J. B., Khodjayeva D. K. Thermal analysis of sulfated copper phthalocyanine and copper-calcium // ISJ Theoretical & Applied Science. – 2022. – № 10(114). – P. 70–73.

ISSN 3030-3907

5. Atakan R., Özcan G. A Comparative thermal analysis of fire-off treated cotton, polyester and co/pet fabrics //Textile and Apparel. – 2019. – Т. 29. – №. 4. – С. 311-316.
6. Šimkovic I. TG/DTG/DTA evaluation of flame retarded cotton fabrics and comparison to cone calorimeter data //Carbohydrate polymers. – 2012. – Т. 90. – №. 2. – С. 976-981.
7. Pop S. F. et al. Spectral and thermal investigations of porphyrin and phthalocyanine nanomaterials //Journal of Optoelectronics and Advanced Materials. – 2011. – Т. 13. – №. 7. – С. 906.

ISSN 3030-3907

MATHEMATICAL MODELING OF STRUCTURAL STIFFNESS AND DYNAMIC BEHAVIOR OF A PNEUMATIC VISE FIXTURE USING THE COHERENCE FUNCTION.

Khamidov B.Kh
Navoi State University of Mining and Technologies
Abdiev B.K
Navoi State University of Mining and Technologies
Khamidov A. U.
Navoi State University of Mining and Technologies

Annotatsiya. Ushbu maqolada frezalash jarayonida yupqa devorli korpus detallarini mahkamlash uchun ishlatiladigan pnevmatik iskanja moslamasining konstruktiv bikrligi va dinamik xususiyatlarini matematik modellash, shuningdek kogerentlik funksiyasi asosida tahlil qilish masalalari yoritilgan. Tizim 1-DOF va 2-DOF dinamik model sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, dempferlash elementi tizimning umumiy dempferlash koeffitsientiga ta‘siri hisobga olingan. Ekvivalent bikrlik, pnevmatik siqish kuchi, Hertz kontakt bikrligi va chastota uzatish funksiyasi (FRF) modellari MATLAB muhitida raqamli modellashtirish orqali aniqlangan. ANSYS/SolidWorks Simulation dasturida o‘tkazilgan chekli elementlar tahlili (FEA) natijalarida von Mises kuchlanganligi 350 MPa gacha yetadigan zo‘riqish konsentratsiyasi zonalari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: pnevmatik iskanja; konstruktiv bikrlik; kontakt qattiqligi; siqish kuchi; kogerentlik funksiyasi; FRF; FEA; yupqa devorli korpus; MATLAB.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы математического моделирования и анализа конструктивной жёсткости и динамических характеристик пневматического зажимного приспособления. Система представлена как 1-DOF и 2-DOF динамическая модель. Моделирование выполнено в MATLAB. FEA выявил зоны концентрации напряжений (von Mises до 350 МПа). Предложены рекомендации по повышению жёсткости и гашению вибраций.

Ключевые слова: пневматическое зажимное приспособление; конструктивная жёсткость; функция когерентности; FRF; FEA; MATLAB.

Abstract. This paper investigates the mathematical modeling and analysis of the constructive stiffness and dynamic characteristics of a pneumatic fixture used in the milling of thin-walled housing components, with application of the coherence function. The system is modelled as a 1-DOF and 2-DOF dynamic model incorporating a tuned mass damper (TMD). Equivalent stiffness, pneumatic clamping force, Hertzian contact stiffness, and FRF models are validated through MATLAB simulation. FEA in ANSYS reveals von Mises stress concentrations

ISSN 3030-3907

up to 350 MPa near pneumatic fittings. Design recommendations for stiffness improvement and chatter suppression are proposed.

Key words: pneumatic fixture; constructive stiffness; contact stiffness; clamping force; coherence function; FRF; FEA; thin-walled housing; MATLAB.

INTRODUCTION.

In modern manufacturing, the accuracy and stability of the machining process are critically dependent on the stiffness and dynamic behaviour of the fixture–workpiece–machine tool system. In the milling of thin-walled housing components, vibrations known as chatter lead to poor surface finish, rapid tool wear, and dimensional inaccuracies. These vibrations arise from the elastic compliance of the fixture, fluctuating cutting forces, and regenerative mechanisms.

Pneumatic fixtures offer rapid clamping and ease of automation, but their constructive stiffness is the limiting factor governing machining precision when jaw overhang h_0 = 300 mm. A quantitative stiffness model is therefore essential for fixture design.

To analyse vibrations and evaluate fixture effectiveness, the coherence function is employed. It identifies the frequency-dependent causal relationship between the cutting force (input) and fixture vibration (output), distinguishing regenerative chatter from background noise. This paper develops a unified mathematical–dynamic model integrating constructive stiffness, TMD dynamics, FRF measurement, and FEA stress analysis into a single validated framework.

LITERATURE REVIEW AND PROBLEM STATEMENT

Tobias and Tlusty established that chatter operates as a time-delay dynamic system driven by a regenerative mechanism, with stability depending on system stiffness, damping, and cutting parameters [1, 2]. Structural methods to mitigate vibrations include TMDs and spring–rod damping elements [3, 4]. Pneumatic fixture stiffness is governed by a series combination of housing, jaw, guide, and contact stiffnesses [5].

Most existing studies focus on amplitude and frequency spectra, leaving the causal origin of vibration signals insufficiently analysed. The coherence function addresses this gap by quantifying the frequency-dependent input–output relationship [6]. Its systematic application to pneumatic fixture modelling remains a significant research gap that this study addresses.

RESEARCH METHODOLOGY

The methodology combines analytical modelling, MATLAB numerical computation (dde23 solver for time-delay equations), FEA simulation, and signal processing. Three complementary analyses are performed:

—(a) Time domain — maximum amplitude Amax and RMS value:

ISSN 3030-3907

$A_{RMS} = \sqrt{(1/T \int_0^T x^2(t)\, dt)}$ (1)

—(b) Frequency domain — spectral content via Discrete Fourier Transform:

$X[k] = \Sigma_{n=0}^{N-1} x[n] \cdot e^{-j2\pi kn/N}$ (2)

—(c) Causal analysis — coherence function between cutting force Fc and vibration x:

$$\gamma^2_{Fcx}(f) = | G_{Fcx}(f) |^2 / [G_{FcFc}(f) \cdot G_{xx}(f)], \quad 0 \le \gamma^2 \le 1 \qquad (3)$$

$G_{FcFc}(f)$ — autospectral density of the cutting force

$G_{xx}(f)$ — autospectral density of the vibration signal

$G_{Fcx}(f)$ — cross-spectral density; [object Object] — frequency

$\gamma^2(f) \approx 1$ indicates vibrations are deterministically driven by the cutting process; lower values indicate random noise or nonlinearity. Identification is performed only in frequency bands where $\gamma^2(f) \ge 0.80$.

MATHEMATICAL MODEL

The constructive stiffness of the pneumatic fixture is the resistance of its components to deformation under external load:

$$k = F / \delta \qquad (4)$$

The equivalent series stiffness of the fixture assembly:

$$1/k_{eq} = 1/k_h + 1/k_j + 1/k_g + 1/k_m + 1/k_c \qquad (5)$$

For permissible displacement $\delta max \le 0.01$ mm and cutting force $F_k = 1200$ N:

$$k_{eq} \ge F_c / \delta_{max} = 1200 / 0.01 = 120\,000 \text{ N/mm} \qquad (6)$$

The clamping force produced by the pneumatic cylinder:

$$F_{cl} = p \cdot A \cdot \eta, \quad A = \pi D^2 / 4 \qquad (7)$$

For D = 50 mm and $\eta = 0.9$: A = 1963.5 mm². Results are shown in Table 1 and Figure 1.

Table 1.

Clamping force Fcl vs. operating pressure (D = 50 mm, η = 0.9)

p (MPa)	A (mm²)	F_{al} (N)	F_{al} (kN)
1.0	1963.5	1767	1.77
1.5	1963.5	2651	2.65
2.0	1963.5	3534	3.53

ISSN 3030-3907




Figure 1. Pneumatic clamping force F_{al} as a function of operating pressure p (D = 50 mm, η = 0.9). Linear relation $F_{al} = p \cdot A \cdot \eta$ over 1.0–2.0 MPa yields 1.77–3.53 kN.

Jaw Overhang Effect

With jaw overhang h_o = 300 mm, the cantilever deflection scales as:

$$\delta_j \propto L^3 \qquad (8)$$

Reducing L from 300 mm to 150 mm decreases jaw deflection by a factor of $2^3 = 8$.

Hertzian Contact Stiffness

$$k_c = (4/3) \cdot E^* \cdot \sqrt{R} \cdot \delta^{1/2}, \quad 1/E^* = (1-\nu_1^2)/E_1 + (1-\nu_2^2)/E_2 \qquad (9)$$

1-DOF Dynamic Model

The fixture–workpiece system as a damped 1-DOF oscillator with TMD element damping contributions cd and kd:

$$m \cdot \ddot{x}(t) + (c + c_d) \cdot \dot{x}(t) + (k + k_d) \cdot x(t) = F_c(t) \qquad (10)$$

m — equivalent mass of the fixture–workpiece subsystem, kg

c, c_d — baseline and added damping coefficients, N·s/mm

k, k_d — baseline and added stiffness (k = k_ac from Eq. 5), N/mm

Frequency-response function (FRF):

$$H(\omega) = X(\omega) / F(\omega) = 1 / (k - m\omega^2 + jc\omega) \qquad (11)$$

Natural frequency and damping ratio:

$$\omega_n = \sqrt{(k/m)}, \quad \zeta = c / (2\sqrt{(km)}) \qquad (12)$$

Regenerative Cutting Force (Time-Delay Model)

The regenerative cutting force as a function of current and delayed displacement:

$$F_c(t) = K_c \cdot [\, x(t) - x(t - \tau) \,], \quad \tau = 60/n \qquad (13)$$

K_c — equivalent cutting-force coefficient

τ — time delay = one spindle revolution period; n = spindle speed, rpm

2-DOF Tuned Mass Damper (TMD) Model

ISSN 3030-3907

Coupled equations of motion for the fixture body m_1 and TMD mass m_2 connected via spring k_2 and dashpot c_2:

$$m_1\ddot{x}_1 + c_1\dot{x}_1 + k_1x_1 + c_2(\dot{x}_1 - \dot{x}_2) + k_2(x_1 - x_2) = F(t) \quad (14a)$$

$$m_2\ddot{x}_2 + c_2(\dot{x}_2 - \dot{x}_1) + k_2(x_2 - x_1) = 0 \quad (14b)$$

Den Hartog optimal TMD tuning (mass ratio $\mu = m_2/m_1$):

$$f_{opt} = \omega_2/\omega_1 = 1/(1+\mu), \quad \zeta_{opt} = \sqrt{[\,3\mu / (8(1+\mu)^3)\,]} \quad (15)$$

For $\mu = 0.05$–0.10, Eq. (15) yields a 40–60% reduction in peak FRF amplitude.

FRF Measurement and Modal Identification

In impact hammer or shaker testing, the H_1 estimator is computed from cross- and auto-spectral densities:

$$H_1(\omega) = G_{XF}(\omega) / G_{FF}(\omega) \quad (16)$$

$G_{XF}(\omega)$ — cross-spectral density (output–input)

$G_{FF}(\omega)$ — auto-spectral density of the input force

Half-Power Bandwidth Damping Estimation

Viscous damping ratio from the −3 dB bandwidth of the resonance peak:

$$\zeta \approx (\omega_2 - \omega_1) / (2\omega_n) \quad (17)$$

Individual parameters are recovered as:

$$k = F_n / \delta_n, \quad m = k / \omega_n^2, \quad c = 2\zeta\sqrt{(km)} \quad (18)$$

Optimisation Objectives

$$J_1 = \max_{\omega\in[\omega a,\omega b]} |\,H(\omega)\,| \rightarrow \min \quad (19)$$

$$J_2 = \int_{\omega a}^{\omega b} |\,H(\omega)\,|^2\, d\omega \rightarrow \min \quad (20)$$

Figure 2 shows the pneumatic fixture schematic indicating the two principal force directions during milling: the clamping force F_{al} applied horizontally by the pneumatic actuator, and the resultant cutting force F_k acting vertically at the workpiece surface. The jaw overhang $h_0 = 300$ mm governs the dominant cantilever compliance.




Figure 2. Pneumatic fixture load schematic. F_{al} (horizontal): clamping force from actuator. F_k (vertical): milling cutting force at workpiece surface. Tayanchlar: support pads providing reaction base. Jaw overhang $h_0 = 300$ mm is the primary compliance source.

ISSN 3030-3907

Finite Element Analysis Model Description and Boundary Conditions

A 3D FEA model was built in ANSYS Mechanical. Structural steel: E = 2×10^{11} Pa, ν = 0.3, σy = 355 MPa. Frictional contacts at jaw–workpiece and jaw–guide interfaces (μ = 0.15–0.25). Fixed support at the fixture base. Two simultaneous loads: p = 2.0 MPa on the piston face (F_{al} = 3534 N) and cutting force F_k = 1200 N at the machining zone.




Figure 3. Von Mises stress (MPa) from FEA under full load (p = 2.0 MPa, F_k = 1200 N). Blue = 0 MPa; red = 350 MPa (near yield). Critical zones: pneumatic port fittings (SCZ-1), jaw-to-guide transitions (SCZ-2), screw-bore interfaces (SCZ-3), jaw contact pads (SCZ-4), housing body (SCZ-5).

Stress Concentration Zone Analysis

SCZ-1 — Pneumatic port connections: Up to 350 MPa, approaching yield (355 MPa). Priority fatigue risk under cyclic clamping. Remedy: fillet radius ≥ 3 mm, high-strength inserts (AISI 4140).

SCZ-2 — Jaw-to-guide transition: 200–300 MPa from cantilever bending (Eq. 8). Target for overhang reduction and stiffening ribs.

SCZ-3 — Screw-bore interfaces: 150–250 MPa stress raisers at bolt holes. Mitigated by thread inserts or larger fasteners.

SCZ-4 — Jaw contact pad zone: 50–150 MPa Hertzian contact stress (Eq. 9). Extending pad area reduces peak stress and improves k_a.

SCZ-5 — Housing body: 5–30 MPa; confirms adequate wall stiffness. k*h* is not the limiting term in Eq. 5.

RESULTS AND DISCUSSION

Time-Domain Analysis

ISSN 3030-3907

Vibration amplitude reduction efficiency:

$$\eta_A = (A_{max}^{(0)} - A_{max}^{(d)}) / A_{max}^{(0)} \times 100\ \% \qquad (21)$$

Without TMD: A_{max} = 0.08–0.10 mm (unstable, periodically amplifying). With TMD tuned per Eq. (15): A_{max} = 0.04–0.05 mm, giving ηA = 30–50%.

Frequency-Domain Analysis

Spectral energy in the chatter/resonance band:

$$E = \int_{f_1}^{f_2} | X(f) |^2 \, df \qquad (22)$$

TMD reduces E in the resonance band, confirming vibrational energy attenuation at the chatter-prone natural frequency ωn = √(k_ac/m).

Coherence Function Analysis

Without TMD:

$$\gamma^2_{Fcx}(f) \approx 0.85–0.90 \qquad (23)$$

85–90% of the vibration energy at chatter frequencies is deterministically caused by the cutting force. With TMD active:

$$\gamma^2_{Fcx}(f) \approx 0.40–0.50 \qquad (24)$$

Coherence reduction efficiency:

$$\eta_\gamma = (\gamma^2_{(0)} - \gamma^2_{(d)}) / \gamma^2_{(0)} \times 100\ \% \approx 44–53\ \% \qquad (25)$$

This proves scientifically that the TMD suppresses the chatter mechanism not only by reducing amplitude but also by weakening the deterministic coupling between cutting force and vibration. The coherence reduction ηγ is a more rigorous metric of damping efficiency than amplitude reduction alone.

Summary of Governing Equations

Table 2.

Complete set of governing equations

Eq.	Expression	Physical meaning
(4)	$k = F / \delta$	Fundamental stiffness definition
(5)	$1/k_{eq} = \Sigma(1/k)$	Series equivalent stiffness
(6)	$k_{eq} \geq 120\,000$ N/mm	Minimum stiffness for $\delta \leq 0.01$ mm
(7)	$F_{cl} = p \cdot A \cdot \eta;\ A = \pi D^2/4$	Pneumatic clamping force
(8)	$\delta_j \propto L^3$	Cantilever jaw deflection law
(9)	$k_c = (4/3)E^* \sqrt{R}\delta^{1/2}$	Hertzian contact stiffness
(10)	$m\ddot{x} + (c+c_d)\dot{x} + (k+k_d)x = F_c(t)$	1-DOF damped oscillator
(11)	$H(\omega) = 1/(k - m\omega^2 + jc\omega)$	Frequency response function
(12)	$\omega_n = \sqrt{(k/m)},\ \zeta = c/(2\sqrt{(km)})$	Natural frequency & damping ratio

ISSN 3030-3907

Eq.	Expression	Physical meaning
(13)	$F_c(t) = K_c[x(t)-x(t-\tau)]$	Regenerative cutting force
(15)	$f_{opt} = 1/(1+\mu)$, $\zeta_{opt} = \sqrt{(3\mu/8(1+\mu)^3)}$	Den Hartog TMD tuning
(16)	$H_1(\omega) = G_{XF}/G_{FF}$	FRF H_1 estimator
(3)	$\gamma^2(f) = \lvert G_{Fcx}\rvert^2 / (G_{FcFc}\cdot G_{xx})$	Coherence function
(21)	$\eta_A = (A^0-A^d)/A^0 \times 100\%$	Amplitude reduction efficiency
(25)	$\eta_\gamma = (\gamma^{2(0)}-\gamma^{2(d)})/\gamma^{2(0)} \times 100\%$	Coherence reduction efficiency

Based on the analytical models and FEA results, the following improvements are recommended to achieve $k_ac \geq 120\,000$ N/mm and suppress chatter:

—Housing reinforcement: Increase wall thickness and add internal ribs (kh). Target wall ratio t/L > 0.08.

—Jaw overhang reduction: Reduce h_0 from 300 mm to ≤ 150 mm; use supplementary supports — eightfold stiffness gain per Eq. (8).

—Contact pad extension: Hardened flat or prismatic pads to distribute Hertzian stress and improve k_a per Eq. (9). Targets SCZ-4.

—Pneumatic fitting redesign: Add fillet radius ≥ 3 mm at SCZ-1; use AISI 4140 inserts to prevent fatigue failure.

—Guide clearance control: Maintain backlash ≤ 5 μm via precision grinding; anti-backlash devices minimise k^G losses.

—TMD integration: Install passive TMD ($m_2 \approx 5$–10% of m_1) tuned per Eq. (15) for 40–60% peak reduction.

—Pressure stabilisation: Pressure regulator limiting $\delta p \leq 0.05$ MPa to prevent dynamic clamping force variation.

CONCLUSIONS.

A coherence-based mathematical–dynamic framework for evaluating the constructive stiffness and vibration behaviour of a pneumatic fixture in milling has been developed and validated. Key findings:

—Series stiffness model identifies contact and guide stiffness as dominant limiting factors; design target $k_ac \geq 120\,000$ N/mm for $\delta \leq 0.01$ mm.

—Clamping forces 1.77–3.53 kN are achievable with a 50 mm bore cylinder at 1.0–2.0 MPa.

—1-DOF and 2-DOF TMD models provide FRF, coherence, and half-power bandwidth estimators. Den Hartog tuning (03BC = 0.05–0.10) reduces resonance amplitude 40–60%.

ISSN 3030-3907

—FEA reveals SCZ-1 (pneumatic ports) approaches yield stress (350/355 MPa) and is the critical fatigue-risk zone.

—Coherence analysis shows the TMD reduces deterministic coupling between cutting force and vibration by 44–53%, providing stronger scientific evidence than amplitude reduction alone.

—Overhang reduction from 300 mm to 150 mm is the single most impactful design modification (eightfold stiffness gain).

Future work will focus on experimental validation under real cutting conditions and systematic TMD parameter optimisation.

REFERENCES

1. Altintas Y. Manufacturing Automation. Cambridge University Press, 2012.
2. Tobias S.A. Machine Tool Vibration. Blackie, London, 1965.
3. Tlusty J. Manufacturing Processes and Equipment. Prentice Hall, 2000.
4. Schmitz T.L., Smith K.S. Machining Dynamics. Springer, 2009.
5. Bi Z.M., Zhang W.J. Flexible fixture design and automation. Int. J. Production Research, 39(13), 2867–2894, 2001.
6. Ewins D.J. Modal Testing: Theory, Practice and Application (2nd ed.). Research Studies Press, 2000.
8. Budak E., Altintas Y. Analytical prediction of chatter stability. ASME J. Manuf. Sci., 1995.
9. Den Hartog J.P. Mechanical Vibrations (4th ed.). McGraw-Hill, New York, 1956.
10. Sims N.D. Vibration absorbers for chatter suppression. J. Sound and Vibration, 2007.
11. Ratchev S., Liu S. Milling error prediction and compensation. Int. J. Machine Tools and Manufacture, 44(15), 1629–1641, 2004.
12. Insperger T., Stepan G. Semi-Discretization Method for Time-Delay Systems. Springer, 2011.
13. ANSYS Inc. ANSYS Mechanical User Guide, Release 2023 R1. Canonsburg, PA, 2023.

ISSN 3030-3907

MOBIL ILOVALAR ORQALI O‘QITUVCHILAR UCHUN RAQAMLI KUZATUV VA DIAGNOSTIKA TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Abduraximova Sarvinoz
Osiyo Xalqaro Universitet magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘qituvchilar faoliyatini mobil ilovalar orqali raqamli kuzatish, tahlil qilish va diagnostika qilish tizimini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Hozirgi raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni baholash, o‘quv jarayonidagi muammolarni erta aniqlash va metodik yordam ko‘rsatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada mobil ilovalarning o‘qituvchi faoliyatini monitoring qilishdagi imkoniyatlari, diagnostik ko‘rsatkichlar tizimi, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish mexanizmlari, raqamli kuzatuv tizimining pedagogik samaradorligi hamda uni ishlab chiqishning metodik va texnologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘qituvchilar faoliyatini baholashda subyektiv yondashuvlarni kamaytirish, real vaqt rejimida ma’lumot olish, individual rivojlanish xaritasini shakllantirish va boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslangan holda qabul qilish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar va ularning yechimlari, xalqaro tajribalar hamda raqamli ta’lim ekotizimida mobil diagnostika tizimining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mobil ilova, raqamli kuzatuv, pedagogik diagnostika, o‘qituvchi faoliyati, monitoring, ta’lim sifati, raqamli ta’lim, analitika, metodik qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы разработки системы цифрового наблюдения и диагностики деятельности учителей с использованием мобильных приложений. В условиях современной цифровой трансформации образования особое значение приобретают повышение качества обучения, объективная оценка педагогической деятельности, своевременное выявление проблем в образовательном процессе и оказание методической поддержки педагогам. В статье анализируются возможности мобильных приложений в мониторинге деятельности учителя, система диагностических показателей, механизмы сбора и анализа данных, педагогическая эффективность цифровой системы наблюдения, а также методические и технологические основы её разработки. Обоснована необходимость снижения субъективности при оценке деятельности учителей, получения данных в режиме реального времени, формирования индивидуальной траектории профессионального развития и принятия управленческих решений на основе объективной информации. Кроме того, раскрываются существующие проблемы и пути

ISSN 3030-3907

их решения, международный опыт и роль мобильной диагностической системы в цифровой образовательной экосистеме.

Ключевые слова: мобильное приложение, цифровое наблюдение, педагогическая диагностика, деятельность учителя, мониторинг, качество образования, цифровое образование, аналитика, методическая поддержка.

Abstract. This article discusses the development of a digital observation and diagnostic system for teachers through mobile applications. In the context of modern digital transformation, improving the quality of education, assessing teachers' professional activity, identifying educational problems in a timely manner, and providing methodological support are becoming increasingly important. The article analyzes the potential of mobile applications in monitoring teacher activity, the system of diagnostic indicators, mechanisms for collecting and analyzing data, the pedagogical effectiveness of digital observation systems, and the methodological and technological foundations of their development. The study substantiates the need to reduce subjectivity in evaluating teachers' performance, obtain real-time data, create an individual professional development map, and make evidence-based management decisions. The article also examines existing problems and solutions, international experience, and the role of mobile diagnostic systems in the digital education ecosystem.

Keywords: mobile application, digital observation, pedagogical diagnostics, teacher activity, monitoring, education quality, digital education, analytics, methodological support.

KIRISH.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini zamonaviylashtirish, balki pedagogik faoliyatni ilmiy asosda kuzatish, baholash va rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Raqamli ta'lim muhitining kengayishi o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki o‘quv jarayonini loyihalovchi, raqamli resurslardan samarali foydalanuvchi, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qiluvchi va o‘z pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib boruvchi mutaxassis sifatida qaralmoqda.UNESCO tomonidan e'lon qilingan 2023-yilgi "Technology in education" hisobotida ta'lim texnologiyalari o‘quv natijalariga xizmat qilishi, texnologiya esa o‘qituvchini almashtiruvchi emas, balki pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lishi kerakligi ta'kidlanadi . Bu yondashuv mobil ilovalar asosida yaratiladigan raqamli kuzatuv va diagnostika tizimlari uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki bunday tizimlar nazorat qilish uchun emas, balki o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, pedagogik muammolarni aniqlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.O‘zbekiston

ISSN 3030-3907

Respublikasida ham raqamli transformatsiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim va ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilangan . Mazkur strategik yondashuv ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv, elektron monitoring, mobil xizmatlar va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.O‘qituvchilar faoliyatini kuzatish va diagnostika qilish an’anaviy ravishda dars kuzatuvi, metodik tahlil, hujjatlar tekshiruvi, so‘rovnoma va hisobotlar asosida amalga oshiriladi. Biroq bunday usullar ko‘p hollarda vaqt talab qiladi, subyektiv baholash ehtimolini oshiradi va o‘qituvchi faoliyatidagi real dinamikani to‘liq aks ettirmaydi. Mobil ilovalar asosida ishlab chiqilgan raqamli kuzatuv tizimi esa o‘qituvchining darsga tayyorgarligi, dars jarayonidagi faolligi, o‘quvchilar bilan ishlash uslubi, baholash madaniyati, raqamli resurslardan foydalanishi, metodik hujjatlarni yuritishi va kasbiy rivojlanish jarayonini uzluksiz kuzatish imkonini beradi.Shu jihatdan, mazkur maqolaning dolzarbligi mobil ilovalar orqali o‘qituvchilar uchun raqamli kuzatuv va diagnostika tizimini ishlab chiqishning pedagogik, metodik va texnologik asoslarini yoritish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularning amaliy yechimlarini taklif etish bilan belgilanadi.

Ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi, dars jarayonini tashkil etish madaniyati va o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligiga bog‘liq. Shu sababli o‘qituvchi faoliyatini tizimli kuzatish va diagnostika qilish har qanday ta’lim muassasasi uchun muhim boshqaruv vazifasidir. An’anaviy kuzatuv tizimida rahbar yoki metodist darsga kiradi, ma’lum mezonlar asosida tahlil qiladi va umumiy xulosa beradi. Biroq bunday yondashuv doimiylik, tezkorlik va ma’lumotlarning chuqur tahlil qilinishi nuqtayi nazaridan cheklangan.Raqamli kuzatuv tizimi esa o‘qituvchi faoliyatini faqat bir martalik dars kuzatuvi asosida emas, balki doimiy yig‘iladigan ma’lumotlar, statistik ko‘rsatkichlar, diagnostik indikatorlar va tahliliy hisobotlar orqali baholash imkonini beradi. Mobil ilova bu jarayonni yanada qulaylashtiradi, chunki u har qanday joyda, real vaqt rejimida va foydalanuvchi uchun sodda interfeys orqali ishlashi mumkin.OECD tomonidan 2023-yilda e’lon qilingan “Digital Education Outlook” hisobotida mamlakatlar raqamli ta’lim ekotizimini shakllantirishda ma’lumotlar, sun’iy intellekt, raqamli boshqaruv va tahliliy vositalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratayotgani ko‘rsatilgan . Bu esa o‘qituvchi faoliyatini mobil ilovalar orqali kuzatish va diagnostika qilish tizimlari kelajakda ta’lim boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylanishini anglatadi.So‘nggi yillarda ta’limda raqamli texnologiyalar, mobil ilovalar, pedagogik diagnostika va o‘qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish masalalari

ISSN 3030-3907

ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilmoqda. UNESCO hisobotlarida ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda asosiy mezon texnologiyaning o‘zi emas, balki uning ta’lim sifati, tenglik, inklyuzivlik va samaradorlikka ta’siri bo‘lishi kerakligi qayd etiladi . Demak, mobil diagnostika tizimi ham tashqi nazorat vositasi sifatida emas, balki pedagogik rivojlanish va ta’lim sifatini oshirish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur.Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu konsepsiyasi o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini baholash va rivojlantirish uchun muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu model pedagoglarning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli resurslarni tanlash, o‘quvchilarni jalb qilish, baholash va o‘quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi . Mazkur yondashuv o‘qituvchilar uchun ishlab chiqiladigan raqamli kuzatuv tizimida diagnostik indikatorlar tuzishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.OECD tadqiqotlarida raqamli ta’lim ekotizimida ma’lumotlar asosida boshqaruv, o‘quv natijalarini tahlil qilish va raqamli vositalar orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish masalalari muhim o‘rin egallaydi . Bu yondashuv o‘qituvchi faoliyatini baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki jarayon ko‘rsatkichlariga ham e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.Mahalliy ta’lim tizimida ham pedagogik diagnostika, monitoring va raqamli boshqaruv masalalari dolzarb hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan . Shundan kelib chiqib, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyatini mobil ilovalar orqali diagnostika qilish tizimini yaratish milliy raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar faoliyatini raqamli kuzatish tizimi quyidagi ilmiy-metodik talablarga javob berishi kerak: birinchidan, u pedagogik faoliyatni kompleks baholashi; ikkinchidan, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi; uchinchidan, ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ishi; to‘rtinchidan, rahbar va metodistlar uchun tahliliy hisobotlar yaratishi; beshinchidan, baholashda subyektivlikni kamaytirishi lozim.O‘qituvchilar faoliyatini baholashda uchraydigan asosiy muammolardan biri kuzatuv jarayonining yetarlicha tizimlashtirilmaganidir. Ko‘plab ta’lim muassasalarida dars tahlili qog‘oz shaklidagi varaqalar, umumiy tavsiyalar yoki subyektiv fikrlar asosida olib boriladi. Natijada o‘qituvchining kuchli va zaif tomonlari, metodik ehtiyojlari, raqamli kompetensiyasi va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari aniq ko‘rinmay qoladi.Ikkinchi muammo — diagnostik ma’lumotlarning tarqoqligidir. Dars kuzatuvi, o‘quvchilar fikri, rahbar xulosasi, metodik ishlar, baholash natijalari va raqamli resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari ko‘pincha alohida-alohida

ISSN 3030-3907

saqlanadi. Bu esa umumiy tahlil qilishni qiyinlashtiradi.Uchinchi muammo — real vaqt rejimidagi monitoringning yetishmasligidir. An’anaviy tizimda o‘qituvchi faoliyati ma’lum davr yakunida tahlil qilinadi. Biroq pedagogik muammolarni erta aniqlash va tezkor metodik yordam ko‘rsatish uchun doimiy kuzatuv zarur.To‘rtinchi muammo — baholash mezonlarining bir xil emasligidir. Turli kuzatuvchilar bir xil darsni turlicha baholashi mumkin. Bu esa baholashning obyektivligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Mazkur muammolarning yechimi sifatida mobil ilovalar asosida ishlaydigan raqamli kuzatuv va diagnostika tizimini ishlab chiqish taklif etiladi. Bunday tizim quyidagi vazifalarni bajaradi: o‘qituvchi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘adi, diagnostik indikatorlar asosida tahlil qiladi, individual rivojlanish xaritasini shakllantiradi, rahbar va metodistlar uchun hisobotlar yaratadi, o‘qituvchiga tavsiyalar beradi hamda ta’lim sifatini boshqarish jarayonini raqamlashtiradi.

Mobil ilova asosidagi raqamli kuzatuv tizimi — bu o‘qituvchi faoliyatini belgilangan pedagogik, metodik, tashkiliy va raqamli ko‘rsatkichlar asosida muntazam kuzatish, baholash, tahlil qilish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot tizimidir. Bunday tizim oddiy elektron jurnal yoki hisobot dasturidan farq qiladi. Uning asosiy vazifasi faqat ma’lumot saqlash emas, balki diagnostik tahlil asosida pedagogik qaror qabul qilishga yordam berishdir.Tizimda o‘qituvchi faoliyati bir nechta yo‘nalish bo‘yicha kuzatiladi. Birinchi yo‘nalish — dars jarayonini tashkil etish sifati. Bunda dars maqsadining aniqligi, metodlarning mosligi, o‘quvchilar faolligi, interaktiv usullardan foydalanish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va baholashning shaffofligi inobatga olinadi. Ikkinchi yo‘nalish — o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi. Bunda elektron resurslar, taqdimotlar, onlayn platformalar, mobil ilovalar, test tizimlari va interaktiv vositalardan foydalanish darajasi baholanadi. Uchinchi yo‘nalish — metodik faoliyat. Bunda dars ishlanmalari, o‘quv materiallari, baholash mezonlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari va metodik yangiliklardan foydalanish holati tahlil qilinadi. To‘rtinchi yo‘nalish — kasbiy rivojlanish. Bunda o‘qituvchining malaka oshirish kurslarida ishtiroki, seminar-treninglardagi faolligi, ilmiy-metodik ishlari va o‘z ustida ishlash ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.Mobil ilova orqali ishlaydigan raqamli kuzatuv va diagnostika tizimi bir nechta funksional modullardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq.Birinchi modul — **foydalanuvchilar moduli**. Bu modulda administrator, rahbar, metodist, o‘qituvchi va kuzatuvchi rollari belgilanadi. Har bir foydalanuvchining huquq va imkoniyatlari tizimda aniq ajratiladi.Ikkinchi modul — **dars kuzatuvi moduli**. Ushbu modul orqali kuzatuvchi mobil ilova yordamida darsni belgilangan mezonlar asosida baholaydi. Masalan, darsning tashkiliy qismi, maqsad va natija uyg‘unligi, o‘quvchilar bilan ishlash, savol-javoblar, amaliy topshiriqlar, interaktiv metodlar,

ISSN 3030-3907

baholash va refleksiya alohida indikatorlar sifatida kiritiladi.Uchinchi modul — **diagnostika moduli**. Bu modul o‘qituvchi faoliyati bo‘yicha yig‘ilgan ma’lumotlarni qayta ishlaydi va umumiy diagnostik natijani chiqaradi. Natija faqat ball ko‘rinishida emas, balki “kuchli tomonlar”, “takomillashtirilishi kerak bo‘lgan jihatlar”, “metodik tavsiyalar” va “rivojlanish yo‘nalishlari” shaklida beriladi.To‘rtinchi modul — **analitika va hisobotlar moduli**. Bu modul rahbar va metodistlar uchun statistik hisobotlar tayyorlaydi. Masalan, o‘qituvchilar kesimida umumiy ko‘rsatkichlar, fanlar bo‘yicha tahlil, dars sifati dinamikasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va metodik ehtiyojlar aniqlanadi.Beshinchi modul — **individual rivojlanish xaritasi**. Ushbu modul har bir o‘qituvchi uchun shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, o‘qituvchida interaktiv metodlardan foydalanish past bo‘lsa, tizim unga shu yo‘nalishda trening, metodik qo‘llanma yoki seminar tavsiya qilishi mumkin.Oltinchi modul — **xabar va tavsiyalar moduli**. Bu modul o‘qituvchiga, metodistga yoki rahbarga tizim natijalari asosida avtomatik xabar yuboradi. Masalan, “So‘nggi uchta dars kuzatuvida baholash mezonlaridan foydalanish ko‘rsatkichi pasaygan” yoki “Raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha ijobiy dinamika kuzatilmoqda” kabi bildirishnomalar berilishi mumkin.Raqamli kuzatuv tizimining samaradorligi to‘g‘ri tanlangan diagnostik ko‘rsatkichlarga bog‘liq.

Ko‘rsatkichlar ilmiy asoslangan, o‘lchab bo‘ladigan, tushunarli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Quyidagi diagnostik ko‘rsatkichlar tizimga kiritilishi mumkin:

1-Jadval

Yo‘nalish	**Diagnostik ko‘rsatkichlar**	**Baholash shakli**
Darsni tashkil etish	Maqsadning aniqligi, vaqt taqsimoti, dars bosqichlari	Ball va izoh
Metodik mahorat	Interaktiv metodlar, muammoli savollar, amaliy topshiriqlar	Ball va tavsiya
Raqamli kompetensiya	Elektron resurs, platforma, test, taqdimotdan foydalanish	Foiz va daraja
O‘quvchilar faolligi	Savol-javob, guruh ishlari, mustaqil fikrlash	Kuzatuv belgisi
Baholash madaniyati	Mezonga asoslangan baholash, qayta aloqa, refleksiya	Ball va izoh
Kasbiy rivojlanish	Seminar, trening, ilmiy-metodik ishlar	Reyting va dinamika

ISSN 3030-3907

Bu ko‘rsatkichlar orqali o‘qituvchi faoliyatini bir tomonlama emas, balki kompleks baholash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, diagnostika natijalarining faqat nazorat uchun emas, balki metodik yordam ko‘rsatish uchun ishlatilishi muhimdir.Mobil ilova asosidagi diagnostika tizimi o‘qituvchi, metodist va rahbar uchun bir qator pedagogik imkoniyatlar yaratadi. O‘qituvchi o‘z faoliyatiga oid tahliliy ma’lumotlarni ko‘rib boradi, qaysi yo‘nalishda kuchli ekanini va qaysi jihatlarni rivojlantirish kerakligini aniqlaydi. Metodist esa umumiy muammolarni aniqlab, aniq ehtiyojlar asosida metodik yordam tashkil etadi. Rahbar esa pedagogik jarayonni real ma’lumotlar asosida boshqaradi.Bunday tizim o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini individuallashtirishga xizmat qiladi. Chunki barcha o‘qituvchilarga bir xil metodik tavsiya berish samarali emas. Har bir pedagogning ehtiyoji, tajribasi, fan yo‘nalishi, raqamli ko‘nikmasi va metodik yondashuvi turlicha bo‘ladi. Mobil diagnostika tizimi esa har bir o‘qituvchi uchun alohida tahlil va tavsiya berishi mumkin.Mobil ilova Android va iOS platformalariga mos holda ishlab chiqilishi mumkin. Tizimning server qismi ma’lumotlar bazasi, foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish, diagnostik algoritmlar, hisobotlar va xavfsizlik modullaridan iborat bo‘ladi. Ma’lumotlar bazasida o‘qituvchilar profili, dars kuzatuvlari, baholash natijalari, tavsiyalar, hisobotlar va individual rivojlanish xaritalari saqlanadi.Tizimda quyidagi texnologik talablar muhim hisoblanadi: foydalanuvchi ma’lumotlarining xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, qulay interfeys, tezkor ishlash, internet mavjud bo‘lmaganda vaqtinchalik ma’lumot saqlash, keyinchalik server bilan sinxronlash, tahliliy hisobotlarni avtomatik shakllantirish va mobil qurilmalar uchun mos dizayn.Mobil ilovalar orqali o‘qituvchilar uchun raqamli kuzatuv va diagnostika tizimini ishlab chiqish natijasida quyidagi pedagogik va boshqaruv natijalariga erishish mumkin:Birinchidan, o‘qituvchi faoliyatini baholashda obyektivlik oshadi. Chunki baholash aniq mezonlar, indikatorlar va statistik ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.Ikkinchidan, metodik yordam manzilli bo‘ladi. Ya’ni har bir o‘qituvchining ehtiyojiga mos tavsiyalar ishlab chiqiladi.Uchinchidan, ta’lim muassasasi rahbariyati uchun tahliliy boshqaruv imkoniyati yaratiladi. Rahbar qaysi fanlarda, qaysi guruhlarda yoki qaysi metodik yo‘nalishlarda muammo mavjudligini tezda aniqlashi mumkin.To‘rtinchidan, o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash motivatsiyasi kuchayadi. Chunki ular o‘z faoliyatidagi ijobiy o‘zgarishlarni grafik, reyting yoki rivojlanish xaritasi orqali ko‘rib boradi.Beshinchidan, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yagona raqamli diagnostika bazasi shakllanadi.Mobil ilovalar orqali o‘qituvchilar uchun raqamli kuzatuv va diagnostika tizimini ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tahlil qilish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. An’anaviy kuzatuv

ISSN 3030-3907

tizimlarida mavjud bo‘lgan subyektivlik, ma’lumotlarning tarqoqligi, real vaqt monitoringining yetishmasligi va metodik yordamning umumiyligi kabi muammolar mobil diagnostika tizimi orqali bartaraf etilishi mumkin.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday tizim faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki pedagogik rivojlanish, metodik qo‘llab-quvvatlash va ta’lim boshqaruvini takomillashtirish mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Mobil ilova asosida tashkil etilgan raqamli kuzatuv tizimi o‘qituvchining dars jarayoni, metodik faoliyati, raqamli kompetensiyasi, baholash madaniyati va kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.Shuningdek, mazkur tizim ta’lim muassasalarida dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, pedagogik muammolarni erta aniqlash, metodik xizmat samaradorligini oshirish va o‘qituvchilarning individual rivojlanish xaritasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu tizimga sun’iy intellekt asosidagi tavsiya moduli, avtomatik tahlil algoritmlari, dars sifatini prognozlash mexanizmi va o‘qituvchilarning raqamli portfeli kabi funksiyalarni qo‘shish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

4	Hazarbog‘ kan.	54	80
5	Qumqo‘rg‘on kan.	53	30


ISSN 3030-3907

3-jadval

Surxondaryo viloyati suv omborlari va ularning asosiy ko‘rsatkichlari


№	Suv ombori	Ishga tushgan yili	Suv sig‘imi, mln. m^3	Amaldagi suv sig‘imi, mln.m^3	To‘g‘on	
					Uzunligi, km	Balandligi, m
1	Janubiy Surxon	1967	800	503	5,2	30
2	To‘palang	1986	500	120	0,17	167
3	Uchqizil	1984	160	160	4	11,5
4	Oqtepa	1982	120	83	4,6	3
5	Degrez	1962	12,8	12,8	3,5	12,7

Surxondaryo viloyati asosiy suv manbaasi hisoblangan yer osti suvlari zaxiralariga to‘xtaladigan bo‘lsak. Yer osti suvlari tog‘ va tuproq jinslaridan filtrlanib yig‘iladi, hududda mavjud Omonxona tabiiy bulog‘i bunga misol bo‘la oladi. Yer osti suvlari har xil davr yotqiziqlari orasida uchraydi. Paleogen va neogen davri yotqiziqlari orasidagi 140-150 m chuqurlikdan chuchuk suv chiqadi. Bo‘r davri yotqiziqlari orasidagi 1000-2000 m chuqurlikdan chiquvchi mineral shifobaxsh suv harorati +60 +70°C ga yetadi. Surxondaryo viloyatida Shimoliy Surxondaryo, Janubiy Surxondaryo, Amudaryo, Tog‘li massivlar, Pashxo‘rt, Kofirinsoy yer osti chuchuk suv konlari mavjud.



1-rasm. Surxondaryo viloyati yer osti suvlari holati

ISSN 3030-3907



2-rasm. Surxondaryo viloyati asosiy yer usti suv resurslari va sanoatining joylashishi

Viloyat sanoatining yetakchi tarmoqlari: paxta tozalash, paxtani qayta ishlash korxonalaridir. Yirik sanoat korxonalari: “Surxonsement” AJ, OKMK AJ ga qarashli “Sherobod sement zavodi”, "Jarqo‘rg‘onneft" boshqarmasi, Sherobod keramika badiiy buyumlar, Denov yog‘ekstraksiya, Sariosiyo tosh saralash zavodlari, Sho‘rchi un kombinati, Jarqo‘rg‘on yigiruv-to‘quv va Termiz tikuvchilik fabrikalari, Sharg‘un ko‘mir, Xo‘jaikon tuz, Xondiza polimetal ruda konlari korxonalari va boshqalardan tarkib topgan [3]. Hududning yer osti suvlarining hozirgi holati 1-rasmda keltirib o‘tilgan. Viloyatning sanoatlashishi va yer usti suv zaxiralari 2-rasm tasvirlangan. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib tahlil ishlarini bajarsak, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- yer usti suvlaridan Xondiza polimetall kombinati (Sangardak daryo), shuningdek, qurilish jarayonida bo‘lgan Angor tumanida joylashgan yiliga 12 mlrd kW*h elektr energiya ishlab chiqaruvchi issiqlik elektr stansiyasi foydalanish imkoniyati nisbatan yuqori va amalda ham ushbu suv resurslaridan foydalanilmoqda;
- “Surxonsement”, “Sherobod sement zavodi”, “Jarqo‘rg‘onneft” boshqarmasi, Sherobod keramika badiiy buyumlar, Sho‘rchi un kombinati, Jarqo‘rg‘on yigiruv-to‘quv va Termiz tikuvchilik fabrikalari, shuningdek, hozirda qurilish bosqichida bo‘lgan ”Mustaqillikning 25-yilligi” gazni qayta ishlash zavodlarida nisbatan yer osti suvlaridan foydalanishga majbur bo‘linmoqda [4];


ISSN 3030-3907

- viloyatdagi kanallar, kollektorlar va suv omborlaridan (shu jumladan Amudaryo suvidan xam) asosan qishloq xo‘jaligi maqsadida ishlatiladi va ulardagi suvning asosiy ko‘rsatkichlarini sanoat maqsadida foydalanish uchun tozalsh va qayta ishlash qiymati yuqori (birigina Amudaryo suvining mavsumiy loyqaligi 3,9 kg/m^3 yetishi mumkin);

- yer osti suvlarining sifati o‘zgarishi tufayli (1-rasmga qaralsin) kelajakda ushbu suv resurslaridan foydalanish qiymati xam yuqorilashishi mumkin;

- viloyat janubidan o‘tgan Amudaryo suvi xam turli daryolardan transchegaraviy foydalanish muammolari (Tojikiston Respublikasi hududidagi Norak va Rog‘un GESI uchun suv omborlari qurilishi va Afg‘oniston hududida qurilayotgan Qo‘shtepa kanali) tufayli yaqin kelajakda kamayib ketish ehtimoli mavjud;

NATIJALAR. Surxondaryo viloyati sanoatlashish darajasi yuqoridir. 3-rasmda Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasining bergan ma’lumotida viloyatdagi sanoat hajmining o‘sish ko‘rsatkichlari keltirilgan [5].



3-rasm. Surxondaryo viloyati sanoat hajmining o‘sish ko‘rsatkichlari

Yer osti suvlarining Respublika miqyosidagi foydalanish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. 4- rasmda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining yer osti suv resurslaridan foydalanish haqidagi ma’lumoti taqdim etilgan [6].

ISSN 3030-3907



4-rasm. Yer osti suv resurslaridan foydalanish hajmi

Demak, sanoatlashish ulushi oshgan sari suv resurslariga, shu jumladan yer osti suvlari iste'mol talabi xam oshib bormoqda. Sanoat korxonalari yer osti suvlaridan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarur hisoblanadi.

XULOSA. Surxondaryo viloyati suv resurslaridan sanoat maqsadida foydalanishdagi muammolari sifatida:

❖ viloyatdagi yer usti suv resurslarining sanoatlashishga nisbatan noteks taqsimlanganligi;

❖ suvdan transchegaraviy foydalanishdagi geosiyosiy murakkab jarayonlar;

❖ asosiy sanoat korxonalarining yer osti suvlaridan foydalanish talabining oshib borishi;

❖ yer osti suvlarining sifat ko'rsatkichlari o'zgarishlarini keltirishimiz mumkin.

Xulosaviy tavsiyalar. Ushbu muammolarga yechim sifatida:

✓ sanoat korxonalari suv ta'minoti tizimida suvdan takror foydalanish usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

✓ mintaqada mavjud yer osti suv konlaridan sanoat maqsadida foydalanishda diversifikatsiyalashga alohida e'tibor berish;

✓ yer osti suvlarini doimiy monitoring qilib borish;

✓ suvdan tejamkorlik bilan foydalanishda xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11611-surxondaryo-tabiiy-geografik-okrugi.html
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1- jild 2001, 124-bet.
3. Abror Gadaev, Norpulat Toshmatov and Elyor Abilov. Water sources in industrial enterprises and methods of increasing their reliability (on the ehample of Sherabad cement plant). Cite as: AIP Conference Proceedings 2432, 030117 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089543 . Published Online: 16 June 2022. 030117-1.
4. Abilov, E. E. (2022). Causes and Consequences of Losses in the Water Supply System of Cement Manufacturing Enterprises. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 14, 166-172. Retrieved from http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/477
5. https://surxonstat.uz/media/com_dropfiles/284/10.pdf
6. https://www.uznature.uz/uz/posts?categoryId=6&page=14&per-page=6

ISSN 3030-3907

KON MASHINALARI RADIATOR QURILMASINING SOVUTISH TIZIMIDA TEMPERATURA DATCHIKLARINI QO‘LLASH VA TIZIM SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH

Ismatov Adxamjon Alibek o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi.
Eshmurodov Madamin Azamat o‘g‘li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 19a-21 TMJ guruhi talabasi.
E-mail: olympic9492@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada kon mashinalari radiator qurilmasining sovutish tizimida temperatura datchiklarini qo‘llash, ularning turlari, ishlash prinsipi va ulanish sxemalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Konchilik sanoatida foydalaniladigan gidravlik ekskavatorlar, avtosamosvallar, burg‘ilash qurilmalari va boshqa og‘ir texnikalar yuqori yuklama, changli muhit, harorat o‘zgarishi hamda uzluksiz ish rejimida ishlaydi. Bunday sharoitda dvigatel va gidravlik tizimlarda katta miqdorda issiqlik hosil bo‘ladi. Ushbu issiqlikni o‘z vaqtida tashqi muhitga chiqarish va haroratni me’yoriy darajada ushlab turish radiator sovutish tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi. Maqolada radiator sovutish tizimining asosiy elementlari, ya’ni radiator yadrosi, sovutish suyuqligi, suv nasosi, termostat, ventilyator, quvurlar va temperatura datchiklarining vazifasi yoritiladi. Ayniqsa, temperatura datchiklarining analog va raqamli turlari, shuningdek termoelektrik, yarimo‘tkazgichli, pirometrik, termorezistiv, akustik va piezoelektrik datchiklarning ishlash prinsiplari ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, ikki simli, uch simli, dvigatel temperatura datchigi va raqamli datchik ulanish sxemalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda radiator samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida radiator plastinalarining changlanishi, sovutish suyuqligi sifati, termostat nosozligi, suv nasosi va ventilyator samaradorligining pasayishi hamda temperatura datchiklarining noto‘g‘ri ishlashi ko‘rib chiqiladi. Sovutish tizimini optimallashtirish uchun radiatorni muntazam tozalash, sifatli sovutish suyuqligidan foydalanish, temperatura datchiklarini kalibrlash, termostat va suv nasosini diagnostika qilish, ventilyatorni nazorat qilish hamda avtomatik boshqaruv tizimlarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Kon mashinalari, radiator, sovutish tizimi, temperatura datchigi, gidravlik ekskavator, termoelektrik datchik, yarimo‘tkazgich datchik, ulanish sxemasi, issiqlik almashinuvi, optimallashtirish.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется применение температурных датчиков в системе охлаждения радиаторного устройства горных машин, а также рассматриваются их виды, принцип работы и схемы подключения. Гидравлические экскаваторы, автосамосвалы, буровые

установки и другая тяжёлая техника, используемая в горнодобывающей промышленности, работают в условиях высокой нагрузки, запылённой среды, изменения температуры и непрерывного режима эксплуатации. В таких условиях в двигателе и гидравлических системах образуется большое количество тепла. Своевременный отвод этого тепла во внешнюю среду и поддержание температуры на допустимом уровне являются основными задачами радиаторной системы охлаждения. В статье освещаются основные элементы системы охлаждения радиатора: сердцевина радиатора, охлаждающая жидкость, водяной насос, термостат, вентилятор, трубопроводы и температурные датчики. Особое внимание уделяется аналоговым и цифровым видам температурных датчиков, а также принципам работы термоэлектрических, полупроводниковых, пирометрических, терморезистивных, акустических и пьезоэлектрических датчиков. Кроме того, анализируются двухпроводные, трёхпроводные схемы подключения, схемы подключения датчика температуры двигателя и цифрового температурного датчика. В исследовании в качестве основных факторов, влияющих на эффективность радиатора, рассматриваются загрязнение пластин радиатора пылью, качество охлаждающей жидкости, неисправность термостата, снижение эффективности водяного насоса и вентилятора, а также неправильная работа температурных датчиков. Для оптимизации системы охлаждения рекомендуется регулярная очистка радиатора, использование качественной охлаждающей жидкости, калибровка температурных датчиков, диагностика термостата и водяного насоса, контроль работы вентилятора, а также применение автоматизированных систем управления.

Ключевые слова: Горные машины, радиатор, система охлаждения, температурный датчик, гидравлический экскаватор, термоэлектрический датчик, полупроводниковый датчик, схема подключения, теплообмен, оптимизация.

Annotation. This article theoretically analyzes the application of temperature sensors in the radiator cooling system of mining machines, as well as their types, operating principles, and connection diagrams. Hydraulic excavators, dump trucks, drilling rigs, and other heavy equipment used in the mining industry operate under high load, dusty environments, temperature variations, and continuous working conditions. Under such conditions, a large amount of heat is generated in engines and hydraulic systems. Timely removal of this heat into the external environment and maintaining the temperature at a permissible level are the main functions of the radiator cooling system. The article describes the main elements of the radiator cooling system, including the radiator core, coolant, water

ISSN 3030-3907

pump, thermostat, fan, pipelines, and temperature sensors. Special attention is paid to analog and digital types of temperature sensors, as well as the operating principles of thermoelectric, semiconductor, pyrometric, thermoresistive, acoustic, and piezoelectric sensors. In addition, two-wire and three-wire connection diagrams, engine temperature sensor connection diagrams, and digital temperature sensor connection diagrams are analyzed. The study considers the main factors affecting radiator efficiency, such as dust accumulation on radiator fins, coolant quality, thermostat malfunction, reduced efficiency of the water pump and fan, and incorrect operation of temperature sensors. To optimize the cooling system, regular radiator cleaning, the use of high-quality coolant, calibration of temperature sensors, diagnostics of the thermostat and water pump, fan operation control, and the application of automated control systems are recommended.

Keywords: Mining machines, radiator, cooling system, temperature sensor, hydraulic excavator, thermoelectric sensor, semiconductor sensor, connection diagram, heat exchange, optimization.

KIRISH.

Konchilik sanoatida qo‘llaniladigan zamonaviy kon mashinalari ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va samaradorligini ta’minlovchi asosiy texnik vositalardan biri hisoblanadi. Gidravlik ekskavatorlar, avtosamosvallar, burg‘ilash qurilmalari, buldozerlar va boshqa og‘ir texnikalar yuqori yuklama, changli muhit, haroratning o‘zgarishi va uzoq muddatli ish rejimida faoliyat yuritadi. Bunday sharoitlarda mashinaning dvigateli, gidravlik tizimi va boshqa ishchi mexanizmlarida katta miqdorda issiqlik hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan issiqlikni o‘z vaqtida tashqi muhitga chiqarish esa mashinaning ishonchli va xavfsiz ishlashida muhim ahamiyatga ega.

Kon mashinalarida sovutish tizimining asosiy vazifasi dvigatel va gidravlik agregatlarda hosil bo‘ladigan ortiqcha issiqlikni kamaytirish, ishchi qismlarning me’yoriy haroratda ishlashini ta’minlash hamda texnikaning xizmat muddatini uzaytirishdan iborat. Ushbu tizimning muhim elementi radiator qurilmasidir. Radiator sovutish suyuqligi orqali dvigatel yoki gidravlik tizimdan issiqlikni qabul qilib, uni tashqi havo oqimi yordamida sovitadi. Agar radiator samarali ishlamasa, dvigatel qizib ketishi, moylash materiallarining xossalari yomonlashishi, gidravlik suyuqlik yopishqoqligi o‘zgarishi va mexanik detallar yeyilishi tezlashishi mumkin.

Radiator sovutish tizimining barqaror ishlashida temperatura datchiklari alohida ahamiyatga ega. Ular sovutish suyuqligi yoki dvigatel haroratini aniqlaydi, olingan signalni boshqaruv blokiga uzatadi va zarur holatda ventilyator ish rejimini avtomatik tartibga solishga yordam beradi. Zamonaviy kon

ISSN 3030-3907

mashinalarida temperatura datchiklaridan foydalanish nafaqat haroratni nazorat qilish, balki nosozliklarni erta aniqlash, dvigatelning qizib ketishining oldini olish va texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Temperatura datchiklari ishlash prinsipi va signal uzatish usuliga ko‘ra turli turlarga bo‘linadi. Jumladan, termoelektrik, yarimo‘tkazgichli, pirometrik, termorezistiv, akustik va piezoelektrik datchiklar sanoat va transport texnikalarida keng qo‘llaniladi. Har bir datchik turi o‘ziga xos qurilma, sezgirlik, aniqlik va ulanish xususiyatlariga ega. Shu sababli kon mashinalarida radiator sovutish tizimi uchun datchik turini to‘g‘ri tanlash, uning ulanish sxemasini moslashtirish va ish holatini doimiy nazorat qilish muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi kon mashinalari radiator qurilmasining sovutish tizimida temperatura datchiklarini qo‘llash, ularning turlari, ishlash prinsipi va ulanish sxemalarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida radiator sovutish tizimining asosiy elementlari, temperatura datchiklarining vazifasi, ikki simli va uch simli ulanish sxemalari, raqamli datchiklarning avtomatik boshqaruv tizimidagi o‘rni hamda sovutish tizimini optimallashtirish choralari ko‘rib chiqiladi.

Mazkur tadqiqotda kon mashinalarining radiator qurilmasini sovutish tizimini nazariy tahlil qilish va optimallashtirish masalasi tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida gidravlik ekskavatorlar, avtosamosvallar, burg‘ilash qurilmalari va boshqa og‘ir kon texnikalarida qo‘llaniladigan radiator sovutish tizimi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa radiator qurilmasida kechadigan issiqlik almashinuvi, sovutish suyuqligining aylanishi, ventilyator yordamida havo oqimini hosil qilish, termostatning ish rejimi hamda temperatura datchiklari orqali haroratni nazorat qilish jarayonlaridan iborat.

Metodologik yondashuvda sovutish tizimi alohida texnik elementlar bo‘yicha tahlil qilindi. Bunda radiator yadrosi, sovutish suyuqligi, suv nasosi, termostat, ventilyator, quvurlar va temperatura datchiklarining vazifasi o‘rganildi. Har bir elementning sovutish samaradorligiga ta’siri nazariy jihatdan baholandi. Ayniqsa, kon sharoitida radiator plastinalarining chang va mayda zarrachalar bilan qoplanishi, havo oqimining kamayishi, sovutish suyuqligi sifatining pasayishi va datchiklarning noto‘g‘ri ishlashi asosiy ta’sir omillari sifatida ajratib olindi.


1. Temperatura datchiklarining turlari va ishlash prinsipini tahlil qilish

Tadqiqot davomida temperatura datchiklarining turlari, qurilmasi va ishlash prinsipi alohida ko‘rib chiqildi. Haroratni o‘lchash ma’lumotlarini uzatish va ko‘rsatish usuliga ko‘ra datchiklar analog va raqamli turlarga bo‘linadi. Ishlash prinsipiga ko‘ra esa termoelektrik, yarimo‘tkazgichli, pirometrik, termorezistiv,

ISSN 3030-3907


akustik va piezoelektrik datchiklar tahlil qilindi. Ushbu datchiklarning umumiy vazifasi sovutish suyuqligi yoki dvigatel haroratini aniqlash, olingan signalni boshqaruv blokiga uzatish va tizimning xavfsiz ish rejimini ta’minlashdan iborat.

Termoelektrik datchikning ishlashi termojuft prinsipiga asoslanadi. Bunda turli metallarning birikish nuqtasi qizdirilganda potensiallar farqi yuzaga keladi va harorat qiymatini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunday datchiklar yuqori haroratli muhitlarda ishlashga mosligi bilan ajralib turadi.



1-rasm. Termoelektrik temperatura datchigining umumiy ko‘rinishi

Yarimo‘tkazgichli temperatura datchiklari esa volt-amper xususiyatiga ega kristallar asosida ishlaydi. Harorat oshishi bilan yarimo‘tkazgich elementining elektr parametrlari o‘zgaradi va bu o‘zgarish kuchaytirgich yoki mikrokontroller orqali qayta ishlanadi. Bunday datchiklar kichik o‘lchamli, yuqori sezgirlikka ega va avtomatik boshqaruv tizimlariga qulay integratsiya qilinadi.




2-rasm. Yarimo‘tkazgich temperatura datchigini kuchaytirgich orqali ulash sxemasi

Pirometrik datchiklar obyekt bilan bevosita kontaktsiz holda ishlaydi. Ular sirt haroratidagi o‘zgarishni infraqizil nurlanish yoki ma’lum chastota oralig‘idagi


ISSN 3030-3907

signal orqali aniqlaydi. Kon mashinalarida bunday yondashuv qizigan sirtlarni masofadan nazorat qilish va xavfli zonalarga yaqinlashmasdan diagnostika olib borish imkonini beradi.



3-rasm. Pirometrik datchikning ishlash prinsipi

Akustik temperatura datchiklari material yoki sirt haroratiga qarab tovush tebranishlarining tarqalish tezligi o‘zgarishiga asoslanadi. Piezoelektrik element orqali yuborilgan signal qabul qilgich tomonidan qayd etiladi va tebranishlarning o‘tish vaqti bo‘yicha harorat baholanadi. Ushbu usul yirik konstruksiyalar va yopiq hajmlarda haroratni nazorat qilishda qo‘llanishi mumkin.




4-rasm. Akustik temperatura datchigining ishlash sxemasi

2. Temperatura datchiklarining ulanish sxemalarini tahlil qilish

Temperatura datchiklarining ulanish sxemasi o‘lchash aniqligi, masofa, signallarni uzatish sifati va boshqaruv blokining konstruktiv xususiyatlariga


ISSN 3030-3907

bog‘liq holda tanlanadi. Qisqa masofali nazorat tizimlarida ikki simli ulanish sxemasi qo‘llaniladi. Bu sxemada sezgir elementning qarshiligi va ulanish simlari qarshiligi o‘lchash natijasiga ta’sir ko‘rsatadi, lekin masofa qisqa bo‘lganda xatolik nisbatan kichik bo‘ladi.



5-rasm. Ikki simli temperatura datchigi ulanish sxemasi

Uzoq masofalarda, ayniqsa 150 metr va undan ortiq masofada, uch simli ulanish sxemasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda R1, R2 va R3 simlaridagi qarshilik xatosi kompensatsiya qilinadi va haroratni o‘lchash aniqligi oshadi. Kon mashinalarida datchik va boshqaruv bloki orasidagi masofa turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli ushbu sxema amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.




6-rasm. Uch simli temperatura datchigi ulanish sxemasi

Dvigatel temperatura datchigining ulanish sxemasi harorat parametrlarini doimiy nazorat qilishga xizmat qiladi. Datchik dvigatel yoki sovutish tizimining belgilangan nuqtasiga o‘rnatiladi va signalizatsiya bloki yoki elektron boshqaruv


ISSN 3030-3907

blokiga signal uzatadi. Harorat me’yordan oshganda operator ogohlantiriladi yoki sovutish tizimining ish rejimi avtomatik tarzda o‘zgartiriladi.



7-rasm. Dvigatel temperatura datchigi ulanish sxemasi

Raqamli temperatura datchiklari zamonaviy avtomatik boshqaruv tizimlarida keng qo‘llaniladi. Bunday datchiklarda GND, DATA va +5 V chiqishlari orqali mikrokontroller bilan bog‘lanish amalga oshiriladi. DATA liniyasi orqali o‘lchangan harorat qiymati raqamli signal sifatida uzatiladi, bu esa ma’lumotni qayta ishlash va ventilyator ish rejimini avtomatik boshqarishni soddalashtiradi.



8-rasm. Raqamli temperatura datchigining mikrokontrollerga ulanish sxemasi

3.Radiator sovutish tizimi samaradorligini baholashda issiqlik almashinuvi jarayoni asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Radiator plastinalarining tozaligi, havo oqimi tezligi, sovutish suyuqligining aylanishi, tashqi havo harorati va ventilyator ish rejimi tizim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Kon sharoitida chang va mayda zarrachalar radiator plastinalari orasida to‘planib, havo almashinuvini yomonlashtiradi. Natijada issiqlik almashinuvi sekinlashadi va dvigatel yoki gidravlik tizim harorati oshishi mumkin.

Tadqiqotda radiatorni tozalash jarayoniga ham alohida e’tibor qaratildi. Radiatorning yupqa alyumin plastinalari qo‘pol cho‘tka, kuchli suv bosimi yoki agressiv yuvish vositalari ta’sirida deformatsiyalanishi mumkin. Shuning uchun


ISSN 3030-3907

tozalash jarayonida radiator yuzasiga zarar yetkazmaydigan usullardan foydalanish, siqilgan havo bosimini me’yorlash va texnik xizmat ko‘rsatish tartibiga rioya qilish talab etiladi.

4. Optimallashtirish yondashuvi

Optimallashtirish bosqichida radiatorni muntazam tozalash, sifatli sovutish suyuqligidan foydalanish, termostat va suv nasosini diagnostika qilish, ventilyator parraklari hamda muftasini tekshirish, temperatura datchiklarini kalibrlash yoki nosoz holatda almashtirish kabi chora-tadbirlar asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilandi. Bundan tashqari, raqamli temperatura datchiklari va avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanish sovutish jarayonini aniqroq nazorat qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi radiator sovutish tizimini alohida qismlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq texnik tizim sifatida tahlil qilishga asoslandi. Bunday yondashuv kon mashinalarining haqiqiy ish sharoitida sovutish tizimi samaradorligini baholash, asosiy nosozlik omillarini aniqlash va radiator qurilmasini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.



9-rasm. Datchik turi va ulanish sxemasiga qarab sovutish tizimini nazorat qilish samaradorligi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, radiator sovutish tizimida eng yuqori nazorat samaradorligi raqamli temperatura datchigi mikrokontroller orqali ulanganda kuzatiladi. Bunday ulanishda harorat signali elektron shaklda qayta ishlanadi, natijada ventilyator ish rejimini avtomatik boshqarish va operatorga ogohlantirish berish imkoniyati ortadi. Shu sababli raqamli datchiklar zamonaviy kon mashinalarida sovutish tizimini avtomatlashtirish uchun eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Termorezistiv datchikning uch simli ulanishi ham yuqori samaradorlikka ega, chunki uch simli sxema uzoq masofalarda ulanish simlaridagi qarshilik xatosini kamaytiradi. Bu esa harorat o‘lchovlarining aniqligini oshiradi va sovutish tizimining barqaror boshqarilishiga yordam beradi. Ikki simli ulanish esa tuzilishi sodda bo‘lsa-da, asosan qisqa masofalarda samarali hisoblanadi.

Yarimo‘tkazgichli datchiklar kuchaytirgich orqali ulanganda signalni qayta ishlash imkoniyati ortadi. Bu turdagi datchiklar kichik o‘lchamli, sxemalarga qulay joylashadigan va harorat o‘zgarishiga sezgir bo‘lganligi sababli radiator tizimida nazorat elementi sifatida foydali hisoblanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, kon mashinalarining radiator sovutish tizimida temperatura datchiklarini to‘g‘ri tanlash va ulanish sxemasini moslashtirish sovutish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli datchiklarning mikrokontroller orqali ulanishi sovutish tizimini avtomatik boshqarish, haroratni aniq nazorat qilish va dvigatel qizib ketishining oldini olishda eng samarali yechim hisoblanadi. Uch simli ulanish sxemasi esa uzoq masofalarda o‘lchash aniqligini oshirib, qarshilik xatolarini kamaytiradi. Shu sababli kon mashinalarida radiator sovutish tizimini optimallashtirishda raqamli datchiklar, uch simli ulanish sxemalari va avtomatik boshqaruv tizimlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismatov Adxamjon Alibek o‘g‘li, Raxmatov Ramazonjon Ravshan o‘g‘li. Gidravlik tizimlardagi ichki nosozliklardan suyuqlik oqib chiqishini ishqalanish kuchlari asosida matematik modelini ishlab chiqish. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. Vol. 2, pp. 46-49, https://academiaone.org/index.php/2/article/view/854

2. Nabijon Abduazizov, Kamol Xakimov, Sardor Turdiyev, Akbar Zhuraev, Adxam Ismatov. The impact of the amount of pollution of the fluid in the hydraulic system on the working resource of the quarry excavator. E3S Web of Conferences, 2025. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202562705001

3. B.R Toshov, A.D Nietbaev, A.A Ismatov. Vintsimon harakatda qattiq jismning ixtiyoriy nuqtasining harakat tenglamasi va tezligi, Educational Research in Universal Sciences, c-473-476.

4. Ismatov A. A. (2025). Gidronasos porshen harakatining matematik tahlili va differensial modellashtirish. Development Of Science, 7(2), pp. 409-414. https://doi.org/0

5. Turanov E. Z., Zoxidov O. U., Xudoyberdiyev L. N. & Ismatov A. A. (2025). Kon mashinalari radiator qurilmasi gidravlik tizimini sovutishning zamonaviy texnik yechimi. Development Of Science, 10(1), pp. 378-383. https://doi.org/0

ISSN 3030-3907

6. Ismatov A. A. (2025). Gidravlik tizimdagi nasoslarning harakatlanish usullarining qiyosiy tahlillari . Development Of Science, 7(2), pp. 403-408. https://doi.org/0

7. S. Zhuraev, S. A. Turdiyev, S. T. Jurayev, and S.S. Q. Salimova, "Characteristics of packing gland seals in hydraulic systems of quarry excavators and results of comparative analysis of experimental tests," Vibroengineering Procedia, Vol. 54, pp. 252–257, Apr. 2024, https://doi.org/10.21595/vp.2024.24051.

8. Abdullayev Sardor Husniddinovich, Juraqulov Og‘abek Jurabek o‘g‘li, Kaxxarov Orif Odilovich, Ismatov Adxamjon Alibek o‘g‘li. Suyuqlik haroratini tashqi ta'sir orqali suyuqlikning yopishqoqligini tahlili. Часть-45_ Том-3_ Май-2025. С.255-258.

9. Karshibaev A. I., Zokhidov O.U. Research of potential and effectiveness of renewable energy application at mining enterprises of the Republic of Uzbekistan. Australian Journal of Science and Technology, Volume 4; Issue 4; December 2020.

UDK: 621.548:620.91(575.1)

O‘ZBEKISTONDA SHAMOL ENERGETIKASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Eshbekov Muxriddin Mashrab o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, “Elektr Energetikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
ORCID: 0009-0008-7076-3448
E-mail: mukhriddin7804@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda shamol energetikasining hozirgi holati, qonunchilik bazasi, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mamlakatning shamol resurslari geografik tarqalishi, mavjud va rejadagi qurilish loyihalari, qo‘yilmalar hajmi, tarmoqqa integratsiyalashuv muammolari va xalqaro hamkorlik tajribasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 2030 yilga qadar o‘rnatilgan shamol elektr stansiyalari quvvatini kamida 5 GVt ga yetkazishi mumkin, bu energetik mustaqillik va «yashil iqtisodiyot» maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: shamol energetikasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, shamol elektr stansiyasi, energetik siyosat, O‘zbekiston, «yashil iqtisodiyot», tarmoq integratsiyasi, investitsiya muhiti.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы современное состояние, законодательная база, технико-экономические показатели и перспективные направления развития ветроэнергетики в Узбекистане. Рассмотрены географическое распределение ветровых ресурсов страны, существующие и планируемые проекты строительства, объемы инвестиций, проблемы интеграции в единую энергосистему, а также опыт международного сотрудничества. Согласно результатам исследования, Узбекистан к 2030 году может довести установленную мощность ветряных электростанций как минимум до 5 ГВт, что станет важным фактором в достижении энергетической независимости и целей «зеленой экономики».

Ключевые слова: ветроэнергетика, возобновляемые источники энергии, ветряная электростанция, энергетическая политика, Узбекистан, «зеленая экономика», интеграция в сеть, инвестиционный климат.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the current state, legislative framework, technical-economic indicators, and prospective development directions of wind energy in Uzbekistan. The geographic distribution of wind resources, existing and planned construction projects, investment volumes, grid integration challenges, and international cooperation experience are examined. Research findings indicate that Uzbekistan can achieve an installed wind power

capacity of at least 5 GW by 2030, which will be a key factor in attaining energy independence and «green economy» goals.

Keywords: wind energy, renewable energy sources, wind power plant, energy policy, Uzbekistan, green economy, grid integration, investment climate.

KIRISH.

Jahon bo‘ylab iqlim o‘zgarishi muammolari, fosil yoqilg‘i zahiralarining kamayishi va energiya havfsizligini ta'minlash zaruriyati qayta tiklanadigan energiya manbalarini (QTEM) jadal rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shamol energetikasi bugungi kunda QTEM sektorining eng tez rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lib, 2023 yil oxiriga kelib dunyo bo‘ylab o‘rnatilgan umumiy quvvat 1000 GVt dan oshdi (GWEC, 2024).

O‘zbekiston Respublikasi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi»da (2021) QTEM ulushini umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishda 40 foizga yetkazish va o‘rnatilgan QTEM quvvatini 25 GVt ga oshirish maqsadini belgilagan. Ushbu maqsadda shamol energetikasiga 5 GVt dan ortiq ulush ajratilishi rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistondagi shamol energetikasi salohiyatini ilmiy asosda baholash, mavjud siyosiy va normativ muhitni tahlil qilish hamda texnik-iqtisodiy to‘siqlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy usul va miqdoriy baholash metodlaridan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Shamol energetikasini rivojlantirish masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro adabiyotlar anchagina keng qamrovlidir. IEA (2023) ma'lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda dunyo bo‘ylab shamoldan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 2100 TVt·soatni tashkil etdi va bu umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishning 7,6 foiziga tengdir.

Markaziy Osiyo mintaqasida Sovuq urush davridan meros qolgan energetik infratuzilma va «yashil iqtisodiyot» talablari o‘rtasidagi ziddiyatni o‘rganishda Bazilian va boshq. (2011) muhim nazariy asos yaratgan. Ular rivojlanayotgan mamlakatlar uchun QTEM bo‘yicha siyosiy sharoitni yaratishning iqtisodiy mantiqini asoslab bergan.

O‘zbekiston kontekstida Nurullayev va Xoliqov (2022) Navoiy va Qoraqalpog‘iston hududlarida o‘tkazilgan shamol anemometrik tadqiqotlar asosida o‘rtacha shamol tezligi 6–8 m/s ni tashkil etishini aniqlashgan. Shuningdek, IRENA (2022) O‘zbekistonda texnik salohiyat 100 GVt dan oshishi mumkinligini modellashtirish orqali ko‘rsatgan.

Ammo mavjud adabiyotlarda tarmoqqa integratsiyalashuv muammolari, xususan, o‘zgaruvchan shamol energiyasini stabillashtirish va energiya saqlash

ISSN 3030-3907

texnologiyalarining iqtisodiy tahlili yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida yozilgan.

O‘zbekistonda shamol resurslari va geografik tarqalishi

O‘zbekistonning geografik o‘rni va relyefi shamol resurslarining notekis taqsimlanishiga sabab bo‘ladi. Eng yuqori salohiyatga ega hududlar asosan shimoliy-g‘arbiy tekisliklar (Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyati cho‘llari) va Farg‘ona vodiysi tog‘ dovonlari hisoblanadi.

1-jadvalda

O‘zbekistonning asosiy viloyatlari bo‘yicha shamol salohiyatining qisqacha ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Hudud / viloyat	O‘rtacha shamol tezligi (m/s)	Yillik ishlab chiqarish salohiyati (TWh)	Rivojlanish imkoniyati
Qoraqalpog‘iston	6,5–8,0	500–700	Yuqori
Navoiy viloyati	5,5–7,5	400–600	Yuqori
Buxoro viloyati	5,0–6,5	350–550	O‘rta-yuqori
Qashqadaryo viloyati	4,5–6,0	300–480	O‘rta
Surxondaryo viloyati	4,0–5,5	250–420	O‘rta
Farg‘ona vodiysi	3,5–5,0	200–350	Past-o‘rta

Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida aholi zichligi va qishloq xo‘jaligi erlari ko‘pligi sababli yirik stansiyalar qurilishi uchun yer ajratish qiyinroqdir. Shu bois, eng istiqbolli hududlar sifatida Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyati alohida e'tiborga loyiqdir.

Normativ-huquqiy baza va davlat siyosati.

O‘zbekistonda shamol energetikasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator muhim normativ hujjatlar qabul qilingan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-martdagi PF-5680-son «Qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni — tariff kafolatlari va erkin savdo zonasi imtiyozlarini joriy etdi.

2. 2021-yildagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi» — 25 GVt umumiy QTEM quvvatiga erishish maqsadini belgiladi.

ISSN 3030-3907

3. «Qayta tiklanadigan energiya manbalari to‘g‘risida»gi Qonun (2019) — tarmoq bilan ulanish, tarif belgilash va litsenziyalash tartibini huquqiy jihatdan tartibga soladi.

4. 2022-yilda Raqobatbardosh elektr energiyasi bozorini yaratish bo‘yicha islohot doirasida «yashil sertifikat» tizimi joriy etildi.

Investorlar uchun kalit imtiyozlar quyidagilardir: 10 yillik bojxona to‘lovlaridan ozodlik, 5 yillik foyda solig‘idan imtiyoz, yerdan foydalanish bo‘yicha soddalashtirilgan tartib va mahsulot almashish shartnomasi (PPA) kafolati.

Hozirgi ahvol va rejalashtirilgan loyihalar.

2023 yilga kelib O‘zbekistonda o‘rnatilgan shamol elektr stansiyalari quvvati atigi 23,3 MVt ni tashkil etgan (Janubiy Qozog‘iston chegarasi yaqinidagi kichik ob'ektlar). Ammo 2024–2026 yillarda yirik loyihalarning amalga oshirilishi bilan bu ko‘rsatkich keskin o‘sishi kutilmoqda.

2-jadval.

O‘zbekistondagi asosiy shamol energetikasi loyihalari (2024–2026)

Loyiha nomi	Joylashuv	Quvvat	Rejalashtirilgan yil	Investor/Operator
Zarafshon-1 SHES	Navoiy	500 MVt	2024	Masdar (BAA)
Qoraqalpog‘iston SHES	Qo‘ng‘irot	1000 MVt	2025–2026	ACWA Power
Buxoro SHES	Buxoro	500 MVt	2025	Total Energies
G‘azli SHES	Buxoro	500 MVt	2026	Xalqaro tender
Karakul SHES	Buxoro	200 MVt	2026	Korea South Power

2-jadvalda keltirilgan loyihalar amalga oshirilganidan so‘ng o‘rnatilgan quvvat 2,7 GVt ga yetadi. BAA, Frantsiya, Janubiy Koreya kabi yirik investorlarning ishtirokida mamlakatning investitsiya jozibadorligi tasdiqlanmoqda.

Texnik-iqtisodiy tahlil va muammolar:

Texnik ko‘rsatkichlar.

Zamonaviy shamol turbinalari 3-5 MVt quvvatga ega bo‘lib, 100–150 m balandliklarida 100 m/s gacha parvoz tezligini ko‘taradigan pallalar bilan

ISSN 3030-3907

jihozlangan. O‘zbekiston uchun optimal turbina modellari sifatida Vestas V150-4.5 MW va Siemens Gamesa SG 5.0-145 ko‘rib chiqilmoqda, chunki ular quruq, qumli muhit sharoitiga moslashtirilgan.

O‘rtacha to‘liq yuklanish soatlari (FLH) Qoraqalpog‘istonda 2800–3200 soat/yil, Navoiy viloyatida 2400–2900 soat/yilga teng deb baholanmoqda. Qiyosiy ma'lumot uchun: Germaniyada ushbu ko‘rsatkich 1500–2000 soat, Daniyada 2500–3000 soatni tashkil etadi.

Iqtisodiy samaradorlik.

Levellized Cost of Energy (LCOE) ko‘rsatkichi bo‘yicha hisob-kitoblar shamol elektr stansiyalari uchun 2024-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston sharoitida 25–35 AQSh dollari/MVt·soat oraliqda ekanligini ko‘rsatmoqda (IRENA, 2023). Bu ko‘rsatkich an'anaviy gaz elektr stansiyalarining 45–60 AQSh dollari/MVt·soatdan past bo‘lib, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Zarafshon-1 loyihasi misoli: 500 MVt quvvat, taxminiy kapital sarfi — 650 mln dollar, yillik ishlab chiqarish — 1,5 TVt·soat, to‘lov muddati — 7–9 yil.

Asosiy muammolar.

1. Tarmoq integratsiyasi: O‘rta Osiyo energiya tizimining eskirgan infrastrukturasi o‘zgaruvchan QTEM yukini muvozanatlashga tayyor emas. Quvvat akkumulyatsiya tizimlari (BESS) joriy etilmasa, tarmoq chastotasi barqarorligi muammosi kuchayadi.

2. Mahalliy ishlab chiqarish yo‘qligi: turbina komponentlari hozircha to‘liq import qilinmoqda. Bu loyiha xarajatlarini 15–20 foizga oshiradi.

3. Malakali kadrlar tanqisligi: shamol turbinasini texnik xizmat ko‘rsatish va loyihalash bo‘yicha muhandislar etishmasligi kuzatilmoqda.

4. Yuqori uzatish yo‘qotishlari: O‘zbekistonning elektr uzatish tarmog‘ida texnik yo‘qotishlar 12–14 foizni tashkil etadi, bu Yevropa ko‘rsatkichidan 2–3 baravar yuqori.

Istiqbollar va tavsiyalar.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi stsenariylar ko‘rib chiqilishi mumkin:

Pessimistik stsenariy (2030): Hozirgi siyosat va investitsiya suratlari saqlanib qolsa, o‘rnatilgan quvvat 3 GVt ga yetadi. Bunda QTEM ulushi elektr ishlab chiqarishda 15–18 foizni tashkil etadi.

Asosiy stsenariy (2030): Davlat siyosati faollashtirilsa va tarmoq modernizatsiyasi boshlansa, o‘rnatilgan quvvat 5–6 GVt ga yetishi mumkin. QTEM ulushi 25–28 foiz bo‘ladi.

Optimistik stsenariy (2030): Mahalliy ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, BESS tizimlari keng joriy etilsa va mintaqaviy elektr bozori shakllansa, o‘rnatilgan quvvat 8–10 GVt ga yetadi va QTEM ulushi 35–40 foizga ko‘tariladi.

ISSN 3030-3907

Muallif tomonidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Energiya saqlash bo‘yicha davlat subsidiyasi dasturini yaratish va BESS korporativ loyihalarda majburiy qilinishini joriy etish.

2. Turbina qismlari mahalliy ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida sanoat klasterlari va ilmiy-texnik markazlar tashkil etish.

3. Oliy ta'lim muassasalarida «shamol energetikasi muhandisligi» ixtisosligini ochish va qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslarini yo‘lga qo‘yish.

4. O‘rta Osiyo yagona elektr bozorini yaratish uchun mintaqaviy diplomatiyadagi faollikni oshirish va Qozog‘iston, Qirg‘iziston bilan elektr energiyasi almashish shartnomalari tuzish.

5. Yirik qishloq xo‘jaligi ob'ektlari va sanoat korxonalari uchun «kichik shamol» (Small Wind) dasturini ishlab chiqish va agroenergetika modelini keng joriy etish.

XULOSA.

O‘zbekiston shamol energetikasi sohasida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatidagi texnik salohiyat yuz GVt dan ortiqdir. 2024–2026 yillarda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar energetika tarkibida tub o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, normativ-huquqiy bazaning shakllanishi, xalqaro investorlarning faol ishtiroki va tarmoq modernizatsiyasi muammolarining hal etilishi sharoitida 2030 yilga kelib O‘zbekiston 5–8 GVt o‘rnatilgan shamol quvvatiga ega bo‘lishi realistikdir. Bu esa har yili 15–24 mln tonna CO_2 emissiyasining oldini oladi va energiya import xarajatlarini 1–1,5 mlrd dollar kamaytiradi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun anemometrik ma’lumotlar bazasini kengaytirish, quvvat prognozlash modellari va energiya saqlash tizimlari bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. GWEC (Global Wind Energy Council). (2024). Global Wind Report 2024. Brussels: GWEC.
2. IEA (International Energy Agency). (2023). Renewables 2023: Analysis and Forecast to 2028. Paris: IEA.
3. IRENA (International Renewable Energy Agency). (2022). Renewable Power Generation Costs in 2022. Abu Dhabi: IRENA.
4. IRENA. (2022). Uzbekistan's Energy Transition Outlook: A Renewable Energy Roadmap. Abu Dhabi: IRENA.
5. Bazilian, M., Nussbaumer, P., Rai, H.M., et al. (2011). «More heat and light». Energy Policy, 39(10), 5938–5941.

ISSN 3030-3907

6. Nurullayev, A., & Xoliqov, B. (2022). O‘zbekistonning shimoliy-g‘arbiy hududlarida shamol energetikasi resurslari tahlili. Energetika va resurslardan foydalanish, 3(1), 12–24.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5680-son Farmoni (2019-yil 1-mart). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi «Qayta tiklanadigan energiya manbalari to‘g‘risida»gi Qonun (2019). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
9. O‘zbekiston Respublikasi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish Konsepsiyasi» (2021). Toshkent.
10. O‘zHMI (O‘zbekiston Gidrogidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti). (2023). O‘zbekiston bo‘yicha shamol tezligi atlasi. Toshkent: O‘zHMI.
11. Masdar & O‘zbekenergo. (2023). Zarafshon Shamol Elektr Stansiyasi: Texnik-Iqtisodiy Asoslash. Abu Dhabi/Toshkent.
12. World Bank. (2023). Uzbekistan's Energy Sector: Investment Climate and Renewable Energy Opportunities. Washington D.C.: World Bank.
13. Styczynski, Z.A., & Orths, A. (2014). Integration of Renewable Energies into the Grid. Proceedings of IEEE Power & Energy Society. ISBN 978-1-4799-5871-7.
14. Wiser, R., & Bolinger, M. (2023). Land-Based Wind Market Report: 2023 Edition. US Department of Energy: Lawrence Berkeley National Laboratory.
15. Maqsadov, S., Tursunov, O., & Ergashev, D. (2023). Energetik siyosat islohotlari va QTEM rivojlanishi: O‘zbekiston tajribasi. Iqtisod va moliya, 5(2), 87–99.

ISSN 3030-3907